



QARSHI MUHANDISLIK -  
IQTISODIYOT INSTITUTI

# INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

# ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

# THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2023 / 4



innoeconomic@qmii.uz



Qarshi shahri,  
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



<https://ojs.qmii.uz/index.php/ej>



# INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

2023-yil, 4-son



<p><b>Muassis:</b> <b>Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti</b></p> <p><b>Tahririyat jamoasi:</b> <b>Bosh muharrir:</b> O.SH.Bazarov</p> <p><b>Bosh muharrir o'rribosari:</b> Professor R.X.Ergashev</p> <p><b>Mas'ul kotib:</b> Dotsent G.T.Samiyeva</p> <p><b>Texnik muharrir:</b> F.F.Haqqulov <u>Jurnal 1 yilda 4 marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.</u></p> <p><b>Tahririyat manzili:</b> <b>180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy</b></p> <p>Tel.: +998 (75) 221 09 23 +998 (93) 902 72 63</p> <p>Faks: +998 (75) 221 1395</p> <p>E-mail: <a href="mailto:innoeconomic@qmii.uz">innoeconomic@qmii.uz</a></p> <p>Sayt: <a href="https://ojs.qmii.uz">https://ojs.qmii.uz</a></p> <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-martda 068055-raqam bilan ro'yxatga olingan.</p> <p>ISSN: 3030-315X</p>	<p style="text-align: center;"><b>TAHRIRIYAT KENGASHI:</b></p> <p><b>Tahririyat Kengashi raisi:</b> <b>O.Sh.Bazarov</b> – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent.</p> <p><b>Tahririyat Kengashi raisining o'rribosari:</b> <b>R.X.Ergashev</b> – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti professori, iqtisodiyot fanlari doktori.</p> <p><b>Mas'ul muharrir:</b> <b>G.T.Samiyeva</b> – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori.</p> <p><b>Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:</b> <b>V.N.Ovchinikov</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)</p> <p><b>S.Y.Solodovnikov</b> – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)</p> <p><b>I.V.Shevchenko</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)</p> <p><b>X.X.Kusainov</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)</p> <p><b>I.H.Samandarzoda</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor ( Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)</p> <p><b>Dmitro Dema</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Ukraina milliy universiteti, Jitomir)</p> <p><b>Tahririyat Kengashi a'zolari:</b></p> <p><b>Q.X.Abdurahmonov</b> – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik</p> <p><b>S.S.Gulyamov</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik</p> <p><b>A.T.Yusupov</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor</p> <p><b>M.Q.Pardayev</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor</p> <p><b>A.V.Vaxabov</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor</p> <p><b>N.M.Maxmudov</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor</p> <p><b>F.X.Nazarova</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor</p> <p><b>O.Murtazaev</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor</p> <p><b>B.N.Navro'z-zoda</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor</p> <p><b>O.Q.Xatamov</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor</p> <p><b>S.N.Xamrayeva</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor</p> <p style="text-align: center;"><b>TAHRIRIYAT A'ZOLARI:</b></p> <p><b>B.T.Salimov</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor.</p> <p><b>I.B.Rustamova</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor.</p> <p><b>A.F.Xurramov</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor.</p> <p><b>A.B.Xayriddinov</b> – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.</p> <p><b>A.H.Berdiyev</b> - iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.</p> <p><b>Sh.Sh.Fayziyeva</b> - iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.</p> <p><b>X.S.Muxiddinov</b> - iqtisodiyot fanlari doktori, professor.</p> <p><b>R.F.Omonov</b> - iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.</p> <p><b>S.R.Egamberdiyeva</b> – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.</p> <p><b>A.D.Ravshanov</b> - iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.</p> <p><b>A.B.Qurbanov</b> - iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.</p> <p><b>I.E.Tursunov</b> - iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.</p> <p><b>A.T.Aliqulov</b> - iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.</p> <p><b>G.P.Erkayeva</b> - iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.</p> <p><b>S.A.Panjiyev</b> – pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent.</p>
---	--

## MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

<b>I. NAZARIYA VA METODOLOGIYA.....</b>	<b>5</b>
MINTAQADA IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI F.B.Aminov.....	5
<b>II. RAQAMLI IQTISODIYOT.....</b>	<b>11</b>
MILLIY IQTISODIYOTDA HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARINI RAQAMLASHTIRISHNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI F.A.Norqobilova .....	11
<b>III. MINTAQQA VA TARMOQLAR IQTISODIYOTI .....</b>	<b>16</b>
ORGANIK QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI "TA'MINOT ZANJIRI"DA AGROLOGISTIKANING ROLI VA AHAMIYATI Sh.O.Amirqulov .....	16
DEHQON VA TOMORQA XO'JALIKLARIDA MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH TENDENSIYASINING QIYOSIY KO'RSATKICHLAR TAHЛИI N.A.Ochilova .....	20
ASALARICHILIKDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TRANSFORMATSIYA QILISHNI RAG'BATLANTIRISH YO'LLARI Ж.Фармансов.....	27
AGLOMERATSIYANI RIVOJLANTIRISHNI KLASTERLASH TIZIMI A.O.Ochilov, N.Sh.Xidoyatova .....	33
<b>IV. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK .....</b>	<b>38</b>
HUDUDLarda TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INVESTITSION YO'NALISHLARI VA TAMOYILLARI Namozov A.Sh. ....	38
<b>V. MENEJMENT VA MARKETING .....</b>	<b>45</b>
INSON KAPITALI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI MENEJMENTI A.O.Ochilov, Y.T.Djumayev, A.A.Muratov.....	45
<b>VI. BUXGALTERIYA HISobi, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT.....</b>	<b>53</b>
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING NOL DARAJALI STAVKADAGI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI R.H.Djalilov .....	53
<b>VII. MOLIYA, KREDIT VA INVESTITSIYA.....</b>	<b>59</b>
HUDUDLARINI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH DASTURLARINI MOLIYALASHTIRISH YO'NALISHLARI F.Abrayev.....	59
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ ПЕРЕВОДОВ И ПЛАТЕЖНЫХ СИСТЕМ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ И.Б.Нормаматов .....	65
"YAGONA ERKIN ALMASHTIRILADIGAN VALYUTA" YARATILISH ZARURATI VA KONSEPSIYASI O.A.Yuldashev.....	70
BANK MOLIYAVIY AKTIVLARI- IQTISODIYOTNING MUHIM ELEMENTI SIFATIDA Mamarajabov B.A.....	83

<b>VIII. EKONOMETRIKA VA STATISTIKA .....</b>	<b>88</b>
KOMPYUTER MATEMATIKASI VA AKTDAN FOYDALANIB TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	
X.S.Muxitdinov, M.Poshokulova.....	88
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISHNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH	
M.Gulov .....	95
<b>IX. XIZMATLAR SOHASI.....</b>	<b>105</b>
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA AUTSORSING XIZMATLARI SIFATINI “AMUI” USULIDA BAHOLASH XUSUSIYATLARI	
N.R.Ergasheva .....	105

## I. NAZARIYA VA METODOLOGIYA

**UDK:330.3**

### MINTAQADA IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

**Fazliddin Bahadirovich Aminov** - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

### НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В РЕГИОНЕ

**Фазлитдин Бахадирович Аминов** – к.э.н., доцент кафедры “Инновационная экономика” Каршинского инженерно-экономического института

### SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR ENSURING ECONOMIC GROWTH IN THE REGION

**Fazliddin Bahadirovich Aminov** – Associate Professor of the Department of “Innovative Economics” of Karshi Engineering and Economic Institute

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iqtisodchi olimlar tomonidan “iqtisodiy o’sish”, “iqtisodiy salohiyat” tushunchalariga berilgan ilmiy-nazariy ta’riflar va ularning qiyosiy tahlili, shuningdek, barqaror iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o’sishni ta’minalashda mintaqaviy salohiyatning ahamiyati, uning asosiy elementlari, iqtisodiy salohiyatning toifalarga bo’linishi va undan foydalanish imkoniyatlari, shuningdek strategik boshqaruv yo’nalishlari yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** iqtisodiy o’sish, iqtisodiy salohiyat, iqtisodiy rivojlanish, salohiyat elementlari.

**Аннотация.** В данной статье представлены научно-теоретические определения, данные экономистами понятиям «экономический рост», «экономический потенциал» и их сравнительный анализ, а также значение регионального потенциала в обеспечении устойчивого экономического развития и экономического роста, выделены его основные элементы. А также выделена категоризация экономического потенциала и возможности его использования, даны направления стратегического управления.

**Ключевые слова:** экономический рост, экономический потенциал, экономическое развитие, элементы потенциала.

**Abstract.** This article presents the scientific and theoretical definitions given by economists of the concepts of "economic growth", "economic potential" and their comparative analysis, the importance of regional potential in ensuring sustainable economic development and economic growth, its main elements are highlighted. Also, the classification of economic potential and the possibilities of its use are highlighted, the directions of strategic management are given.

**Keywords:** economic truth, economic potential, economic development, elemental potential.

#### 1. KIRISH

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda hududlardagi mavjud salohiyatdan samarali foydalanish orqali mamlakatimiz iqtisodiy yuksalishini ta’minalashga katta e’tibor qaratilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor

yo‘nalishlarida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini saqlab qolish, shuningdek, iqtisodiyotni rivojlantirish va erkinlashtirish, viloyatlar, tumanlar va shaharlarni mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning hududlari mavjud salohiyatdan samarali foydalanish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish maqsadida har bir hududning tabiiy, foydali qazilmalari, sanoat, qishloq xo‘jaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, aholi tur mush darajasi va daromadlarini oshirish ustuvor yo‘nalishlar etib belgilangan [1].

Har qanday davlatning asosiy iqtisodiy muammosi barqaror iqtisodiy o‘sish va uning yuqori sur’atlarini ta’minlashdan iborat. Barqaror iqtisodiy o‘sish – bu iqtisodiyotning uzoq vaqt davomida yuqori sur’atlarda o‘sishini hamda oqilona makroiqtisodiy siyosat, iqtisodiyotni liberallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, texnik qayta qurollantirishga qaratilgan tarkibiy o‘zgarishlar, shuningdek ishlab chiqarishni jadallashtirish va chuqurlashtirish natijasida iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlariga erishishni ta’minlashdan iborat.

Mamlakatimiz hududlarini kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi, iqtisodiy va investitsiya salohiyati va boshqa qiyosiy ustunliklarni baholashning yagona tizimini joriy etish maqsadida O‘zbekiston, 01.05.2020 yildagi PQ-4702-son “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha reyting tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori [2] hududlarda mavjud salohiyatdan foydalangan holda iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini ta’minlashni ko‘zda tutgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, maqola dolzarb mavzuga bag‘ishlangan.

## 2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi vaqtida iqtisodiy o‘sish muammolarini iqtisodiy muhokamalarda, turli siyosatchilar, hukumat a’zolari, turli millat vakillarining muloqotlarida markaziy o‘rinni egallaydi. Chunki real ishlab chiqarishning u yoki bu darajada o’sishi har qanday iqtisodiy tizim uchun xos bo‘lgan cheklangan resurslar sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qondirish muammosini hal qilish imkonini beradi.

A.Smit va T.Maltus nomi bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy rivojlanishning dastlabki tushunchalaridan biri uning o‘sishi yoki sekinlashuvining birlamchi omillari mehnat, kapital va aholi soni degan farazga asoslangan edi. Ammo ular, klassik siyosiy iqtisodning ko‘plab tarafdozlari kabi, inson bilimini rivojlantirish, fanni rivojlantirish va uning yutuqlarini texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirishda qo’llash kabi muhim omilning ahamiyatini hisobga olmadilar [3].

Klassik maktabning yana bir ko‘zga ko‘ringan vakili David Rikardo iqtisodiy o‘sishni asbob-uskunalarini texnologik takomillashtirish va savdoga ixtisoslashish orqali nazorat qilish mumkin, lekin ayni paytda butunlay barqaror holatni ehtimol qildi.

Iqtisodiy o‘sishning keyingi kontseptsiyalarida asosiy e’tibor rivojlanishning to‘rtta omilining turli kombinatsiyalariga qaratiladi: mehnat, kapital, resurslar va texnologiya. Xususan, V. Rostouning bosqich nazariyasi iqtisodiy o‘sish nazariyalari uchun alohida qiziqish uyg‘otadi, unga ko‘ra, ma’lum vaqt dan so‘ng barqaror iqtisodiy o‘sish mamlakatning iqtisodiy strukturasida sezilarli sifat o‘zgarishlariga olib keladi va iqtisodiyot tabiiy ravishda harakatga keladi. “bir bosqichdan ikkinchisiga” yoki bir holatdan boshqasiga [4].

To‘lovga qodir talab Keyns modelining asosiy omili bo‘lib, iqtisodiy o‘sishga hissa

qo'shishi kerak bo'lgan yalpi to'lovga qodir talabning kengayishi hisoblanadi. Amalda Keyns talab omillariga emas, balki klassik yondashuvga xos bo'lgan taklif omillariga e'tibor qaratadi. Keynsning fikricha, iqtisodiy o'sishni o'rganishda investitsiyalarning multiplikativ ta'siri muhim ahamiyatga ega. Mamlakat qanchalik boy bo'lsa, o'sib borayotgan milliy daromadning to'plangan va sarmoyaga yo'naltirilgan ulushi qanchalik ko'p ekanini ko'rsatadi.

J.A.Shumpeter 1934 yilda nashr etilgan "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" asari bilan o'sish nazariyasiga katta hissa qo'shdi. Aynan Shumpeter iqtisodiyotga "innovatsiya" tushunchasini kiritdi va tadbirkorning tabiatiga iqtisodiy o'sish nuqtai nazaridan mutlaqo yangicha nazar tashladi.

Nazariy jihatdan tadbirkor, tadbirkor-innovator, ijodkor shaxs taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ishtirok etadi [5].

Iqtisodiy o'sishning zamonaviy kontseptsiyasi ilmiy muomalaga amerikalik iqtisodchi Saymon Kuznets tomonidan kiritilgan. Uning fikricha, iqtisodiy o'sish - bu ishlab chiqarishning uzoq muddatli o'sish sur'ati aholi o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lgan iqtisodiy rivojlanishdir [6].

P.Samuelson va V.Nordxauslarning fikricha, iqtisodiy o'sishning asosiy omillari: kapital, texnologiya, tabiiy va inson resurslaridir. Yuqorida qayd etilgan olimlar iqtisodiy o'sishni ishlab chiqarish imkoniyatlari chegaralari kengayganda yuzaga keladigan "mamlakatning potentsial YaIM yoki ishlab chiqarish hajmining o'sishi" deb tushunadilar [7].

K.R.Makkonnel va S.L.Bryu o'zlarining klassik asarlarida iqtisodiy o'sish quyidagi omillar bilan belgilanishini ham ta'kidlaydilar:

- a) tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
- b) mehnat resurslarining miqdori va sifati;

c) kapital resurslari;

d) texnologiya [8].

Ushbu tushunchalarni ochish uchun ilmiy-nazariy tadqiqotlar va iqtisodchilarning iqtisodiy o'sish va iqtisodiy salohiyatga oid fikrlarini o'rganish orqali o'ziga xos yondashuv qo'llaniladi. Muallif hududning iqtisodiy yuksalishi va uning iqtisodiy salohiyati haqida xulosa qilgan, salohiyat elementlari va ulardan samarali foydalanish bo'yicha o'z takliflarini bildirgan.

### **3. TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Ilmiy maqola tayyorlashda ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarini tizimli tahlil qilish, qiyosiy tahlil kabi usullardan keng foydalaniqilgan.

### **4. ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR**

Iqtisodiy o'sish turli nuqtai nazaridan o'rganilganligi sababli uni intensiv va ekstensiv turlarga bo'lish mumkin. Ekstensiv iqtisodiy o'sish tabiiy resurslar, mehnat va kapital kabi ishlab chiqarish omillarining qo'shimcha jalb etilishi va faqat ularning miqdoriy ko'payishi hisobiga sodir bo'ladi. ularning sifati va texnik darajasi o'zgarishsiz qoladi. Ilmiy-texnik bazani takomillashtirish, ishlab chiqarishning barcha omillaridan samarali foydalanish va mehnat unumdorligini oshirish hisobiga iqtisodiyotning intensiv o'sishi ta'minlanadi. Intensiv usul ishlab chiqarishga jalb qilingan har bir resurs birligining unumdorligida, pirovardida mahsulot miqdorini oshirishda, mahsulot sifatini oshirishda ifodalanadi [9].

Nazariyalar va harakatlantiruvchi kuchlarning xilma-xilligi mintaqadagi iqtisodiy tizimlar rivojlanishining maqsadi, manbai, harakatlantiruvchi kuchi va boshqariladigan omilini tavsiflovchi yagona umumiyl yaxlitlikni aniqlash vazifasining murakkabligi bilan izohlanadi. Biroq, maqsadlarni, o'sish omillarini, boshqariladigan toifalarni va harakatlantiruvchi kuchlarni

sinchkovlik bilan o'rganib chiqqach, ularning barchasi har biri bir qismi bo'lgan yagona iqtisodiy tizimning "kompetentligi" tushunchasiga birlashtirilganligini ko'rish mumkin.

Uning salohiyatini mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimning asosi sifatida olish mumkin. Salohiyat (potentsial) - (lotincha potentia - kuch), har qanday vazifani bajarish, ma'lum maqsadga erishish uchun foydalanish mumkin, mavjud resurslar, imkoniyatlar, vositalar, zaxiralar; shaxs, jamiyat, davlatning ma'lum bir sohadagi imkoniyatlari [10].

"Kompetensiya" atamasi subyektning obyektiv yoki subyektiv sharoitlar tufayli uning faoliyati sohasida o'zini namoyon qilmagan yashirin, hali to'liq namoyon bo'lмаган qobiliyatlarga ega ekanligini anglatadi [11]. Iqtisodiyot nazariyasida potentsial har qanday sohada mavjud vositalar va imkoniyatlar to'plami sifatida ta'riflanadi, lekin ayni paytda "vakolatli" atamasi "amalga oshirishga qodir" degan ma'noni anglatadi, uning mavjudligi va ishlatilishi ehtimolliy omildir [12].

Iqtisodiy adabiyotlarda ijtimoiy-iqtisodiy tizimning, jumladan, mintaqaviy iqtisodiyotning salohiyati deganda nima tushunilishi haqida kelishmovchiliklar mavjud. Masalan, Oksford lug'atida iqtisodiy potentsial raqobatbardoshlikni ta'minlovchi kuch va imkoniyatlar darajasi [13], boshqa manbada esa iqtisodiy salohiyat "xalq xo'jaligining ma'lum vaqt oralig'ida kapital qurilishni amalga oshirish, tovarlarni tashish va aholiga xizmatlar ko'rsatish qobiliyatining yig'indisi", - deb ta'riflanadi. Hatto bir qator ilmiy nashrlarda ham mualliflar o'rtasida iqtisodiy salohiyat to'g'risida kelishuv mavjud emas. Xususan, A.Yu.Chalenko iqtisodiy salohiyatni mavjud resurslar majmui, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish – xo'jalik munosabatlari natijasi sifatida tavsiflagan [14]. Boshqa bir manbada

aytilishicha, "iqtisodiy salohiyatning kattaligi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishini, mamlakatning raqobatbardoshligini va korxonalarning kapitallashuv darajasini ko'rsatadi" [15].

F.M.Rusinovning fikriga ko'ra, salohiyat potentsial keng ma'noda ma'lum bir maqsadga erishish uchun mavjud bo'lgan va ishlatilishi mumkin bo'lgan vositalar, zaxiralar, resurslarni anglatadi [19]. Ushbu kontseptsiyada iqtisodiy salohiyat oldingi mehnatning to'plangan natijasi bilan belgilanadi.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiy salohiyat mazmunini bunday tarzda toraytirib bo'lmaydi, chunki jonli faoliyatsiz o'tmishdagi mehnat, odamlarning jonli mehnati faqat rezerv (zaxira), uni shartli ravishda potentsial deb atash mumkin. Ayrim iqtisodchilar iqtisodiy salohiyatni milliy boylik bilan belgilaydilar [17], lekin milliy boylik iqtisodiy salohiyatga qaraganda kengroq tushunchadir. Iqtisodiy salohiyat mehnat bilan yaratilgan moddiy boyliklarning to'planishini ta'minlaydi, lekin tabiiy resurslarni yaratmaydi, balki ulardan boylik yaratish uchun foydalanadi va demak, milliy boylik tarkibiga kiradi. Iqtisodchilarning ishlarida aks ettirilgan potentsialni tasniflashning boshqa usullari ham amaliyot uchun muhimdir. Masalan, bir qator mualliflar potentsialni tabiiy va ishlab chiqarish resurslari, aholi, tashkilot va boshqaruvni tarkibiy elementlarga ajratgan holda bloklarda ko'rib chiqishni taklif qiladilar [18]. Shu bilan birga, hudud va mintaqaning mintaqalararo, davlatlararo va jahon munosabatlari va kommunikatsiya tizimlaridagi o'rnini aks ettiruvchi geosiyosiy salohiyat alohida ta'kidlangan.

Ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat turlarini hisobga olgan holda potentsialni tasniflash va uning uch jihatini ko'rib chiqish mumkin.

Birinchi jihat hududiydir. U mehnat salohiyatini: aholi soni va tarkibi, shuningdek,

mintaqaning geosiyosiy holatini o'z ichiga oladi.

Ikkinci jihat - ishlab chiqarish. Odadta bular sanoat, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, infratuzilma va innovatsiyalardir.

Uchinchi jihat – hududning ijtimoiy-ma'naviy va intellektual salohiyati [19].

## 5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Bir qator ta'riflarda iqtisodiy salohiyatni faqat iqtisodiy soha ko'rib chiqiladi, ya'ni resurslar birinchi o'ringa qo'yiladi va iqtisodiyotning asosiy maqsadi – odamlarning ehtiyojlarini qondirish o'z aksini topmaydi. Demak, “iqtisodiy salohiyat deganda iqtisodiyotning ma'lum hajm va sifatda mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish va ularni iste'molchilarga yetkazib berish qobiliyati tushunilishi kerak” [20]. Shuni hisobga olib, iqtisodiy salohiyatni iqtisodiyotning ma'lum vaqt oralig'ida ma'lum miqdorda va sifatda ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berish qobiliyati deb ta'riflashimiz mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan yondashuvlarning muhim xususiyati shundaki, ular faqat resurslardan iqtisodiy foydalanishni ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy tizimning iqtisodiy imkoniyatlarini o'rganadi. Biroq, ijtimoiy-iqtisodiy tizim subyektlarini iqtisodiy va noiqtisodiy manfaatlar birlashtiradi. Bunda iqtisodiy salohiyat iqtisodiy jarayonga jalb qilingan ijtimoiy-iqtisodiy tizim salohiyatining ma'lum bir qismigina hisoblanadi. Mintaqaning umumiyligi salohiyatini ijtimoiy va iqtisodiy tarkibiy qismlarga bo'lish mumkin.

Iqtisodiy salohiyat - moliyaviy, tashkiliy, texnik, mintaqaviy va tarmoq xarakterdagi mavjud yoki mumkin bo'lgan shartlar va cheklovlar doirasida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari va hududning iqtisodiy faoliyatining maksimal ko'rsatkichlari.

Ijtimoiy salohiyat - bu siyosiy, ma'naviy, falsafiy, axloqiy, madaniy va etnik xarakterdagi mavjud yoki mumkin bo'lgan

turmush darajasining mezonlari va cheklovlaridagi hayotiy faoliyatni tashkil etish qobiliyati va shu nuqtai nazaridan turmush darajasi sifat ko'rsatkichlari.

Yuqoridagi nazariy tahlillar hududning salohiyatini aholi, davlat va atrof-muhit manfaatlarini hisobga olgan holda mavjud resurslardan foydalanish asosida uzoq muddatli faoliyatni ta'minlash imkoniyati sifatida aniqlash imkonini beradi. Shundan kelib chiqib, hudud salohiyatini tabiiy salohiyat, ishlab chiqarish salohiyati, ilmiy-texnik salohiyat, boshqaruv salohiyati, mehnat salohiyati kabi tarkibiy elementlardan tashkil topgan tizim sifatida ko'rish mumkin. Mintaqaning salohiyati - bu maqsadga erishish uchun mavjud bo'lgan va foydalanish mumkin bo'lgan vositalar, zaxiralar va resurslar.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mintaqaning iqtisodiy salohiyatini, bizning fikrimizcha, mavjud imkoniyatlarni boshqarish nuqtai nazaridan quyidagi tarkibiy qismlarning yig'indisi sifatida ifodalash mumkin: resurs salohiyati (baza), funksional salohiyat (foydalanish), zaxira salohiyati (o'sish), ularning yig'indisi mintaqaga salohiyatini strategik boshqarish (rivojlantirish) imkonini beradi. Mintaqaviy salohiyat o'ziga xos ichki tuzilishga ega bo'lgan murakkab tizim bo'lib, bir qator belgilarga ko'ra tasniflanadi.

Mintaqaning salohiyatini quyidagicha aniqlash mumkin: resurslar va jarayonlarni baholash, ulardan foydalanish va rivojlantirish imkoniyati bilan mintaqaga subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar yig'indisi.

Mintaqaning salohiyatidan foydalanish imkoniyatlarini boshqarish nuqtai nazaridan, toifalarning har biri o'ziga xos iqtisodiy va iqtisodiy bo'limgan tarkibiy qismlarga ega.

Asosiy resurs salohiyatiga tabiiy resurs, tabiiy-iqlim, iqtisodiy-geografik va demografik salohiyat kiradi.

Funksional salohiyatga mehnat, ishlab chiqarish, moliyaviy, infratuzilma,

tadbirkorlik, tashqi iqtisodiy, tartibga solish va me'moriy-uslubiy salohiyat kiradi.

Zaxira salohiyatiga ilmiy-texnikaviy, intellektual salohiyat, ijtimoiy, investitsion,

innovatsion, raqamli salohiyat, tashkiliy-boshqaruv salohiyati, norasmiy iqtisodiyot kiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sон Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi "Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholashning reyting tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702-sон qarori.
3. Мальтус Т.Р. Опыт закона о народонаселении. Перевод И.А. Вернера.М., 2005 г. С. 249.
4. Ростоу В.В. Почему бедные становятся богаче, а богатые замедляются? Л.: Макмиллан, 1980.
5. Шумпетер Я.А. Теория экономического развития. - Гарвард: Издательство Гарвардского университета, 1934.
6. Кузнец, С. Экономический рост народов: совокупный выпуск и структура производства / С. Курнец. - Кембридж, 1971 - С.73
7. Самуэльсон П. Экономика: учебник / П. Самуэльсон, У. Нордхаус - [18 – изд.] – М., Вильямс, 2007 – 1360 с.
8. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономика. Учебник. - М: ИНФРА-М, 2003. -983 с.
9. Б. Валиев «Концептуальные подходы к теории экономического роста». Бизнес-Эксперт, 2014 № 1, 18 с.
10. Белоусов Р.А. Реальный экономический потенциал. - М.: Экономика, 1971.
11. Низомов А.Б., Намозова Н.Дж., Амонов Ю.Н. Микроэкономика. -Т.: Медицинское издательство Абу Али ибн Сины, 2000. - 21 р.
12. Большой энциклопедический словарь. V 2-х т. р. / Гл. изд. А. М. Прохоров. - М.: Советская энциклопедия, 1991. Т.2.
13. Оксфордский толковый словарь: английский-русский. - М.: «Академия Прогресса». 1995. - С. 318
14. Чаленко А.Ю. О понимании потенциала в экономических исследованиях / М.: Капитал страны, 2011.
15. Батирова Н. Отличительные черты развития промышленности Ташкентской области // Свет Ислама, выпуск 4, 2019.
16. Русинов Ф. М. Территориально-отраслевой принцип планирования: теория и практика. М., 1980.
17. Казачонок А. ГРАММ. Экономическая статистика. Минск, 1979 год.
18. Суслов К.В. Повышение конкурентоспособности региона. М: Финансы и статистика. 2011. С.211.
19. Мамаева З.М. Рейтинг инвестиционной привлекательности предприятия. //Резервы роста промышленного производства. Нижний Новгород: изд-во ННГУ. 2002. С. 55-63.
20. Голиков А. А. Введение в прикладную экономику: - Челябинск, 1999.

## II. RAQAMLI IQTISODIYOT

**UDK 330.5:004**

### **MILLIY IQTISODIYOTDA HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARINI RAQAMLASHTIRISHNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI**

**Norqobilova Feruza Abduhomidovna** - Qarshi muhandislik iqtisodiyot-instituti "Biznez va innovatsion menjment" kafedrasi mudiri, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

### **НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВИЗАЦИИ РЕМЕСЛЕННОЙ ПРОДУКЦИИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ**

**Норкобилова Феруза Абдухомидовна** - доктор философских наук (PhD), заведующая кафедры «Бизнес и инновационный менеджмент» Каршинского инженерно-экономического института

### **DEVELOPMENT DIRECTIONS OF DIGITIZATION OF CRAFT PRODUCTS IN THE NATIONAL ECONOMY**

**Norqobilova Feruza Abduhomidovna** - doctor of philosophy (PhD), head of the "Business and Innovation Management" Department of the Karshi Engineering Economic Institute

**Annotatsiya.** Yurtimiz taraqqiyotining hozirgi modernizatsiyalash bosqichida iqtisodiyotni raqamlashtirish o'tkazilayotgan bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish asosida hunarmandlar sinfini shakllantirish, aholining umumiyligini oshirish, hunarmandchilikni yanada rivojlantirish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Kalit so'zlar:** transformatsiya, modernizatsiya, raqamli, global, platforma, blokcheyn, texnologiya, axborot.

**Аннотация.** На современном модернизационном этапе развития нашей страны цифровизация экономики объясняется возможностью формирования класса ремесленников, повышения общей занятости населения, дальнейшего развития ремесел на основе углубления проводимых рыночных реформ.

**Ключевые слова:** трансформация, модернизация, цифровая, глобальная, платформа, блокчейн, технология, информация.

**Annotation.** At the current modernization stage of our country's development, the digitization of the economy is explained by the possibility of forming a class of craftsmen, increasing the general employment of the population, and further developing handicrafts based on the deepening of the ongoing market reforms.

**Key words:** transformation, modernization, digital, global, platform, blockchain, technology, information.

#### **1. KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan barcha sohada shaffoflik, oshkoraliq inson manfaati va inson qadrini ulug'lagan holda aholiga qulaylik yaratish maqsadida raqamlashtirishga e'tibor qaratilmoqda. Bu borada chuqur o'zgarishlar, jamiyatimizni demokratik yangilash, siyosiy

va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, modernizatsiya qilish va raqamlashtirish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bundan ko'rinish turibdiki, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida belgilab olingan va izchil ravishda amalga oshirilayotgan ulkan vazifalar

mustahkam zamin yaratmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi PQ-77-son "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" [1]gi Qarori qabul qilindi, ushbu qaror mamlakatimiz aholisini ish bilan band qilish, ularning loyihalarini moliyalashtirish, hunarmandchilik sohasini rivojlantirish va hunarmandlarimiz faoliyatini qo'llab-quvvatlashga zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Raqamli iqtisodiyotga faol o'tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi", hozirgi kunda yurtimiz "Xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi" bo'yicha 2019 yilda 8 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsada, hali juda ham orqadamiz. Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq, desak, bu ham haqiqat", - deb ta'kidlangan [2].

Shu sababli hunarmandchilikni transformatsiya qilish, modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va innovatsion g'oyalarni tadbirkorlikka joriy etish orqali rivojlantirishnining eng muhim yo'nalishlaridan biri qilib belgilangan. Yaqin kelajakda hunarmandchilik mamlakatimiz iqtisodiyotini uzlusiz rivojlantirishning eng muhim omili, taraqqiyot yo'lidan olg'a yetaklaydigan yetakshi kuch bo'lib qoladi.

## **2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI**

Keyingi o'n yillikda dunyo miqyosida sanoat inqilobi bilan bog'liq an'anaviy iqtisodiyotdan raqamli iqtisodiyotga o'tish keskin sur'atlar bilan ro'y bermoqda. Zamonaviy mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yangi yo'nalishlari avvalo Y.Shumpeter g'oyasiga asoslangan innovatsion iqtisodiyotdir

[3], AQShlik olim D.Bell tomonidan asoslangan postindustrial jamiyatning rivojlanish tendensiylari, J.Xokinsning bilimlar iqtisodiyoti yoki kreativ iqtisodiyot nazariyasi [4], Y.Benklerning "Digital Economy" deb nomlangan ilmiy ishlarida keltirilgan konsepsiylarida ilgari surilgan tarmoqli iqtisodiyot hamda D.Tepskott tomonidan kiritilgan raqamli iqtisodiyotdan [5], iborat bo'imoqda.

Bundan tashqari, ma'lumotlarning tartibga solinganligi va shaffofligi tufayli korxonaning xorijiy investorlarini jalb qilish imkoniyatlari oshib, xalqaro loyihalarda ishtirok etish uchun sharoit yaratiladi. O'zbekistonda davlat ishtirokidagi kompaniyalar iqtisodiyotning anchagina ulushini egallaydi. Shuning uchun ularni raqamlashtirish mamlakat YAIM o'sishiga bevosita ta'sir qiladi. Boshqacha qilib aytganda, davlat sektorining raqamli transformatsiyasi O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning muhim drayverlardan biri bo'la oladi.

Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda hunarmandchilik bo'yicha elektron pasportlarini yaratish, taklif, tovar va xizmatlar hajmi, narxi va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish lozim. Bunday ma'lumotlar bazalari Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya kabi ilg'or rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda.

## **3. TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Dunyo tajribasiga yuzlanadigan bo'lsak, hozirda raqamli iqtisodiyot elektron savdo va xizmatlar sohasi bilan chegaralanib qolmay, balki hayotimizning har bir sohasiga, xususan, tibbiyot, ta'lim va fan, arxitektura, energetika, qishloq xo'jaligi hamda transport vositalari, geologiya, kadastr, arxiv xizmatlar va boshqa sohalarga jadallik bilan kirib bormoqda va ularning har biri o'zining yuqori samaralarini bermoqda. Fuqarolarning davlat organlari bilan bog'liqligini elektron platforma orqali aloqaga o'tkazish, ya'ni davlat o'z aholisi uchun elektron xizmat ko'rsatishi va elektron

tovarlarni taklif etishi raqamli iqtisodiyotning asosi bo‘lib hisoblanadi.

Shunday qilib, hunarmandchilikda raqamli transformatsiyalashuv jarayonlari yuqori suratlarga ega bo‘lib, bu o‘z o‘rnida aholi turmush sifatini yaxshilashga olib keladi.

#### **4. ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR**

Milliy iqtisodiyotda hunarmandchilikni rivojlantirish axborot kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish, mahalliy va global tarmoqlar orqali hunarmandchilikning biznes vakillarini doimiy xabardor qilib turish va dunyo bozorlaridagi hunarmandchilik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, umumlashtirish, ularning katalogini tuzish va doimiy yangilab turish, to‘plangan ma’lumotlarni hunarmandchilik mijozlariga turli xil axborot markazlari orqali yetkazish maqsadga muvofiq.

Raqamli iqtisodiyotning yangi konsepsiysi inson faoliyatiga tegishli har bir informasiyani raqamlashtirish texnologiyalarini qo‘llab ishlov berish, saqlash va uzatishning yagona tizimidir. Iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali ijodiy yondashib yangi iqtisodiyotni barpo etish imkoniyati tug‘iladi. Yetakshi xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillarga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot YAIMni kamida 30 foizga o‘sirish, shuning barobarida, xufiyona iqtisodiyotga barham berish hamda korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini berar ekan. Ko‘rinib turibdiki, mazkur soha yurtimizda barcha soha va tarmoqning yuksak rivojiga jiddiy turtki bo‘ladi.

Vazifalardan kelib chiqib hunarmandchilikni raqamli transformasiya jarayonini tashkil qilish uchun asosiy beshta strategik yo‘nalishlari taklif etildi (1-jadval).

**1-jadval**

#### **Hunarmandchilikda raqamli transformasiya jarayonini tashkil qilishning asosiy strategik yo‘nalishlari**

<b>Transformasiya jarayonining strategik yo‘nalishlari</b>	<b>Vazifalari</b>
<b>BIM texnologiyalarini hunarmandchilik infratuzilma obyektlarining hayot aylanish jarayonida qo‘llash</b>	-BIM asosida raqamlashtirish hunarmandchilik infratuzilmasi obyektlarining hayotiy siklining barcha jarayonlarini qamrab oladi, foydalanish va xizmatlar ko‘rsatish sifatining oshishini ta’minlaydi;
<b>Bigdata va sun’iy intellektga asoslangan umumiyy “Tizimlar tizimini” shakllantirish</b>	- hunarmandchilikning yagona yaxlit tizimini shakllantirish; -yaxlit tizim shahar infratuzilmasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni va boshqa bir qator ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi; - tadbirkorlikni boshqarish jarayonida katta ma’lumotlar texnologiyasi va sun’iy intellektidan foydalanish
<b>Raqamli platformalar va IoT texnologiyasidan foydalanish</b>	- hunarmandchilikni boshqarish va tadbirkorlik obyektlari datchiklaridan, shuningdek, hisoblagichlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumot olish jarayonida internet texnologiyasini joriy etish;
<b>Hunarmandchilikni boshqarishda axborot-tahlil vositalarini qo‘llash</b>	- Axborot-tahlil vositalaridan foydalanishni kengaytirish, shu jumladan, fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqish jarayonida matn va nutqni semantik tahlil qilish, ko‘p o‘lchovli statistik tahlil va murakkab voqealarni qayta ishlash;
<b>Blockchain texnologiyasini amalga oshirish</b>	-hunarmandchilik shaffofligini oshirish, raqamli bitimlar, hujjatlar, ovoz berish natijalarini o‘tkazish, shuningdek kraudsorsing loyihalarini ishlab chiqish va bajarilgan ishlarni nazorat qilish uchun texnologiyadan foydalanish.

**BIM**- bu qurilish obyektining ko‘p o‘lchovli modelini yaratishga imkon beradigan texnologiya bo‘lib, u bu haqda barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, ushbu model nafaqat qurilish uchun, balki obyektning ishlashi uchun ham qo‘llaniladi. Shuning uchun, BIM faqat grafik 3D proyeksiyasi deb o‘ylash mutlaqo noto‘g‘ri. Texnologiyalarning imkoniyatlari juda keng. Axborot modellashtirish binoni qurish va boshqarishda mutlaqo yangi yondashuvni nazarda tutadi, unda mutlaqo hamma narsa ko‘rib chiqiladi. Bularning barchasi dizayndagi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlardan qochish, qurilish xarajatlarini kamaytirish va eng muhim vaqtini tejash imkonini beradi. BIMning joriy etilishi hayot sikli bosqichlarida - investisiyalardan tortib to ishga tushirishgacha va hatto buzib tashlashgacha bo‘lgan davrda to‘g‘ri qarorlarni qabul qilishga imkon berdi.

Biroq, ushbu texnologiya moliyaviy xarajatlarni ham talab qiladi. Xususan, o‘qitish uchun maxsus dasturiy ta’milot va uskunalarini sotib olish kerak. Ammo kelajakda ushbu xarajatlar bino qurilishini loyihalashtirish va tashkil etish xarajatlarini kamaytirish hisobiga qoplanadi [6].

**Bigdata** (katta ma’lumotlar) - juda katta hajmdagi bir jinsli bo‘lmagan va tez tushadigan raqamli ma’lumotlar bo‘lib, ularni odatiy usullar bilan qayta ishlab bo‘lmaydi. Ba’zi hollarda, katta ma’lumotlar tushunchasi bilan birga shu ma’lumotlarni qayta ishlash ham tushuniladi. Asosan, analiz obyekti katta ma’lumotlar deb ataladi. Bigdata atamasi 2008 yilda dunyoga kelgan. Nature jurnali muharirri Klifford Linch dunyo ma’lumotlar hajmining juda tez sur’atda o‘sishiga bag‘ishlangan maxsus sonida Bigdata atamasini qo‘llagan. Biroq, katta ma’lumotlar avval ham bo‘lgan. Mutaxassislarining fikricha, kuniga 100 gb dan ko‘p ma’lumot tushadigan oqimlarga big data deb aytilar ekan.

Katta ma’lumotlarni analiz qilish, inson his etish imkoniyatidan tashqarida bo‘lgan qonuniyatlarni aniqlashda yordam beradi. Bu esa kundalik hayotimizdagi barcha sohalar, hukumatni boshqarish, tibbiyot, telekommunikasiya, moliya, transport, ishlab chiqarish va boshqa sohalarni yanada yaxshilash, ularning

imkoniyatlarini oshirish, muammolarga muqobil yechimlar izlab topish imkonini yaratadi [7].

**IoT**- bu jismoniy qurilmalar, transport vositalari, maishiy texnika va boshqa narsalar, bularning barchasi internetga ulangan elektron sxemalar, dasturiy ta’milot, datchiklar va mexanik aktuatorlardan foydalanadi. Ushbu ularish obyektlarning bir-biri bilan bog‘lanishiga va ma’lumotlar almashinuviga imkon beradi, shu bilan real dunyo kompyuter tizimlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri integrasiya qilish uchun ko‘proq imkoniyatlar yaratadi va shu bilan samaradorlik va iqtisodiy foydalarni oshiradi. Odamlar uchun jismoniy ishni kamaytiradi. 2017 yilda IoT qurilmalari soni o‘tgan yilga nisbatan 31 foizga o‘sdi va 8,4 milliard qurilmaga yetdi va taxminlarga ko‘ra 30 yilga kelib bu raqam 2020 milliardga yetadi. IoT bozorining global qiymati 1.7 trillion dollarga yetishi taxmin qilinmoqda. IoT internetga ularishni odatdagagi qurilmalardan, masalan, ish stoli, noutbuklar, smartfonlar va planshetlardan tashqari qurilmalarga uzatishni va internetga ulanmasdan aqlli bo‘lmagan qurilmalarga uzatishni o‘z ichiga oladi. Ushbu texnologiyadan foydalanadigan qurilmalar internet orqali bir-biri bilan aloqa qilishlari va o‘zaro aloqada bo‘lishlari mumkin; ular shuningdek masofadan turib kuzatilishi va boshqarilishi mumkin[8].

**Blockchain** - bu tizim ishtirokchilari vositachisiz bir-biriga aktivlarini ishonchli tarzda uzatish imkonini beruvchi texnologiy. Masalan, blockchainda pul ko‘chirmalari haqidagi yozuvlarni saqlash mumkin. Kriptovalyutalarda aynan blockchainidan kim, kimga va qancha virtual pul o’tkazganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayd qilish uchun foydalilanadi. Biroq blockchainda boshqa aktivlarni ham saqlasa bo‘ladi. Umuman olganda, nimani qog‘ozda yozishning imkonini bo‘lsa, o’sha narsalarning barchasini blockchainda ham yozish mumkin bo‘ladi, faqat birgina farq bilan blockchainda yozuvlarni almashtirish va soxtalashtirishning imkonini yo‘q.

Raqamlari iqtisodiyot axborot texnologiyalar, biznes modellari va platformalar yaratish hamda ularni kundalik hayotga tadbiq etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha

tizimga solishdir. Raqamli iqtisodiyot iqtisodiy- ijtimoiy va madaniy aloqalarning raqamli texnologiyalarini qo'llash asosida amalga oshirish mumkin bo'lgan tizimdir [9]. Raqamli iqtisodiyot insonlarsiz boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish orqali korrupsiyani kamaytiradi, soliq tushumlarini "aqlii" shartnomalar tuzish orqali ko'paytiradi, budget xarajatlarining ochiqligini oshiradi, yagona elektron platforma orqali davlat xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatini beradi.

### **5. XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda, paqamli iqtisodiyot imkoniyatlari orqali to'lovlar uchun ortiqcha xarajatlar qisqaradi mahsulot va xizmatlar haqida aniq va ko'proq hamda tezroq

ma'lumot olish mumkin va undan tashqari raqamli iqtisodiyotda jahondagi mahsulot va xizmatlarning dunyo bozoriga chiqish imkoniyatlari katta bo'lib iste'molchi fikrini tez o'rganish hisobiga mahsulot hamda xizmatlar jadal rivojlanadi.

Tahlillarga ko'ra, kelgusida mintaqada hunarmandchilikni rivojlantirishda quyidagi holatlarga e'tibor qaratish lozim:

- mikrokreditlardan foydalanilayotgan mijozlar sonida boshlang'ich sarmoyalardan foydalanadigan mijozlarni oshirish. Bunda yuridik shaxs maqomida mujassamlashmagan xususiy tadbirkorlik subyektlariga alohida e'tibor qaratish.

### **Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi PQ-77-son "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori. // <https://lex.uz/docs/5807559>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev raisligida 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi nutqi. <https://uza.uz/oz/politics/> Uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020
3. Шумпетер Й.А. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия. - М.: «Эксмо», 2007, 862 стр.
4. Howkins J. The Creative Economy: How People Make Money from Ideas. London: Penguin, 2001, 263 p.
5. Tapscott D. The digital economy: promise and peril in the age of networked intelligence. NewYork; Montreal: McGraw-Hill, 1996, 342 p
6. Norqobilova. F. A. International scientific and practical conference // Iqtisodiy erkinlik indekisi hunarmandchilik sohasini rivojlantirishdagi roli (zenodo.org), 2023. – p 255-257
7. Mukhitdinov Khudoyar Suyunovich1, Norqobilova Feruza Abdihamidovna2. // Prospects Of Digitalization Of Craftsmanship Development In The Region / Journal of Pharmaceutical Negative Results: Volume 13: Special Issue 9: 2022.
8. F.A.Norqobilova. // Xizmat ko'rsatish tarmoqlarini modellashtirishda tizimli tahlil qilish, sintezlash va optimallashtirish / Vol. 1 No. 2 (2021): International journal of conference series on education and social sciences. (Online) p. 224-228.
9. F.A.Norqobilova. Use of digital technologies in the field of crafts (on the example of Kashkadarya region) Biznes-Ekspert №11, 2021. 188-191 bet.

### III. MINTAQА VA TARMOQLAR IQTISODIYOTI

UDK: 343.24

#### ORGANIK QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI "TA'MINOT ZANJIRI" DA AGROLOGISTIKANING ROLI VA AHAMIYATI

Amirkulov Shuhrat Olimovich - QarMII "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasи dotsenti, i.f.f.d., (PhD)

#### РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ АГРОЛОГИСТИКИ В "ЦЕПОЧКЕ ПОСТАВОК" ОРГАНИЧЕСКОЙ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ

Амиркулов Шухрат Олимович - КарМИИ "Инновационная экономика"  
доцент кафедры, и.ф.ф.д.,(PhD)

#### ROLE AND IMPORTANCE OF AGROLOGISTICS IN THE "SUPPLY CHAIN" OF ORGANIC AGRICULTURAL PRODUCTS

Amirkulov Shukhrat Olimovich - Associate Professor of the Department "Innovative Economics" of the KEEI PhD

**Annotasiya.** Maqolada organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari taqsimot zanjirida agrologistika tizimining mohiyati va ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** agrologistika, taminot zanjiri, organik qishloq xo'jaligi, mahsulot yo'qotilishi, ekologik sof mahsulot.

**Аннотация.** В статье освещены роль и значение системы агрологистики в цепочке поставок органической сельскохозяйственной продукции.

**Ключевые слова.** Агрологистика, цепочка поставок, органическое сельское хозяйство, потери продукции, экологически-чистый продукт.

**Annotation.** The article highlights the role and importance of the agrologistics system in the sales chain of organic agricultural products.

**Keywords:** agrologistics, supply chain, organic agriculture, product losses, environmentally friendly product.

#### 1. KIRISH

O'zbekiston agrosanoat majmuasining asosiy vazifalaridan biri, aholining yetarli va xavfsiz miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan taminlash va ularning hayotiy ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishdan iboratdir.

Butun dunyoda bo'lgani singari, O'zbekistonda ham keyingi paytda organik qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab oshib bormoqda. Qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning turli mulkchilik shakllariga asoslanishi, tarmoqda resurslar samaradorligi oshirish, mahsulot ishlab chiqarish assor-

timentini va sifatini oshirish imkonini bermoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Organik mahsulotlar to'g'risida"gi Qonunida "Organik mahsulotlar — ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, transportda tashish va realizatsiya qilishning barcha bosqichlarida organik mahsulotlar to'g'risidagi qonunchilik hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga javob beradigan ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llagan holda olingan sertifikatlashtirilgan mahsulotlar" [1] ekanligi qayd etilgan.

Mamlakatda ijobji ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishish uchun kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish, rivojlanishning strategik yo‘nalishlarini aniqlash, natijalarini prognozlash va baholash zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, organik qishloq xo‘jaligini rivojlanish salohiyatini va usullarini asoslash hamda mahalliy organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish dolzarb ahamiyatga kasb etadi.

## **2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI**

Organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, taqsimlash, saqlash va iste’mol masalalari bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlardan Willer Helga, Julia Lernoud [2], S.A.Xaritonov [3], A.Nurbekov, U.Aksoy, X.Mumindjanov, A. Shukurov [4] va boshqalar shug‘ullanishgan.

## **3. TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Maqolani yozishda statistik, tizimli-tahlil, qiyosiy tahlil, monografik kuzatuv va mantiqiy fikrlashdan foydalanildi.

## **4. ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR**

Logistika – yangi yuqori samarali ilmiy-amaliy yo‘nalish hisoblanib, ko‘p tarmoqli funksional tavsifga ega. Logistika tizimida agrologistika nisbatan istiqbolli hisoblanib, agrobiznes sohasida logistika nazariyasi va amaliyotining qo‘llanilishini ko‘zda tutadi.

Agrologistika nisbatan yangi tushuncha bo‘lganligi sababli, bu tushunchaning aniq ta’rifi hali mavjud emas [5].

Agrologistikani rivojlantirish va joriy etish zaruriyati mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash yo‘llaridan biri oziq-ovqat ishlab chiqarishni ko‘paytirish ekanligi bilan izohlanadi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining oshishi muqarrar ravishda ta’minot zanjirining barcha qismlarida tovar yo‘qotishlarining ko‘payishi bilan bog‘liq, shuning uchun bu zanjirlarda boshqaruvsiz, ya’ni agrotexnikasiz tovar yo‘qotishlarini minimallashtirish mumkin emas.

Agrologistikani markazida “tirik” ekologik mahsulot, “nafas olishda”, karbonat angidridni yutib, kislородни chiqarishda davom etadigan biologik organizm turadi. Bu

organizmning ichki jarayonlari juda ko‘p turli xil omillarga bog‘liq holda o‘zgaradi.

Albatta, agrotexnika har bir toifadagi organik mahsulotlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi: masalan; qayta ishlangan mahsulotlar (go‘sht, sut va dengiz mahsulotlari), meva va sabzavotlar (mevalar, sabzavotlar, rezavorlar, qo‘ziqorinlar) yoki don mahsulotlari (bu ham “tirik”) mahsulotlari [6].

Agrologistika har bir toifa mahsulotning butun hayoti davomida tabiatni va xususiyatlarini chuqur bilihni talab qiladi. Agrlogistika - bu marketing, tovarshunoslik va logistika chorrahasida yangi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish zanjirlarini boshqarishning zamонавиy majmuaviy yondashuvdir.

Agrologistikaning samaradorligi shundan iboratki, yangi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining (yangi) biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda agrologistik texnologiyalarni joriy etish tovar yo‘qotishlarini va logistika xarajatlarini minimallashtirish, tashkilotlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi va oziq-ovqat resurslarini tejash masalalarida biznesning ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi.

Organik qishloq xo‘jaligi bozorining o’sishi bilan agrologistika sohasidagi ta’minot zanjirlari tizimi o’sib boradi va murakkablashadi. Buning uchun organik mahsulotlarni taqsimlashda qishloq xo‘jaligi tovar mahsulotlarining xususiyatlarini hisobga olish va uning tavsiflarini aniqlash zarur bo‘ladi [7].

Bugungi kunda faol rivojlanayotgan organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozori qanday yo‘qotishlarga duchor bo‘layotganini ko‘rish mumkin, chunki samarasiz logistika zanjirlari tufayli ko‘plab mahsulotlar yo‘qoladi.

Xalqaro ekspertlarning baholashi shuni ko‘rsatadiki, logistika ta’minot zanjirining nomukammalligi va samarasiz ishlashi natijasida qishloq xo‘jaligida hosilning 30% dan 50% gacha yo‘qotilmoqda.

O‘zbekiston organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning an’anaviy usulidan organik usuliga o‘tish davrida turibdi.

Mamlakat organik mahsulotlarning logistika ta'minoti zanjirlarini tahlili, agrosanoat majmuasiga xos bo'lgan bir qator muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda:

- hosilni yig'ishtirib olishning eskirgan usullari;
- hosilni o'rib-yig'ishtirib olish paytida sabzavot va mevalarning shikastlanishi;
- qishloq xo'jaligi mahsuloti xaridi infratuzilmasining eskirganligi;
- ba'zi bir mahsulot turlari bo'yicha o'rim-yig'imdan keyin hosilning tez sovib ketmasligi;
- mahsulotni tashish va saqlashda qadoqlashning nomukammalligi;
- mahsulotni saqlash joylarigacha transportda tashishdagi yo'qotishlar;
- mahsulotni saqlashda mahsulot assortimenti va partiyalarining (navbat va sifati bo'yicha) aralashtirib yuborilishi;
- mahsulotni saqlash texnologiyasining eskirganligi, zamonaviy saqlash joylarining yetarli emasligi;
- mahsulotlarning holati va nazorati to'g'risida ma'lumotlarning yo'qligi;
- mahsulot sifati bo'yicha yagona va ochiq standartlarning yo'qligi va boshqalar [8].

Agrologistika zanjirining har bir bo'g'inidagi xato dastlabki yo'qotishlar miqdorini ko'paytiradi. Samarali yetkazib berilgan ta'minot zanjirlari hosilni yig'ib-terib olish bosqichidanoq organik mahsulotlarning yangilagini saqlab qolish va har bir bo'g'inda minimal yo'qotishlar bilan keyingi ta'minot zanjirlarini qurish imkonini beradi, bu esa mahsulot holatini oxirigacha saqlab borish imkonini beradi.

Ekologik ishlab chiqarishda tovarni tadqiq qilish nafaqat yakuniy xaridor tomonidan sotib olingan paytdagi tovarlarning iste'mol xususiyatlarini bilish, balki hosilni yig'ib olish paytidan boshlab va butun hayot sikli davomida tashqi va ichki omillar ta'siri ostida ushbu xususiyatlarning o'zgarishi dinamikasini bilishni talab etadi.

Agrologistikada tovarshunoslik marketing tomonidan belgilangan bozorlar, hajmlar va sotish jadvali asosida ushbu rejaning aniq bajarilishi uchun javobgar bo'lgan logistikaning optimal rejasini

(ssenariysi, konfiguratsiyasi) shakllantirish uchun mas'uldir.

Agar biz organik agrologistikada marketingga murojaat qiladigan bo'lsak, shuni ta'kidlash kerakki, bu talabning nozik tushuncha sifatida yakuniy iste'molchilarining kutilayotgan mahsulot assortimenti va sifati bo'yicha, narxlar va narxlarning mavsumiy tebranishlarini bilish hamda bu tebranishlar bo'yicha ularga tezkor javob berish qobiliyatidir. Mavsum boshida mahsulot birligi bahosini aniqlash, baho eng yuqori cho'qqiga chiqqanda va pasayganda ham maksimal foyda olish uchun mahsulotni saqlash hajmlari va saqlash vaqtlarini to'g'ri hisoblash imkonini beradi [9].

Zamonaviy sharoitda ta'minot zanjirini boshqarishning asosiy jihatlaridan biri jalb qilingan vositachilaning mas'uliyat sohalarini kengaytirish va sonini ko'paytirishdir.

Bunday holat agrar sohada barqarorlikni ta'minlash, jumladan, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining yuqori samarali ishlashini ta'minlash va qishloq aholisini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan bir qator yangi vazifalarning paydo bo'lishiga olib keladi; mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash va tashishda jarayonida atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish; xodimlarning qanday sohada faoliyat yuritishidan qat'iy nazar ularning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash; uzoq muddatli foydalanishdagi resurslardan oqiloan foydalanish va boshqalar [10].

## 5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Organik qishloq xo'jaligi nafaqat qishloq xo'jaligi, balki butun agrosanoat majmuasining barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beruvchi asosiy yo'naliшlardan biridir.

Mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqot ishlarini tahlili organik oziq-ovqat mahsulotlari ta'minoti zanjirining quyidagi ishtirokchilarini ajratib ko'rsatish imkonini bermoqda:

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari;
- tovarlarni tashuvchi kompaniyalar;
- qayta ishlash korxonalari;
- umumi ovqatlanish, savdo va xizmat ko'rsatish korxonalari va kompaniyalari;

- yakuniy iste'molchilar;
- davlat va jamoat tashkilotlari;
- tadqiqot firmalari va yakka tartibda ishlaydigan olimlar.

Butun dunyo tajribasi organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishini rivojlantirish jarayoni agrosanoat majmuasining barqaror taraqqiyot ta'minotini ta'minlash imkoniga ega ekanligini ko'rsatmoqda, chunki organik qishloq xo'jaligi korxonalarini kamyoviy moddalar, antibiotiklar, pestitsidlar, kamyoviy ozuqalardan foydalanmaydi yoki ulardan foydalanishni minimallashtiradi hamda o'simliklar geniga va mollarning zotiga ta'sir o'tkazmaydi.

Organik qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar "tabiiy" mahsulotlarning afzalliklarini isbotlovchi jamoat

tashkilotlari bilan o'zaro aloqada bo'lib, o'z mahsulotlarini bozorga chiqarishda faol rol o'ynaydi.

Biroq, shuni alohida takidlash kerakki, organik ishlab chiqarish juda ko'p mehnat talab qiladi, shuning uchun "organik" ishlab chiqarish tashkil etilgan qishloq joylarida aholining bandlik darajasi yuqori hisoblanadi.

Ekologik mahsulotlar ishlab chiqarishning asosiy prinsipi kamida 95%i ekologik toza, organik xom ashylardan foydalanishdan iboratdir. Natijada, bunday mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarish jarayoniga qayta ishlash orqali chiqindilarni minimallashtirishga harakat qilishadi. Organik ekinlarni yetishtirishda hayvonlarning organik va ekologik tozalik talablariga javob beradigan organik o'g'itlaridan (go'ng, axlat va boshqalar) foydalanishadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Organik mahsulotlar to'g'risida"gi Qonuni, 2022 yil 25 aprel, O'RQ-766 son.
2. Willer Helga and Julia Lernoud (Eds.): The world of organic agriculture. Statistics and Emerging Trends 2018. Research Institute of Organic Agriculture (FiBL), Frick and IFOAM – Organics International, Bonn. Version // <https://shop.fibl.org/>
3. Харитонов С.А. "Организационно-экономические аспекты развития органического сельского хозяйства в России. Диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2013.
4. Нурбеков А., Аксой У., Муминджанов Х., Шукuroв А. Органическое сельское хозяйство в Узбекистане: Состояние, практика и перспективы. Продовольственная и сельскохозяйственная организация ООН (ФАО) – Ташкент, 2018
5. Радионов А.Р., Радионов Р.А. Логистика: нормирование сбытовых запасов и оборотных средств предприятий. - М., 2016. – 410 с
6. Джеймс Р.СтокЮ Дуглас М., Ламберт. Стратегическое управление логистикой. М.: Инфра, 2015 – 700 с
7. Эффективность логистического управления / Под ред. Л.Б. Миротина. - М.: Экзамен, 2013
8. Гулямов С.С., Дадабоев Ю.Т., Асадулина Р.Т., Абдуллаев М. Логистика. Кувайский учебно-научно-производственный центр, 2010
9. Миротин Л.Б. Некрасов А.Г., Куликова Е.Ю. и др. Интегрированная логистика накопительных и распределительных комплексов - М.: Экзамен, 2003
10. Миротин Л.Б., Боков В.В. Современный инструментарий логистического управления: Учебник для вузов. - М., Экзамен, 2005 – 496 с

**UDK: 631.115.1**

## **DEHQON VA TOMORQA XO'JALIKLARIDA MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH TENDENSIYASINING QIYOSIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI**

**Ochilova Nargiza Akramovna -**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tayanch doktoranti

## **АНАЛИЗ СРАВНИТЕЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ТЕНДЕНЦИЙ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКЦИИ В ДЕХКАНСКИХ И ПОДСОБНЫХ ХОЗЯЙСТВАХ**

**Очилова Наргиза Акрамовна – докторант**

Каршинского инженерно-экономического института

## **ANALYSIS OF COMPARATIVE INDICATORS OF PRODUCTION PRODUCTION TRENDS IN DEHKAN FARMS AND HOUSEHOLDS**

**Ochilova Nargiza Akramovna – doctoral student**

Karshi Engineering and Economic Institute

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati dehqon xo'jaliklarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining tumanlar kesimidagi ulushi, yetishtirilgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlarida dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi va hosildorlik ko'rsatkichlari o'zgarish tendensiyasi, ayrim dehqon va tomorqa xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlar tahlili keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi, dehqon xo'jaliklari, tomorqa yer maydonlari, yalpi hosil, samaradorlik, hosildorlik, xarajat, tendensiya, oziq-ovqat, mahsulot, foyda, rentabellik.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены доля сельскохозяйственной продукции, выращиваемой в хозяйствах Кашкадарьинской области по районам, доля дехкан и подворий в выращиваемых основных продуктах питания и динамика показателей продуктивности, производства продукции в отдельных фермерских и приусадебных хозяйствах, проведен анализ показателей.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, дехканское хозяйство, посевные площади, валовой сбор, эффективность, производительность, стоимость, тенденция, продукты питания, продукт, прибыль, рентабельность.

**Annotation.** This article examines the share of agricultural products grown on farms in the Kashkadarya region by district, the share of farmers and farmsteads in the main food products grown and the dynamics of productivity indicators, production in individual farms and household plots, and an analysis of the indicators.

**Keywords:** agriculture, dekhkan farming, sown areas, gross harvest, efficiency, productivity, cost, trend, food, product, profit, profitability.

### **1. KIRISH**

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning muhim yo'nalishlari sifatida turli xo'jalik yuritishning shakllaridan samarali foydalanish agrar sektor rivojida muhim o'ringa ega. Bunda dehqon va tomorqa xo'jaliklarining faoliyatini alohida ta'kidlash

lozim. Respublikamiz mintaqalarining tabiiy iqlim va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda, mavjud yer resurslarini to'g'ri taqsimlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, "2030-yilda jahon iqtisodiyoti tiklanishini

hisobga olganda ham, 670 millionga yaqin aholi (dunyo aholisining 8 foizi) ocharchilikka duchor bo‘ladi” [1].

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi tarmog‘i aholini oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xomashyoga bo‘lgan talabini qondiradi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizga yaqini agrar tarmoqda ishlab chiqariladi [2]. Ayni paytda qishloq xo‘jaligi yurtimiz aholisining salmoqli qismini ish o‘rinlari bilan ta‘minlab kelmoqda. Shu jihatdan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish - O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

## 2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ayni paytdagi yetakshi iqtisodchi olimlar tomonidan I.Minakov, O.Nazarenko, V.I.Nalsov, P.A.Plashinskiy, M.P.Tushkanov, S.S.G‘ulomov, B.T.Salimov, N.S.Xushmatov, F.Jo‘rayev, R.X.Ergashev, S.N.Xamrayeva, G.T.Samiyeva, Sh.Azizovlarning ilmiy tadqiqot ishlari va maqolalari tahlili hamda O‘zbekistonda ushbu soha amaliyotidan olingan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina chet mamlakatlar qishloq xo‘jaligida, shu

jumladan, yurtimizda hozirgi davrda dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yer maydonlarining faoliyatini rivojlantirish, boshqaruv strategiyalarini yaxshilash, yer va suv resurslaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan.

## 3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzu yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda kuzatish, solishtirish, suhbat, anketa so‘rovlari kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

## 4. ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda tez sur’atlarda o‘sib borayotgan aholining dehqonchilik mahsulotlariga bo‘lgan talabi qishloq xo‘jaligida dehqon xo‘jaligi va aholining tomorqa yer maydonlari faoliyatini takomillashtirish nihoyatda zarur ekanini ko‘rsatmoqda. Natijada bozor talabiga mos qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hajm va sifat jihatidan ko‘payishi, ularni birlamchi va ikkilamchi qayta ishlash, qolaversa yalpi daromadning ortishining muhim omilidir. Dehqon xo‘jaliklari va aholining tomorqa yer maydonlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va takomillashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin.

**1-jadval**

**Qashqadaryo viloyati dehqon xo‘jaliklarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining tumanlar kesimidagi ulushi [3], %  
(2010-2022-yillar, o‘rtacha)**

Nº	Tumanlar	Don	Kartoshka	Sabzavot	Poliz	Meva	Uzum
1	G‘uzor	8,4	1,4	4,5	6,6	2,5	3,5
2	Dehqonobod	12,1	0,9	1,1	1,3	5,3	1,0
3	Qamashi	8,2	3,8	8,0	8,9	5,1	2,1
4	Qarshi	4,5	8,5	11,8	20,6	11,0	19,4
5	Koson	7,9	1,0	9,3	10,3	3,9	1,2
6	Kitob	3,3	16,1	13,6	1,9	11,9	31,7
7	Mirishkor	5,1	5,3	5,4	7,4	4,4	4,2
8	Muborak	8,0	0,4	2,8	5,4	13,4	2,2
9	Nishon	7,5	1,7	3,6	3,5	3,0	0,8
10	Kasbi	4,3	2,7	4,1	4,1	7,7	3,8
11	Chiroqchi	20,1	12,7	11,7	19,1	4,5	11,7
12	Shahrisabz	5,3	27,4	12,5	1,4	19,3	9,5

13	Yakkabog‘	4,9	13,3	8,1	9,3	5,7	6,9
14	Qarshi sh.	x	0,2	0,6	x	0,4	0,2
15	Shahrisabz sh.	0,4	4,6	2,9	0,2	1,9	1,8
	<b>Jami:</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>

1-jadvalda asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishda tumanlar ulushi aks ettirilgan. Unga ko‘ra, don yetishtirishda Chiroqchi tumani eng yuqori natijani ko‘rsatgan bo‘lsa, kartoshka yetishtirish bo‘yicha Shahrisabz tumani birinchi o‘rinda turibdi. Kitob tumanida sabzavotchilik va uzumchilik yaxshi rivojlangani ko‘rinib turibdi. Shuningdek, meva yetishtirish bo‘yicha Qarshi va Kitob tumanlari Shahrisabzdan keyingi o‘rinda turibdi. Ammo, don yetishtirishda Kitob, kartoshkachilikda Dehqonobod va Muborak, meva yetishtirishda esa, Koson va Nishon tumanlari past ko‘rsatkichlarga ega ekanligi ushbu tumanlarda mahsulot yetishtirish bilan bog‘liq muammolar mayjudligini ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligi sohasidagi muammlarni bartaraf etish maqsadida, so‘nggi yillarda fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali tizimi

yaratilib, yer egalarining ekin maydonlaridan samarali foydalanishdagi shaxsiy manfaatdorligi va mas’uliyati oshirildi. Shu o‘rinda viloyatda yetishtirilgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlarida dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ulushi va hosildorlik ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarish dinamikasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq (2-jadval).

2-jadvalda 2010 – 2022-yillar davomida ayrim dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ulushi, hosildorlik ko‘rsatkichlari aks ettirilgan. Demak, 2022-yilda 2010-yilga nisbatan 1,7 foizga, kartoshka 4,6 foizga, poliz 1,9 foizga va uzum 3,5 foizga ko‘paygan. Meva yetishtirishda esa, 2,4 foizga kamayish kuzatilgan. Hosildorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilsak, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlarning hosildorlik darajasi o‘rtachadan yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda.

## 2-jadval

### Qashqadaryo viloyatida yetishtirilgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlarida dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ulushi va hosildorlik ko‘rsatkichlari o‘zgarish tendensiyasi [3]

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	YILLAR					2022 y.da 2010 y.ga nisb. o‘zgarishi, %
		2010	2015	2020	2021	2022	
<b>Sabzavot:</b> dehqon va tomorqa xo‘jaliklardagi ulushi; o‘rtacha hosildorlik sh.j. dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	foiz s/ga s/ga	69,7 225,7 256,8	71,1 261,7 302,4	72,7 209,8 270,1	71,1 229,4 267,4	71,4 241,1 258,2	1,7 foizga ko‘paygan 106,8 100,5
<b>Kartoshka:</b> dehqon va tomorqa xo‘jaliklardagi ulushi; o‘rtacha hosildorlik sh.j. dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	foiz s/ga s/ga	78,9 224,3 231,7	77,6 216,0 227,1	83,2 229,1 242,8	83,1 231,4 237,4	83,5 236,3 235,7	4,6 foizga ko‘paygan 105,3 101,7
<b>Poliz:</b>							

dehqon va tomorqa xo‘jaliklardagi ulushi; o‘rtacha hosildorlik sh.j. dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	foiz s/ga s/ga	51,6 218,5 231,6	48,0 202,5 251,0	54,9 229,4 268,8	54,1 233,5 251,6	53,5 237,3 257,4	1,9 foizga ko‘paygan 108,6 111,1
<b>Meva:</b> dehqon va tomorqa xo‘jaliklardagi ulushi; o‘rtacha hosildorlik sh.j. dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	foiz s/ga s/ga	40,9 96,6 150,7	43,9 94,3 153,8	37,8 94,3 153,6	38,2 97,5 146,3	38,5 100,8 139,7	2,4 foizga kamaygan 104,3 92,7
<b>Uzum:</b> dehqon va tomorqa xo‘jaliklardagi ulushi; o‘rtacha hosildorlik sh.j. dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	foiz s/ga s/ga	48,4 116,4 173,4	47,8 117,1 178,5	49,2 119,7 178,5	50,4 120,6 180,4	51,9 121,0 183,9	3,5 foizga ko‘paygan 103,9 106,1

Aholi orasida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash maqsadida, mahsulotlarning nafaqat hajm jihatdan oshirilishi, balki sifat jihatdan ham yuksaltirilishi maqsadga muvofiqdir. Qishloq xo‘jaligi aholisi orasida tomorqa xo‘jaligini yanada rivojlantirishning imkoniyatlari, har bir oila o‘z tomorqa xo‘jalidan foydalanishi qanchalik darajada unumdon ekanligi, tomorqada ekin ekishning boshqa faoliyat turlariga ta’sirini o‘rganish ijobjiy natija berishini alohida ta’kidlash lozim.

Har qanday hududda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun avvalo, yer bilan bog‘liq muammolar bartaraf etilishi lozim. Tomorqa

yer maydonlaridan samarali va oqilona foydalanishda bunday muammolarning asosli yechimlari katta ahamiyatga ega. Iqtisodiyotni qayta tashkil etish, mulkchilik shakllarini o‘zgartirish va qishloq xo‘jaligi rivojlanishini tartibga solishning bozor mexanizmlariga o‘tish borasida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar fermer va dehqon xo‘jaliklarini keng rivojlantirish zarurligini hozirgi davrning o‘zi aniq belgilab berdi. Shu o‘rinda viloyatning ayrim tumanlaridagi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning ko‘rsatkichlarini o‘rganib chiqdik (3-jadval).

### 3-jadval

#### Qashqadaryo viloyati ayrim dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlar tahlili (2022 yil) [12]

Nº	Dehqon xo‘jaligi va aholi tomorqa yer maydoni nomi	Joylashgan hududi	Ekin maydoni, ga	Mahsulot turi	Sarflangan xarajat, ming so‘ m	Olingan daromad, ming so‘ m	Foyda, ming so‘ m
1	M.Tojiddinov d/x	Koson t.	1	poliz	8000	21000	13000
2	A.Xamrayev d/x	Koson t.	1	sabzavot	8500	19000	10500
3	B.Sobirov t/x	Shahrisabz	0,12	meva	2800	9300	6500
4	T.Alimov t/x	Chiroqchi t.	0,3	sabzavot	6700	15000	8300
5	B.Tojiddinova t/x	Koson t.	0,2	sabzavot ko‘chati	2800	6500	3700
6	D.Shodiyev t/x	Koson t.	0,2	xonaki gullar	6065	15950	9885
7	M.Ikromov t/x	Qarshi t.	0,5	poliz	4700	7900	3200

8	A.Meyliyev t/x	Chiroqchi t.	0,4	sitrus va sabzavot	5300	18500	13200
9	SH.Murodov	Mirishkor	0,25	uzum	3451	6547	3096

Tadqiqot davomida, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida tashkil etilgan 0,12 ga “A.Meyliyev” nomli tomorqa xo‘jaligining 0,02 ga yer maydonida limon ko‘chatlari tashkil etilgan bo‘lib, 3,9 mln.so‘m xarajat qilingan. Daromad esa 7 mln.so‘mdan iborat bo‘lgani holda, 3,1 mln.so‘m sof foydaga erishilgan. 0,02 ga issiqxonada pomidor ekib, bir yilda ikki marta hosil olib, 11,5 mln. so‘m daromadga ega bo‘lingan. Tomorqaning 0,08 ga qismida doimiy ravishda kartoshka, sabzi, sholg‘om kabi ozuqa ekinlari yetishtirib yuqori hosildorlikka erishmoqda. Tomorqa yer egasining ta’kidlashicha, asosiy daromad manbai tomorqa asosida shakllanadi.

Shuningdek, olib borilgan monografik tadqiqotlarga ko‘ra, “T.Alimov” nomli tomorqada 3 sotix yer maydoniga ega bo‘lgan issiqxonada bir yilda 3 marta pomidor hosil va jami 15 million so‘m daromad olinganligi aniqlandi.

Ushbu tumanda o‘z tomorqasi orqali oиласига кatta daromad keltirayotgan Koson

tumanidagi tomorqa yer egasi B.Tojiddinova esa, 2 sotixli tomorqadan issiqxona shaklida foydalaniб, urug‘dan pomidor ko‘chatini yetishtirib, oila ehtiyojlarini faqat tomorqadan olinadigan daromad evaziga ta’minlab kelmoqda. Bir mavsumdagi xarajat 2,800 ming so‘mni tashkil etib, 6,500 ming so‘m daromadga ega bo‘lgan, sof foyda 3,700 so‘mdan iborat. Qishloq aholisining tomorqa yer maydonlarida dehqonchilik faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali aholini ish bilan ta’minalash, oilalarning real daromadlarini oshirish, ularning ijtimoiy ahvolini yaxshilashga erishiladi. Qashqadaryo viloyati statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil 1-yanvar holatida 611459 nafar tomorqa xo‘jaliklari faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ularga biriktirilgan yerlarning umumiy maydoni esa 65 945 gektarni tashkil etadi [3]. Tabiiyki, ko‘p qavatli uylarda istiqomat qiluvchilar hisobga olinmaydi, qishloq va mahallalarda yashovchi aksariyat xonardonlar tomorqa yerlariga ega.

#### 4-jadval

#### Nishon tumani “N.Qodirov” tomorqa xo‘jaligida an’anaviy va innovatsion usulda poliz mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari [13], mln.so‘m (2022-yil)

Nº	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	An’anaviy usulda	Innovatsion usulda (vertikal ishlab chiqarish)	Farqi, +/- (ko‘p)
1	Ekin maydoni,	Sotix	8	7	-1
2	Jami xarajatlar, sh.j.	mln.so‘m	28,12	17,05	-11,07
-	1 sotixga sarflangan xarajatlar	mln.so‘m/ sotix	3,52	2,4	-1,12
2.1	Ekish jarayonida	mln.so‘m	9,21	5,1	-4,11
2.2	Sug‘orish jarayonida	mln.so‘m	11,4	7,85	-3,55
2.3	Yig‘ib olish jarayonidagi yo‘qotishlar hisobidan	mln.so‘m	7, 51	x	x
2.4	Innovatsion texnologiyani joriy etish bilan bog‘liq xarajatlar	mln.so‘m	x	4,1	x
3	Olingan daromad	mln.so‘m	39,75	52,14	12,39
4	Sof foyda	mln.so‘m	11,63	35,09	23,46

5	Rentabellik	%	41,4	205,8	x
6	Kiritilgan innovatsion texnologiya hisobidan olingan qo'shimcha sof foyda	mln.so'm	x	23,46	23,46
7	Innovatsion texnologiyaning iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti		x	5,7	x
8	Innovatsion texnologiyani qoplash muddati	Oy	x	2 oy	x

Innovatsiyalar qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishda asos bo'ladi, mahsulotning raqobatbardoshligini va xo'jalikning eksport salohiyatini oshiradi. Demak, to'g'ri tanlangan innovatsiya yo'nalishi dehqon va tomorqa xo'jaliklarining nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarini yuksaltiradi, balki uning agrar sektordagi ulushini oshiradi. Qolaversa, buning natijasida xo'jaliklarning qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha tajribasi va ishchi xodimlarning malakasi oshadi, shaxsiy mablag'i ko'payadi, ularning ilmiy tadqiqot institutlari, tomorqa xizmati va boshqa ilmiy markazlar hamda xalqaro agrar tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari mustahkamlanadi.

Nishon tumani "N.Qodirov" tomorqa xo'jaligida olib borilgan monografik tadqiqotlarga ko'ra, poliz ekinlarini an'anaviy va vertikal ishlab chiqarishni joriy etishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil etilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, poliz ekinlarini innovatsion usul orqali yetishtirishda iqtisodiy samarasini yuqori bo'lishi aniqlandi, ya'ni bunda an'anaviy usulga nisbatan

rentabellik darajasi 5 martaga ko'proq ekanligi hisoblab chiqildi.

## 5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda dehqon xo'jaliklarining ulushini yanada oshirish uchun quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim, deb hisoblaymiz:

- dehqon xo'jaligiga tegishli yerlarni me'yoriy talablardan kelib chiqqan holda iqtisodiy baholash;
- mahsulot yetishtirish jarayonida hududiy tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish jarayonini diversifikatsiya qilish;
- tomorqa xizmatidan unumli foydalanish va agro infratuzilmani yanada rivojlantirish;
- xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasidan samarali foydalanish (vertikal ishlab chiqarish, innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo'llash);
- xarajatni kamaytirib, daromadni oshiruvchi iqtisodiy omillarni o'rghanish va tegishli vazifalarni amalga oshirish va boshqalar.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Доклад ООН: В 2021 году число голодающих в мире достигло 828 млн. <https://www.fao.org/newsroom/detail/un-report-global-hunger-SOFI-2022-FAO/ru>.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari
- Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblangan
- Ergashev, R. K., Khamraeva, S. N., & Fayzieva, S. S. (2020). Innovative development of agricultural infrastructure: problems and ways of its achievement.
- Khamraeva, S. N., & Samieva, G. T. (2022). ECONOMIC ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF THE HOUSEHOLD SERVICE NETWORK IN UZBEKISTAN AND THE CREATION OF A COMPETITIVE ENVIRONMENT IN LOCAL HOUSEHOLD SERVICE ENTERPRISES. *ECONOMIC ANALYSIS*, 30(3).

6. Ochilova, N. A. (2023). FARMING MANAGEMENT AND THEIR ECONOMIC EFFICIENCY. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(28), 177-184.
7. Ochilova, N. A. ECONOMIC PERFORMANCE OF DEHKAN FARMS IN KASHKADARYA REGION. *GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY*, 117.
8. Ochilova, N. (2023, October). USE OF THE ADVANCED EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN THE DEVELOPMENT OF FARMING AND HOUSEHOLDS. In *International Conference on Multidisciplinary Research* (Vol. 1, No. 6, pp. 73-76).
9. Ochilova, N. A. Improving the Use of Agricultural Land in Kashkadarya Region. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 4(3), 49-54.
10. Ochilova, N. A. (2023). Use of the Advanced Experience of Foreign Countries in the Development of Peasant and Homestead Farms. *International Journal of Formal Education*, 2(11), 267-274.
11. Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijasi
12. Nishon tumani "N.Qodirov" tomorqa xo'jaligi ma'lumotlari

**UDK: 63. 636.638**

## **ASALARICHILIKDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TRANSFORMATSIYA QILISHNI RAG'BATLANTIRISH YO'LLARI**

**Жонибек Фарманов** - Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро маркази мустақил изланувчиси

### **ПУТИ СОДЕЙСТВИЯ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В ПЧЕЛОВОДСТВЕ**

**Жонибек Фарманов** - независимый исследователь Международного центра стратегического развития и исследований в области продовольствия и сельского хозяйства

### **WAYS TO PROMOTE DIGITAL TRANSFORMATION IN BEEKEEPING**

**Djonibek Farmanov** - independent researcher at the International Center for Strategic Development and Research in the Field of Food and Agriculture

**Annotatsiya.** Maqolada asalarichilik tarmog‘ida raqamli texnologiyalarni transformatsiya qilishni rag‘batlantirishning tashkiliy va iqtisodiy dastaklari ifodalangan. Tarmoqda raqamli texnologiyalarni joriy etishni subsidiyalash bo‘yicha takliflar bayon etilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etishni moliyalashtiradigan tuzilmalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Asalarichilikda texnologik transfer” jamg‘armasini tashkil etish va uni moliyalashtirish manbalari oolib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** asalarichilik, raqamlashtirish, rag‘batlantirish, raqamli texnologiya, subsidiya, “Asalarichilikda texnologik transfer”, 3D qurilmalari, sun’iy yo‘ldosh novigatsiyasi, Big Data.

**Аннотация.** В статье описаны организационные и экономические рычаги содействия трансформации цифровых технологий в отрасли пчеловодства. Описаны предложения по субсидированию внедрения цифровых технологий в сети. Также в целях поддержки структур, финансирующих внедрение цифровых технологий, раскрыта организация фонда «Технологический трансфер в пчеловодстве» и источники его финансирования.

**Ключевые слова:** пчеловодство, цифровизация, стимулы, цифровые технологии, субсидия, «Технологический трансфер в пчеловодстве», 3D-устройства, спутниковая навигация, Big Data

**Annotation.** The article describes the organizational and economic levers for promoting the transformation of digital technologies in the beekeeping industry. Proposals for subsidizing the implementation of digital technologies in the network are described. Also, in order to support structures that finance the implementation of digital technologies, the organization of the “Technological Transfer in Beekeeping” fund and the sources of its financing are disclosed.

**Key words:** beekeeping, digitalization, incentives, digital technologies, subsidies, “Technological transfer in beekeeping”, 3D devices, satellite navigation, Big Data.

#### **1. KIRISH**

Rivojlangan davlatlar tajribasi ko‘rsatishicha qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish bilan bog‘liq tadbirlar doim davlat nazoratida va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yordamida amalga oshiriladi. Xususan AQSH, Germaniya, Yaponiya kabi texnologik rivojlangan hamda xususiy sektor ulushi va xizmat ko‘rsatish sifati yuqori bo‘lgan davlatlarda ham aynan qishloq xo‘jaligi uchun

raqamlashtirish masalasi davlatning zimmasiga yuklatilgan.

Shuning uchun ham mamlakatimiz aholisini tabiiy va organik mahsulotlarga bo‘lgan talabini ta’minlash, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish maqsadida asalarichilikni rivojlantirish va uni zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan qurollantirish maqsadida tarmoqda tashkiliy va iqtisodiy

rag‘batlantirish dastaklariga zaruriyat ortib bormoqda.

## 2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Asalarichilik haqidagi dastlabki ma’lumotlar eramizdan avvalgi Misr tibbiyotiga oid asarlarda, zardushtiyarning muqaddas «Avesto»sida, hindlarning «Hayot» kitobida, tibbiyotga oid «Jud-ji» kitobida uchraydi. Ispaniyadagi Aran g‘oridan topilgan arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, miloddan avvalgi 10 – 5-ming yilliklarda ham mavjud bo‘lgan degan taxminlar bor. Dastlab odamlar asalni o‘rmon va tog‘larda daraxtlarning kovaklari, toshlar yoriqlari, g‘orlarga uya qo‘ygan asalarilardan olganlar. 1814-yilda P.I.Prokopovich romli asalari qutisini, 1865-yilda chek asalarichisi F.Grushka asalajratgichni kashf etishi bilan ko‘pgina mamlakatlarda bu tarmoq serdaromad tarmoqqa aylandi.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 1970-yillar boshida jahonda 40 mln.ga yaqin asalari uya (oilalari) mavjud bo‘lgan. Rossiya, Ukraina, AQSH, Meksika, Turkiya, Fransiyada asalarichilik rivojlangan va buni ko‘p olimlar tadqiq etishgan. 1887-yilda tuzilgan “Apimondiya” Xalqaro asalarichilik tashkiloti asalarichilar o‘rtasida xalqaro aloqalarni rivojlantirishga katta hissa qo‘sib kelmoqda. Bu tashkilot asalarichilikka bag‘ishlangan simpoziumlar, kongresslar, ko‘rgazmalar o‘tkazadi, 1966-yildan maxsus xalqaro “Apiacta” jurnali nashr etadi.

Asalarilardan qishloq xo‘jaligi ekinlarini (g‘o‘za, mahsar, kanop, urug‘lik beda va boshqalar) changlatishda foydalaniladi. Asalarilar bilan changlatish g‘o‘za hosildorligini o‘rtacha 5,1 – 5,9 s/ga oshirishi aniqlangan. Asalarichilikda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda soha mahsulorligini oshirishda oziqlar sifatiga e’tibor qaratish va bunda zamonaviy usullarni

qo‘llash lozim, deya ko‘pgima olimlar tavsiyalar berishgan.

## 3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzu yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda kuzatish, solishtirish, suhbat, anketa so‘rovlari kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

## 4. ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlarimiz asosida asalarichilikda raqamli texnologiyalarni transformatsiya qilishni rag‘batlantirish yo‘llari sifatida tashkiliy va iqtisodiy dastaklardan keng foydalanish lozim deb hisoblaymiz. Xususan tashkiliy yo‘nalishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- “Aqli asalari uyalari”ni tashkil qilish, mamlakatimiz iqlim sharoitlariga moslashtirishga oid tadqiqotlar va tajribalarni olib borish;

- raqamli qurilmalar, masofadan boshqarish vositalardan foydalanishga oid huquqiy asoslarni takomillashtirish, barcha uchun sodda tizim yaratish;

- raqamli qurilmalardan foydalanishni ommalashtirish, targ‘ib qilish, tushuntirish ishlarini olib borish maqsadida seminarlarni takshil etish;

- aqli qurilmalar bilan jihozlangan asalarichilik xo‘jaliklarini o‘rmon fondi yerlaridan maqsadli va tartibli foydalanish yo‘llarini tashkil etish va boshqalar.

Shuningdek, asalarichilikda raqamli texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirishning iqtisodiy yo‘nalishlari sifatida quyidagi vazifalarni bajarish lozim deb hisoblaymiz. Jumladan:

- raqamli texnologiyalarni to‘liq joriy etgan xo‘jaliklar uchun imtiyozli kreditlash tizimini joriy etish, sug‘ortalash tizimini takomillashtirish;

- xo‘jalik bilan hamkorlikda kooperatsion aloqalar orqali aqli qurilmalarni ishlab

chiqaruvchi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash;

- jami asalari oilalari sonining ma'lum ulushiga raqamli texnologiyalarni joriy etgan xo'jaliklarni tabaqali subsidiyalash tizimini joriy etish;

- asalarichilikda raqamli texnologiyalarni joriy etishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga ko'maklashuvchi fondlarni tashkil etish va rivojlantirish va boshqalar.

Ushbu tashkiliy va iqtisodiy dastaklarning har birining amaliyotdagi o'rni beqiyos bo'lib, u monografik tadqiqotlarda ham o'zining tasdig'ini topgan. Ayniqsa sug'urtalash, imtiyozli kreditlash, subsidiyalash masalalari hamda sohani moliyalash-tiradigan alohida jamg'armalarning shakllanishi o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatishi ta'kidlangan.

Shu bois tadqiqotlarimizda subsidiyalash hamda maxsus jamg'armalarni tashkil etish

hamda ularni moliyalashtirish yo'nalishlariga alohida urg'u qaratgan holda ilmiy taliflar asoslangan. Jumladan hududlarda o'tkazilgan so'rovnomalar tahlillari ko'rsatishicha, bir asalari xo'jalikda o'rtacha 1 ta pavilion (32 yashik, 64 ta oila) parvarishlanishini e'tiborga olinsa, unda kamida 4 ta yashik (12,5 foizi) doimiy nazoratdagi, raqamli texnologiya bilan jixozlangan bo'lishi talab etiladi. Shundagina asalarilarning kunlik holatini minimal darajada real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Shundan kelib chiqqan holda asalarichilik xo'jaliklari uchun raqamlashtirishga subsidiya ajratishda minimal mezon belgilanishi taklif etilmoqda. Ushbu mezonni minimal darajada bajargan hamda uni paviliondagi yashiklar soniga mos ravishda oshirib borishdan manfaatdor bo'lgan xo'jaliklarni tabaqali subsidiyalash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq (1-jadval).

### 1-jadval

#### Raqamli texnologiyalarni joriy etgan asalarichilik xo'jaliklarini subsidiyalash tizimi va uning tabaqalari

Subsidiyalash miqdori	Minimal me'zon	Tabaqalashgan holda qo'llanilishi		
		Minimal talabni bajargan	30 foiziga joriy etgan	50 foiziga joriy etgan
BHM ning 5 barobari miqdorida	Jami yashiklar sonining 12,5 foizida raqamli texnologiya joriy etish	1,0	5,0	10,0
<b>Shuningdek mintaqaviy, o'simlik turidan kelib chiqqan holda koeffisiyentlar ham joriy etish mumkin</b>				
Tog' va tog' oldi asalarichiligi uchun	1,0	5,0	10,0	
Paxtachilik asalarichiligi uchun	1,0	8,0	12,0	
Cho'l va yarim cho'l asalarichiligi uchun	1,5	6,5	11,0	

Raqamli texnologiyalarni joriy etgan asalarichilik xo'jaliklarini subsidiyalashda 2023 yil holatiga amaliyotdagi bahodan kelib chiqqan holda BHM ning 5 barobari miqdorida subsidiya ajratish taklif etilmoqda.


Ushbu miqdor xo'jalikda mavjud jami yashiklar sonining 30 foizida joriy etgan xo'jaliklar uchun 5 koeffisiyentga ko'paytirilishi hamda 50 foizida joriy etilgan bo'lsa 10 koeffisiyentda qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Shu bilan birgalikda ushbu miqdor tog‘ va tog‘ oldi asalarichiligi uchun qo‘llanilib, kimyoviy preparatlar ta’siri yuqoriligini inobatga olgan holda paxtachilik hududlarida asal yetishtiradigan xo‘jaliklar uchun mos ravishda 30 foizga 8 hamda 50 foizda 12 koeffisiyentlar taklif etiladi.

Bozor munosabatlari sharoitida xususiy sektoring o‘rni oshib borishi tabiiy jarayon bo‘lib, davlat tomonidan subsidiyalash bu dastlabki bosqichlarida, xo‘jaliklarning oyoq-

qa turib olishi va yangi texnologiyalarning keng targ‘ib qilinishi uchun xizmat qilib, istiqbolda u bozor mexanizmlari yordamida ishlab ketishi lozim bo‘лади.

Buning uchun esa ushbu texnologiya-larni joriy etishni moliyalashtiradigan tuzilmalar, qo‘llab-quvvatlaydigan idoralar tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Shuning uchun tadqiqotlarimizda “Asalarichilikda texnologik transfer” jamg‘armasini tashkil etish lozim deb hisoblaymiz (1-rasm).



1-rasm. “Asalarichilikda texnologik transfer” jamg‘armasining tashkiliy-iqtisodiy munosabatlari

Ushbu jamg‘armaning maqsadi asalarichilik xo‘jaliklarida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishni moliyaviy

qo‘llab-quvvatlash, ularni imtiyozli kreditlar, yangi texnologiyalarning amaliyatga joriy etilishiga ko‘maklashish, xo‘jaliklarning qizi-

qish va ko'nikmalarini oshirib borish hisoblanadi.

Ushbu jamg'arma o'z faoliyati jarayonida quyidagi vazifalarni bajaradi. Xususan:

- asalarichilik xo'jaliklarining moddiytexnik bazasini mustahkamlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, o'rganish maqsadlari uchun kredit resurslarini ajratish hamda undan foydalanishni yanada kengaytirish;


- asal yetishtiruvchilarning innovasion faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, zamonaviy qurilmalar yaratish, ishlab chiqarish va joriy etishni rag'batlantirish;

- asalarichilkni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli davlat, tarmoq va hududiy dasturlarni, ilmiy-texnik loyihalarni moliyalashtirish, shu bilan birgalikda ushbu tadbirlarni joriy etishda ishtirok etish;

- raqamli texnologiyalarni joriy etishda aylanma mablag'larga muhtoj bo'lgan asal yetishtiruvchilar, qayta ishlovchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilar faoliyatiga ko'maklashish;

- asal va asalarichilik mahsulotlarini tashishga mo'ljallangan maxsus avtotransport vositalari, asbob-uskunalar, qurilmalar bilan ta'minlash maqsadlari uchun lizing faoliyatini yo'lga qo'yish, ushbu maqsadlar uchun manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishdan iborat.

Ushbu jamg'armaning moliyaviy resurslarini shakllantirishda davlatning maqsadli va donorlik pul mablag'lari bilan birgalikda alohida va umumiy imtiyozlar bilan yo'naltirilgan mablag'larning shakllanishi mumkin bo'lgan manbalar taklif etiladi (2-rasm).



**2-rasm. "Asalarichilikda texnologik transfer" jamg'armasini moliyalashtirishda alovida imtiyozlar bilan yo'naltirilgan mablag'larning shakllanishi**

Unga ko'ra, alovida rag'batlantiruvchi imtiyozli mablag'lar sifatida aholiga asalarichilik uchun ajratilayotgan va auksion savdolariga chiqarilayotgan yer maydonlari

bozor qiymatining 20 foizi miqdoridagi mablag'lar hamda import qilingan asal mahsulotlari va asalari inventarlari uchun QQS va boj to'lovlarining 50 foizi miqdoridagi

mablag‘larni yo‘naltirish taklif etilmoqda. Shuningdek, umumiy rag‘batlantiruvchi imtiyozli mablag‘lar sifatida raqamli qurilmalar bilan bog‘liq tadqiqotlarni tijoratlashtirish qiymatining 15 foizini yo‘naltirishdan shakllangan mablag‘lar hamda aqlli uyalarni joriy etish natijasida berilgan soliq imtiyozlarining 50 foizini yo‘naltirishdan shakllangan mablag‘lardan shakllanishi maqsadga muvofiq.

## 5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, "Asalarichilikda texnologik transfer" jamg‘armasini tashkil

etish orqali asalarichilikni raqamlashtirish, aqli uyalarni joriy etishga xususiy sektorni jalb qilish, sohada olib borilayotgan ilmiy innovasion loyihalarning yakuniy ishlanmalarini amaliyatga joriy etish ko‘lamini kengaytirish, uning tijoratlashish, xo‘jaliklarning moddiy texnik va moliyaviy rag‘batlarga ega bo‘lishiga zamin yaratib berish, provardida esa ijtimoiy (oziq-ovqat xavfsizligi, ilm-fan rivoji, texnologik qurollanish, ko‘nikmalarning shakllanishi) hamda iqtisodiy (yuqori foyda, raqobatbardosh bozor segmentiga ega bo‘lish, nobutgarchilikni kamaytirish) kabi bir qator samaralarning yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asalarichilik. “Agrobank” ATB – 2021. <https://agrobank.uz>
2. Askarov N. Respublikada asalarichilik tarmog‘ini rivojlantirish // Amaliy qo‘llanma. “NEW-STYLE STAR” MCHJ, @ QXI ITI, 2017 yil, 51 bet.
3. Aminov F.B. (2022). NAPRAVLENIYA RAZVITIYA PROIZVODSTVENNOY KOOPERASII V RESPUBLIKE UZBEKISTAN. Ekonomika i sosium, (10-1 (101)), 232-237.
4. Мировой Рынок Мёда. Статистика по Странам. [www.pchelovod.info](http://www.pchelovod.info)
5. Льготные тарифные квоты. <https://eu-ua.kmu.gov.ua/en/preferential-tariff-quotas>
6. Украина. Закон о пчеловодстве. <https://moyapaseka.ru/novosti/ukraina-zakon-o-pchelovodstve>
7. <https://ferma.expert/pchely/razvedenie-pchely/pchelovodstvo-v-ukraine>
8. Murodova, N. U., Temirova, F. S., Alimkhanova, N. A., Dostova, M. K., & Azimova, K. E. IMPROVING THE CALCULATION OF INVENTORIES OF GOODS IN ACCOUNTING.
9. Azimova, H. E. (2022). ISSUES OF DEVELOPMENT OF FOREIGN TRADE WITH THE HELP OF FOREIGN INVESTMENTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 183-188.

**UDK: 332.156**

## **AGLOMERATSIYANI RIVOJLANTIRISHNI KLAGSTERLASH TIZIMI**

**Ochilov Akram Odilovich** - QDU "Iqtisodiyot" kafedrasi mudiri,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xidoyatova Nigora Shorakibovna** - QXU "Aniq fanlar"  
kafedrasi katta o'qituvchisi

### **КЛАСТЕРНАЯ СИСТЕМА РАЗВИТИЯ АГЛОМЕРАЦИИ**

**Очилов Акрам Одилович** – заведующий кафедрой «Экономика» КГУ,  
доктор экономических наук, профессор

**Хидоятова Нигора Шоракибовна** - старший преподаватель кафедры  
«Точные науки» КМУ

### **CLUSTER SYSTEM FOR AGGLOMERATION DEVELOPMENT**

**Ochilov Akram Odilovich** – Head of the Department of Economics, KSU,  
Doctor of Economic Sciences, Professor

**Khidoyatova Nigora Shorakibovna** - senior lecturer of the department  
"Exact Sciences" KIU

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada aglomeratsiyani rivojlantirishning klasterli tizimini shakllantirish taklif etilgan. Shahar aglomeratsiyasini rivojlantirishda, klasterlash orqali infratuzilmani rivojlantirish hamda iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatning samarali ko'rsatkichlari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** mintaqqa, ishlab chiqarish tizimi, ishlab chiqarish kuchlari, xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayon, iqtisodiy landshaft, shtandort, monopol foya, dumping, soliq tizimi, davlat chegarasi, xalqaro savdo, texnika taraqqiyoti, rivojlanish qutbi, rivojlanish markazlari.

**Аннотация.** В данной статье предлагается формирование кластерной системы развития агломерации. Анализируются развитие городской агломерации, развитие инфраструктуры посредством кластеризации и эффективные показатели экономической и социальной активности.

**Ключевые слова:** регион, производственная система, производительные силы, международное разделение труда, экономический район, экономический ландшафт, стандарт, монопольная прибыль, демпинг, налоговая система, государственная граница, международная торговля, техническое развитие, полюс развития, центры развития.

**Annotation.** This article proposes the formation of a cluster system for the development of agglomeration. The development of urban agglomeration, infrastructure development through clustering and effective indicators of economic and social activity are analyzed.

**Key words:** region, production system, productive forces, international division of labor, economic region, economic landscape, standard, monopoly profit, dumping, tax system, state border, international trade, technical development, development pole, development centers

#### **1. KIRISH**

Maqolada mintaqqa aholisining uzoq umr ko'rishi ustuvor vazifa sifatida, aglomeratsiya klasterlar tizimini shakllantirish taklif etiladi. Klaster "mintaqqa infratuzilmasi majmui" sifatida xalqaro jihatdan tashkil qilinishi kerak.

Mamlakatimizda innovatsion yuqori texnologiyalardan foydalangan holda klasterlarni uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyalari ishlab chiqilgan. Mintaqani rivojlantirishda klasterli yondashuv iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatning samarali turi sifatida foydalaniladi.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida, kam quvvatli fermer xo‘jaliklarning birlashishi natijasida dastlabki klasterlar shakllandi. Xorijiy tajribalardan ko‘rdikki, klaster yondashuvini faol joriy etish orqali mamlakat qishloq xo‘jaligini rivojlantirish mumkin. Qishloq xo‘jaligini, asosiy tendentsiyalardan biri fermer xo‘jaliklarni birlashtirishdir. Asosan klasterlar qishloq xo‘jaligiga xos bo‘lib, xo‘jaliklarning tarkibiy qismlarining kombinatsiyasi bilan tavsiflanadi.

## **2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI**


Neoklassik yo‘nalishdagi iqtisodiy o’sish nazariyalari ko‘rib chiqilganda fazoviy vaqtini hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligini joylashtirish masalalari iqtisodiy omillar qatoriga kiradi. A.Marshall klasterlashni iqtisodiy maqsadga muvofiqligini o‘rganadi. A.Marshall ta’limotida kichik biznesning mahalliy hududlarda to‘planishi [1] katta samaradorlik ko‘rsatkichlarga ega bo‘ladi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, kichik va o’rtalik korxonalar bir xilda ishlaydi va ma’lum bir hududda to‘plangan tarmoqlar yirik korxonalar sifatida ishlashi samaradorlikni oshiradi.

X.Sibert nazariylarida mintaqaviy o’sish, ishlab chiqarish hajmiga o’zaro bog’liqligi bo‘lgan (mehnat, yer, kapital, bilim darajasi) kabi omillardan iborat [2].

Klasterlashtirishni kumulyativ o’sish nazariyalarini F.Perroux, J.Boudville asarlaridan ko‘rshimiz mumkin. Bu usul (yig‘ish usuli) - kapitallashuv koeffitsienti qo’shilganda, kapitallashtirish koeffitsiyentini (stavkasini) aniqlash usullaridan biri hisoblanadi.

Pottier va F.Perruning o’sish qutblari nazariyasida klasterlashtirish yetakchi g‘oyaga asoslanadi. Bunda yangi tovar va xizmatlarni yaratuvchi tarmoqlarning roliga e’tibor qaratiladi. Bu korxonalarning ishlab chiqarish konsentratsiyasi va iqtisodiy o’sish qutblarining shakllanishiga olib keladi [3].



**1-rasm M.Porterning klaster kontsepsiysi**

Ishlab chiqarish kontsentratsiyasi - bu yirik korxonalar sonining ko‘payishi va jamiyatda mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish

vositalarining ko‘payib borayotgan qismini anglatadi.

Qutb nazariyasida raqobatbardoshlik uzoq, tarvaqaylab ketgan va iqtisodiy

diversifikatsion va integratsion yo'lni bosib o'tdi [4]. Diversifikatsiya deganda ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish, iqtisodiy foyda olishni, iqtisodiy integratsiya deganda – turli korxona va tarmoqlarning, shuningdek, mamlakatlarning ishlab chiqarish sohasida bir-biriga yaqinlashuvi, ular o'rtasida uzviy bog'lilikni tushunamiz.

J.Budvill esa F.Perrux nazariyasini muayyan geografik makonga bog'ladi. U geografik makonda funksional aloqani ko'rsatdi.

Hududlarning iqtisodiy rivojlanishi, o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmini ishga tushirish orqali amalga oshiriladi [5]. P.Krugmanning "aglomeratsiya nazariyasi"ga ko'ra, asosiy o'sish omili sanoatning to'planishi hisoblanadi. G.Myrdal mintaqqa rivojlanishining boshlanishini tasodifiy omilning kashf etilishi bilan [6]. Shunday qilib, ko'plab xorijiy tajribalarga asoslansak, korxonalarini joylashtirish nazariyalari mavjud. Korxonalar va ular faoliyatining iqtisodiy samaradorligini o'rganish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi sezilarli farqlar tufayli kumulyativ yo'nalish nazariyalaridan foydalilanadi [7]. N.Kolossovskiy, P.M.Alampiev, Yu.G.Saushkin va boshqalar korxonalarini hududiy taqsimotni o'rgandilar. Ular "hududiy ishlab chiqarish komplekslari" tushunchasining asoschilaridir [8]. Hududiy ishlab chiqarish komplekslari nazariyasi maqsadli samarali ishlab chiqarish orqali hudud iqtisodiyotini rivojlaniradi. Hududdagi korxonalarining turli tarmoqlarining birgalikda faoliyat yuritishi birlamchi sanoatda zichligi past bo'lgan hududlarda qo'llanilgan. Aholi soni va ishlab chiqarish sanoatining zaif joylarni rivojlanishi uchun Hududiy ishlab chiqarish komplekslari nazariyasi qo'llanilgan [9]. Hududning tabiiy va inson resurslari zich joylarni klasterlash-tirish mintaqaning raqobatbardoshligini oshiradi [10]. Klasterlash nazariyasinig asoschisi M.Porter bo'lib, u klasterni "geografik jihatdan qo'shni o'zaro bog'langan guruh" deb belgilaydi. Muayyan sohada faoliyat yurituvchi kompaniyalar va tegishli tashkilotlar bir-birini to'ldiruvchi" hisoblanadi [11].

Bugungi kunga kelib, Innovatsion klasterlarning shakllanish xorijiy mamlatlarda muhim siyosat elementi hisoblanadi. Ekspertlarning fikricha, klasterlash yetakchi mamlakatlar iqtisodiyotining qariyb 50 foizini qamrab oladi [12]. Innovatsiyalarni faollashtirish va klasterlar sonini ko'paytirish maqsadida milliy iqtisodiyotni rivojlanirish va oshirishning eng samarali mexanizmi sifatida iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi mustahkam aloqani urnatish klasterlashning vazifasi hisoblanadi [13]. Xorijiy korxonalaridagi klaster rivojlanishining ijobiy tajribasi mamlakatimiz iqtisodiyotida klasterlarni joriy etish uchun asos bo'ladi.

Mintaqani iqtisodiy va hududiy rivojlanirishning samarali turi sifatida yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar va ilmiy tadqiqotlarning shakllanishi natijasida ilmiy markazlar paydo bo'ladi.

### **3. TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mavzu yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda kuzatish, solishtirish, suhbat, anketa so'rovlari kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

### **4. ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR**

"Iqtisodiy rivojlanish va innovatsion iqtisodiyot" klasterlarini joriy etish natijasida optimallashtirish hozirgi davr talabi hisoblanadi. Mahalliy korxonalarining mavqeini oshirish va raqobatbardoshligini oshirish uchun ishlab chiqarish zanjirlarini tashkil qilish kerak.[14]

Zamonaviy iqtisodiyotda klaster yonda-shuvi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash davom etmoqda.

Mintaqa iqtisodiyotini "modernizatsiya qilish" modeliga o'tish zarurligini anglatadi. Ko'p qutbli fazoviy rivojlanish va mintaqada "qutblarning shakllanish klasteri" raqobat-bardoshlikni oshiradi.

"Klaster" kontseptsiyasining moslashuv-chanaligi va noaniqligi, chegaralarning doimiy kengayishi va klaster yondashuvi yangi ta'riflar va xilma-xillikning paydo bo'lishiga olib keladi.

Mintaqa klasterlarning umumiylashtirilishiga qarab xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ishtirokchi firmalar va resurslarning geografik kontsentratsiyasi;
- aniq mutaxassislik;

- funksional o‘zaro bog‘liqlik va ishtirokchilarning keng doirasi;
- klaster ichidagi raqobat va hamkorlik;
- faoliyatning innovatsion yo‘nalishi.



## 2-rasm. Klasterli yondashuv kontseptsiyasi

Ushbu xususiyatlarni uchun har bir tadqiqotchi o‘rganilayotgan sohaga qarab va yo‘nalish, "klaster" ta’rifi haqida o‘z qarashlarini qo’shami. Menshenina I.G. klasterni iqtisodiyotni hududiy tashkil etish shakli sifatida belgilaydi va raqobatbardoshlikni amalga oshirish uchun kompaniyalar guruhining o‘zaro hamkorligi mintaqaning afzalliklari ko‘rsatadi [15]. Rojkorvning so‘zlariga ko‘ra G.V. klasterlar bir guruhdir, bir xil o‘zaro bog‘liq iqtisodiy obyektlardir deydi [16]. Naumov V.A. “Iqtisodiyot rivojini ta’minlovchi lokomotivlar” bilan solishtiradi va klasterlar tuzadi. klasterlar yirik raqobatbardosh tuzilmalar sifatida [17]. Kutsenkoning so‘zlariga ko‘ra, klasterlar yuqori innovatsion faoliyat makonidir va asosiyi klasterlarni amalga oshirishdan maqsad global raqobatbardoshlikni oshirish hamda yangi texnologik bazaga o’tishdir [18, 19].

Ham geografik, ham faoliyat sohasida umumiylashtirilishiga qarab xususiyatlari quyidagilardan iborat:

firmalarni, resurslarni, iste’molchilarni mahalliylashtirish, shakllanishiga hissa qo’shami. Ilg’or iqtisodiyotning fazoviy ifodalangan hududiy zonalari [20, 21], doimiy tajriba va axborot almashish, tarqatish orqali o‘sadi.

## 5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Klaster faoliyati – innovatsion qishloq xo‘jalik mahsulotlari dori vositalarini yaratish va ishlab chiqishdan iborat. Klasterning yadrosi katta-kichik va o’rta korxonalarini birlashtirigan ishlab chiqarish korxonalarini, yordamchi muassasalar ushbu turdagidan klasterga kiritilgan. Periferik zonada joylashgan shahar tizimining ishlab chiqarish quyi tizimi barcha sanitariya-gigiyena talablarini hisobga olgan holda aglomeratsiya yadrolaridan iborat.

Bu tur klasterlar mahalliy hududda kichik va integratsiyalashuv natijasida shakllanadi. Klasterlar aglomeratsiya yadrosining periferik zonasida joylashgan va qulay atrof-muhitga ega bo’lgan hududlarda shahar atrofidagi aglomeratsiya va suv havzalari yaqinidagi muhitga moslashsadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Маршалл, А. Принципы экономической науки /А. Маршалл. – М.: Прогресс, 1993, 603 с.
2. Siebert, H. Regional economic growth theory and policy / H.Siebert. – Scranton, 1969.
3. Perroux, F. A New Concept of Development: Basic Tenets / F. Perroux. - London: Croom Helm, 1983. – 212р.
4. Украинский, В. Н. Французская пространственная экономика: от промышленных округов до полюсов конкурентоспособности / В.Н. Украинский // Пространственная Экономика. – 2011. – № 3. – С. 71–99.
5. Кожиева, Ф. А. Региональное развитие в контексте теории полюсов роста / Ф.А. Кожиева //Фундаментальные исследования. – 2015. – №11. – С. 574–578.
- 6.Мюрдаль, Г. Современные проблемы третьего мира / Г. Мюрдаль. – М.: Прогресс,1972. – 767 с.
7. Гармидер, А.А. Теоретические аспекты построения модели кластера в туристической сфере региона /А.А. Гармидер // Вестник Оренбургского государственного университета. – 2015. – №4. – С. 250-256.
- 8.Очур, Ю. С. Территориально-производственные комплексы: история и развитие /Ю.С. Очур // Молодой ученый. – 2011. –№11. Т.1. – С. 142–144.
9. Хикматов, Р.И. Международный опыт развития кластеров / Р.И. Хикматов, А.А.Гараев // Актуальные проблемы экономики и права. – 2009. – № 1. – С. 125–136.
- 10.Дроздова, Н.В. Территориально-производственные комплексы и региональные кластеры: преемственность и перспективы развития / Н.В. Дроздова // Ярославский педагогический вестник. – 2011. – №3. – С. 125–129.
11. Порттер, М. Международная конкуренция: Конкурентные преимущества стран / М.Порттер. – М.: Международные отношения, 1993. – 896 с.
- 12.Муравьева, Ю.А Зарубежный опыт формирования кластеров / Ю.А. Муравьева //Экономические науки. – 2015. – № 6(15). – С.111– 113.
13. Ketels, H.M. From cluster to cluster-based economic development / H.M. Ketels, O.Memedovic // Int. J Technological Learning, innovation and Development. – 2008. –№3. – P.375–392.
14. Глазычев, В. Л. Урбанистика: 2-е издание, стереотипное / В.Л.Глазычев. – М.: Издательство «Европа», КДУ, 2017. – 228с.
15. Меньшенина, И.Г. Региональные кластеры как форма территориальной организации экономики: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук: 08.00.05/ Меньшенина Ирина Геннадьевна. – Екатеринбург: ГОУ ВПО УГЭУ, 2009. – 26 с.
16. Рожков,Г.В. Генезис инновационной экономики в России / Г.В. Рожков; под ред. С.Г. Ерошенкова. – М.: МАКС Пресс, 2009. – 888 с.
17. Наумов, В.А. Экономическая эффективность формирования кластерного образования в нефтегазовом регионе [Электронный ресурс] / В.А. Наумов // OGBUS.RU Нефтегазовое дело. – 2006. – Режим доступа: <http://www.ogbus.ru>. (дата обращения:15.12.2018).
18. Куценко, Е.С. Кластеры в экономике: основы кластерной политики государства / Е.С. Куценко // Обозреватель. – 2010. – № 3. – С. 99–110.
19. Куценко, Е.С. Кластеры в экономике: практика выявления /Е.С. Куценко // Обозреватель. – 2009. – № 10. – С. 109–126.
20. Эльканов, Р. Х. Полюса развития и точки роста инновационной экономики: российский и зарубежный опыт / Р.Х. Эльканов // Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. – 2012. – № 2. – С. 39–43.
21. Наумов, В.А. Экономическая эффективность формирования кластерного образования в нефтегазовом регионе [Электронный ресурс] / В.А. Наумов // OGBUS.RU Нефтегазовое дело. – 2006. – Режим доступа: <http://www.ogbus.ru>. (дата обращения: 15.12.2018).

## IV. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

UDK:333.124.3

### HUDUDLARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INVESTITSION YO'NALISHLARI VA TAMOYILLARI

**Namozov A.Sh.** – “Qashqadaryo mintaqaviy yo'llariga buyurtmachi xizmati”  
davlat muassasasi direktori o'rinosi

### ИНВЕСТИЦИОННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РЕГИОНАХ

**Намозов А.Ш.** - Заместитель директора государственного учреждения  
«служба заказчик дорог Кашкадарьянской области»

### INVESTMENT DIRECTIONS AND PRINCIPLES OF ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN THE REGIONS

**Namozov A.Sh.** - Deputy Director of the state institution “Road  
Contractor Service of the Kashkadarya Region”

**Annotatsiya.** Davlat kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning evolyutsion rivojlanish tendentsiyalarini o'rganib chiqdi. Tadbirkorlik toifalari bo'yicha ta'limgatlarni nazariy tahlil qilish yo'nalishlari ko'rsatilgan. Tadbirkorlik faoliyati uchun yaratilgan shart-sharoitlar va tashkiliy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga berilgan baholar tahlil qilingan. Hududlar va hududlarda tadbirkorlikning iqtisodiy va moliyaviy muvozanatini ta'minlash mexanizmi o'rganildi. Shuningdek, investitsiya siyosatida xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'rni va faoliyati o'rganiladi. Tadbirkorlik sohasidagi mavjud muammolarni to'g'ridan-to'g'ri va xorijiy investitsiyalar hisobidan hal etish yo'nalishlari ko'rsatilgan. Prinsiplar tadbirkorlikning investitsiya yo'nalishlari asosida taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** investitsiyalar, investisiya faoliyati, tashqi savdo aylanmasi, eksport, import, qo'shma korxonalar, tadbirkorlik.

**Аннотация.** В статье рассмотрены тенденции эволюционного развития малого бизнеса и частного предпринимательства. Указаны направления теоретического анализа ученых по категории предпринимательства. Анализируются оценка условий, созданных для предпринимательства, и показатели организационно-экономического развития. Исследован механизм обеспечения экономической и финансовой сбалансированности предпринимательства в регионах. Также изучается роль хозяйствующих субъектов и их деятельности в инвестиционной политике. Указаны направления решения существующих проблем в сфере предпринимательства за счет прямых и иностранных инвестиций. В статье предложены принципы, как основы инвестиционных направлений предпринимательства.

**Ключевые слова:** инвестиции, инвестиционная деятельность, внешнеторговый оборот, экспорт, импорт, совместные предприятия, предпринимательство.

**Annotation.** The article examines the trends in the evolutionary development of small businesses and private entrepreneurship. The directions of theoretical analysis of scientists in the category of entrepreneurship are indicated. The assessment of the conditions created for entrepreneurship and indicators of organizational and economic development are analyzed. The mechanism for ensuring economic and financial balance of entrepreneurship in the regions has been studied. The role of economic entities and their activities in investment policy is also studied. Directions for solving existing problems in the field of

entrepreneurship through direct and foreign investment are indicated. The article proposes principles as the basis for investment directions of entrepreneurship.

**Key words:** investments, investment activity, foreign trade turnover, export, import, joint ventures, entrepreneurship

## 1. KIRISH

Bozor munosabatlarining qaror topishi sharoitida turli mulk shaklidagi xo'jalik subyektlarining yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishga intilishi yo'lidagi faoliyatları talab va taklif, qiymat qonunları tamoyillari asosida boshqarilib, bu holat bozorda iste'molchilar va ishlab chiqarish xo'jalik subyektlari to'la iqtisodiy erkinlikka ega bo'lishlarini taqozo etadi. Bozor iqtisodiyotining evolyutsion rivojlanishida iste'molchilar va ishlab chiqarish subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar muvozanatini tadbirkorlik ta'minlab kelgan. Davlatning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvi chegarasi qonunchilik, soliqqa tortish darajasi, iqtisodiy hamkorlar bilan o'zaro manfaatdorlik asosida munosabat yuritishga imkon beradigan kichik tadbirkorlikka joriy etilgan imtiyozlar tizimi orqali tartibga solinishi lozim. Respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida raqobatning rolini oshirish zaruriyati obyektiv va qonuniy jarayondir. Raqobat ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning iqtisodiy erkinlik darajasini kengaytiradi, jami to'lovga qobil talabni oshiradi, kapitalning o'z-o'zidan o'sish tendensiyasini kuchaytiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning kichik va xususiy tadbirkorlik sohasini tartibga solish funksiyasi saqlanib qolishi zarur. Bunga, eng avvalo, mamlakat ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy salohiyatini tiklashda, asosiy sharti kichik biznes faoliyatiga aralashmaslik va maqsadga muvofiq soliq siyosatini yuritish hisoblangan qulay investitsiya muhitini barpo etishda kichik korxonalarining sezilarli rolini tan olgan holda qonunchilik vositasida ularni qo'llab-quvvatlash orqali erishiladi.

## 2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dastlabki «tadbirkorlik» kategoriyasining ifodasi R.Kontilon, K.Bodo, I.X.Tyunen va F.Naytlar bilan bog'liqdir. Birinchi bor «tadbirkorlik» ilmiy termin sifatida R.Kontilon tomonidan kiritilgan bo'lib, bozor talabi va taklifi o'rtasidagi farqni, arzon sotib olish va yuqori bahoga sotishning imkoniyatlarini aniqlagan. Foyda olish uchun ushbu imkoniyatlarni amalga oshiruvchi insonlarni tadbirkorlar deb bilganlar. «Tadbirkorlik»ni R.Kantil'on tavakkalchilik sharoitida harakat qiluvchi kishi deb tushunib, uni bozor imkoniyatlarini ko'ra bilish, foyda olish maqsadida tavakkalchilikni o'ziga olish yo'li bilan amalga oshiradi, deb hisoblaydi. K.Bado (fiziokrat) o'zining xulosalarida o'z zamondoshlaridan o'zib ketdi. U ta'kidlaydiki, «tadbirkor» ma'lum intellektga, ya'ni turli axborotlar va bilimlarga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Tadbirkorlik muammosiga hozirgi iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari asosida tadbirkorlikning mohiyatini tahlil qilgan holda quyidagi yo'nalishlarga bo'lish mumkin: Birinchi yo'nalish- tadbirkorlik bu foyda olish uchun yo'naltirilgan mustaqil iqtisodiy faoliyatdir.

Ikkinchi yo'nalish – tadbirkorlik faoliyatining maqsadi foyda olishni inkor qilmay, balki tadbirkorlik mohiyatini aniqlovchi sifatida, resurslarning yangi kombinatsiyalarini amalga oshirishda munosabatlar yig'indisiga asoslangan holda ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erishish hamdir [3].

Uchinchi yo'nalish – tadbirkorlik faoliyatini resurslarning harakatini

boshqarishda ijodkorlik zarur, deb hisoblanadi. Ularga D.V.Busigin, V.D.Kamayev, I.N.Gerchikova, F.M.Rusinov [4] va boshqalarni kiritish mumkin. Bu olimlarning tadqiqotlarida tadbirkorlik oddiy mehnat faoliyati emas, balki ijodiy aktivlik sifatida aks ettirilgan.

Ishlab chiqarish omillarini birlashtirish tadbirkorlik faoliyatining asosiy mohiyati sifatida A.Marshall asarlarida rivojlantirilgan. Tadbirkorlar yoki biznesmenlar ko'rsatilgan vazifalarni bajarish doirasida butun xo'jalik tavakkalchilagini o'zlariga oladilar, «ishlab chiqarishga zarur bo'lган kapital va mehnatni birlashtiradilar, ishlab chiqarishning umumiyoq rejasini tuzadilar va loyihalashtiradilar, uning qo'shimcha qismlari ustidan nazoratni amalga oshiradilar» [5].

Xo'jalik yuritishning murakkablashuvi sari uning samaradorligini oshirish va kishilar ehtiyojni to'la qondirish maqsadida tashkiliy vazifa ishlab chiqarishdan ajrala boshlaydi va maxsus qatlama vositachi-tadbirkorlar davrasiga ajraladi. A.Marshall ta'rifi bo'yicha tadbirkor keng ma'noda menejerdir. Menejer vazifasining ajralib chiqishi, ushbu bilan bog'liqliki, «ishchi kuchi» yuqori darajada tijorat yuritishga ixtisoslashmagan. Tadbirkorlik nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Y.Shumpeter o'zining iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi doirasida J.B.Sey va A.Marshall g'oyalarini kengaytirgan. U haqiqatdan, birinchilardan g'arb iqtisodiy nazariyasida iqtisodiy tizimni dinamik va rivojlanuvchi kuch sifatida qaradi.

Yuqoridagi aytib o'tilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, tadbirkorlik foya olish maqsadida innovatsiya va tavakkalchilikka asoslangan holda resurslarni birlashtirish va harakatga keltirish, boshqarish jarayonini o'z ichiga olgan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish faoliyatidir [7]. Shuningdek, tadbirkor yirik loyihalarni amalga oshirish uchun resurslarni birlashtirish jarayonida investitsiyalardan

foydalananish tamoyillarini bilish muhim ahamiyatga ega.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'naliishlaridan biri investitsiya siyosatini to'g'ri tashkil qilish va yo'naliishlarni aniq belgilashdan iboratdir. Birinchi galda xorijiy investitsiyalarni jalb etish ayniqsa kichik biznes xususiy tadbirkorlik korxonalarini hamda yetakshi sanoat tarmoqlariga qaratilishi lozim. Xorijiy sarmoya ishtirokida iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, kichik biznes korxonalarini zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash asosida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin [9]. Bularning barchasi mamlakatimiz iqtisodiyotiga ichki investitsion manbalar va xorijiy sarmoyalarni jalb etish muammolarini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish va ularni hal etish choralarini ishlab chiqish hamda asosiy yo'naliishlarni belgilashdan iboratdir. Hozirgi bosqichda O'zbekistondagi eng muhim vazifa - iqtisodiy barqarorlashtirish siyosatini iqtisodiy o'sish siyosati bilan bog'lash bo'lib, bu hol investitsiya faoliyatini kuchaytirishni talab qiladi. Ushbu masalani hal qilinishi moliyaviy-iqtisodiy qiyinchiliklarni yengishga, mamlakat iqtisodiyotining keng ko'lamma tarkibiy qayta qurishga, birlamchi boshqarish tuzilmalarida qulay ishlab chiqarish muhitini yaratish muammosini hal qilishga, aholi turmush darajasini oshirishni ta'minlashga imkon beradi.

### 3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda kichik biznes rivojining nazariy-uslubiy asoslarini, investitsion faoliyatda kichik biznes rivoji, kapital bozori taraqqiyotidagi roli, unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish kabi yo'naliishlarda ilmiy tadqiqot ishini olib borgan bir qator olimlarning ishlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy tadqiqotlarning dialektika nazariyasiga

tayangan holda analiz va sintez, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

#### **4. ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR**

Investitsion siyosatda keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizini tashkil etgan maqsadlarga erishishda oldimizga qo‘yilgan ustuvor vazifalar qatoridan o‘rin olgan iqtisodiyotimiz rivojining muhim sharti bo‘lgan faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish vazifasini amalga oshirish uchun barcha manbalar hisobidan qariyb 138 trillion so‘mlik yoki 2021 yilga nisbatan 16 foiz ko‘p investitsiyalarni o‘zlashtirish mo‘ljallanmoqda. Bu borada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar miqdori joriy yilga nisbatan qariyb 1,5 barobar oshirilib, 4,2 milliard dollarga yetkaziladi. Natijada 142 ta zamonaviy korxona ishga tushiriladi [1]. Biroq, iqtisodiyotga jalb etilayotgan va o‘zlashtirilayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining o‘sib borishiga erishilayotgan bo‘lsak-da, ammo, u amalda ularga bo‘lgan talab va ularni qabul qilish salohiyati darajasida emasligi bu boradagi siyosatni yangi bosqichga olib chiqish asosida yanada faol va izchil davom ettirish zarurligini taqozo etayotir. Buni BCG ekspertlarining bergen baholari tasdiqlamoqda. BCGning “Markaziy Osiyoga investitsiyalar: bir mintaqqa, ko‘plab imkoniyatlar” ma’ruzasi mualliflari Markaziy Osiyo global tushkunlik o‘sib borayotgan sharoitda investorlar uchun yangi maskan bo‘lishi mumkin, deb hisoblamoqda. Ular mintaqaning noxomashyo sohasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kiritish salohiyatini 40–70 mlrd. dollar deb baholashmoqda. BCG hisob-kitobiga ko‘ra, Qozog‘iston noxomashyo sohasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etish hajmini 32–52 mlrd. dollarga oshirishi mumkin. Markaziy Osiyoda investitsion salohiyat bo‘yicha yetakshi uchlikdan O‘zbekiston (7–13 mlrd. dollar) va Qirg‘iziston (1,3–2 mlrd. dollar) ham o‘rin olgan [13]. Quyidagi rasmda

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan faol investitsiya siyosati natijasida iqtisodiyotga jalb etilgan investitsiyalar hajmi va dinamikasi keltirilgan. Qashqadaryo viloyatida 2022 yilda iqtisodiyotga jalb etilgan investitsiya 189924,3 milliard so‘mni tashkil qilib, 2008 yilga nisbatan 124 marta, 2012 yilga nisbatan 7,7 marta, 2022 yilga nisbatan 1,5 martaga oshgan. Buning natijasida tashqi iqtisodiy faoliyat ham birmuncha faollandi. Jumladan tashqi savdo aylanmasining ijobjiy saldosi ta’mindandi. Jumladan, Qashqadaryo tashqi savdo aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2022 yilda 29,4 foizni tashkil qilib, keyingi besh yilda ikki barobardan ortiq oshgan. Shuningdek, investitsiyalash natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ishlab chiqarish hajmi oshib, yalpi ichki mahsulotdagi ulushi keyingi besh yilda 10 foizga oshgan.

Investitsiya jarayonlarini faollashtirish vazifasi tegishli tartibga soluvchi vositalarni shakllantirishdan iborat bo‘lib, bu vositalarsiz bozor munosabatlarini rivojlantirish sari tabiiy harakatni amalga oshirib bo‘lmaydi. Investitsiya siyosati milliy iqtisodiyot, tarmoqlar hamda hududlar rivojlanishi bilan uyg‘un bo‘lsagina o‘zining kutilgan samarasini beradi. Investorlarning hududlar ravnaqiga pul tikishi uchun ularga qulay tashkiliy-huquqiy shartsharoit yaratish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masaladir.

Ammo shuni aytishimiz lozimki, 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar jami investetsiyalardagi ulushi 12 foizni tashkil qilib, 2019 yilga nirsbatan 2,1 fozga kamayganlinini ko‘rishimiz mumkin. Bu tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy – iqtisodiy bazasining kamligini anglatadi. Ammo kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi hududiy mahsulotdagi

ulushi keyingi besh yil davomida 12,7 foizga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, eksport va import hajmi ham oshgan. Bu shuni ko‘rsatdiki, yirik sanoat korxonalari va hamda xorijiy investitsiyalar hajmi oshib bormoqda [12].

Keyingi yillarda davlat budgeti tomonidan bir qator yirik ishlab chiqarish majmualari moliyalashtirilmokda. Jumladan, bozor iqtisodiyotni sharoitida davlat milliy iqtisodiyotimiz uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi obyektlarni moliyalashtirilgan. Xususiy lashtirishning kengayishi hamda xususiy sektorning rivojlanib borishi bilan davlat budgeti mablag‘lari hisobiga investitsiyalash kamayib boradi. Bunday hollarda bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan davlatlarda, jumladan, O‘zbekistonda ham davlat budgeti tomonidan tibbiyot, fan madaniyati, maorif va boshqa ijtimoiy sohalar, loyihamoqda moliyalashtiriladi hamda bu maqsadga muvofiqdir. Bunga misol keyingi paytlarda mamlakatimizda keng miqyosda qurilib foydalanish topshirilayotgan tibbiyot muassasalari, ta‘lim muassalari, uyjoy qurilishi va boshqalarni keltirish mumkin. Jumladan, 2022 yilda Qashqadaryo viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 15321,1 milrd. so‘mni tashkil qilib, 2019 yilga nisbatan 3 barobar oshgan. Shundan noishlab chiqarishga sarflangan investitsiyalar jami investitsyalarda 30 foizni tashkil qilib, 2019 yilga nisbatan ikki barobarga oshgan. Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmog‘iga 70 foizga yaqin investitsiyalar jalb etilgan.

Yuqorida sanab o‘tilgan mablag‘lar manbaidan korxonalar ishlab chiqarishini barpo qilishda yirik sanoat korxonalarini modernizatsiya yoki texnik - texnologik jihatdan yangilashda, kichik korxonalarda aylanma mablag‘larini ko‘paytirishda foydalanish mumkin. Hozirgi kunda ko‘pgina korxonalarni moddiy jihatdan qo‘llab-

quvvatlash maqsadida davlat tomonidan subsidiyalar va boshqa yordam mablag‘lari ajratilmoqda. Davlat tomonidan olib borilayotgan qo‘llab-quvvatlash siyosati asosida korxonalarga, ayniqsa endigina ish boshlagan xorijiy investitsion yoki boshqa turdagи kichik va o‘rta korxonalarga soliq imtiyozlarini berishi ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Korxonalar mana shu imtiyozli davr mobaynida soliq to‘lovlarini amalga oshirmaydilar va shu summalarini o‘z ishlab chiqarishlarini kengaytirishga yo‘naltiradilar.

Bundan tashqari korxonalar o‘zlariga keraksiz bo‘lgan asosiy vosita va boshqa mulklarni sotish yoki ijaraga berish orqali ham qo‘srimcha mablag‘larga ega bo‘lishlari lozim. Investitsiya loyihamoqda turli xil manbalar hisobiga moliyalashtirishda bank kreditlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda bank tizimini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida aholi mablag‘lari investitsiya loyihamoqda moliyalashtirishning zarur manbai hisoblanadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanganligi aholi mablag‘lari to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarga yo‘naltirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Viloyatda ham qimmatli qog‘ozlar bozori shakllanib bormoqda, aholining bo‘sh pul mablag‘larining jamg‘arish tijorat banklarida amaga oshirilmoqda va ushu jamg‘arma mablag‘lari ko‘proq qisqa muddatdi kredit ishiga yo‘naltirilmoqda. Shuni aytish kerakki viloyatimizda chet investitsiyasi kiritilgan korxonalar soni 2022 yilda 192 birlikni tashkil qilib, 2019 yilga nisbatan 4,2 barobar oshgan. Qashqadaryo viloyatida xorijiy kapital ishtiroyidagi korxonalar soni 2022 yilda 2019 yilga nisbatan qishloq xo‘jaligi (9 marta), sanoat (3,2 marta), qurilish (10 marta), qurilish (3,8 marta), tashish va saqlash sohasi (4 marta) o‘sgan [10].

## 5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda investitsiya jarayonlarini faollashtirish vazifasi tegishli tartibga soluvchi vositalarni shakllantirishdan iborat bo‘lib, bu vositalarsiz tadbirkorlikni rivojlantirish sari tabiiy harakatni amalga oshirib bo‘lmaydi. Investitsiya siyosati milliy iqtisodiyot, tarmoqlar hamda hududlarda tadbirkolik rivojlanishi bilan uyg‘un bo‘lsagina o‘zining kutilgan samarasini beradi. Investorlarning hududlar ravnaqiga pul tikishi uchun ularga qulay tashkiliy-huquqiy shartsharoit yaratish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masaladir. Shu o‘rinda investitsion jarayonlarni tahlil qilish va amalga oshirishda kelajakda iqtisodiy rivojlanishga asos bo‘luvchi investitsiya yo‘nalishlariga urg‘u berish kerak.

Fikrimizcha, investitsiya deganda ko‘p qirrali faoliyatni tushunish lozim va u bo‘sh bo‘lgan moliyaviy mablag‘larni kelajakda moddiy va moliyaviy boylikni yaratuvchi tadbirkorlik subyektlariga sarflashni ifodalaydi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, tijorat banklarining va davlatning hududiy investitsiya bilan bog‘liq ko‘p qirrali faoliyati, tadbirkorlarning o‘z mablag‘lari, aholi mablag‘larining moddiy va moliyaviy boyliklarni yaratadigan obyektlarga

sarflanadigan moliyaviy resurslarni shakllantirish lozim.

Hududlarda tadbirkorlik subyektlariga investitsiya jalb qilish yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- chet el sarmoyasi taqsimoti;
- xorijlik ishbilarmonlar uchun jozibador imkoniyat;
- loyihamalar va hamkorlik;
- mexanizmni takomillashtirish zarurati;
- moliya oqimini ko‘paytirish.

Yuqorida yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda hududiy investitsion siyosatni amalga oshirish tamoyillari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

➤ iqtisodiy islohotlarni chuqurlash-tirishga, mintaqalarda ko‘p ukladli iqtisodiyotni, shu jumladan, kichik tadbirkorlikni shakllantirishga, tovar, mehnat va kapitalning umum davlat va hududiy bozorlari hamda institutsional va bozor infratuzilmasi shakllanishiga ko‘maklashish;

➤ hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonidan juda ham katta farqlarni kamaytirish, ularda aholi farovonligini oshirishning o‘z iqtisodiy bazalarini mustah-kamlovchi sharoitlarni bosqichma - bosqich yaratish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti shavkat Mirziyoyevning oliv Majlisga Murojaatnomasi. // <http://aza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliisy-28-12-2018>.
2. Tursunov Imamnazar Egamberdiyevich, Kurbanov Alisher Bobokulovich Innovasionniye podxodi razvitiya predprinimatelstva // International Journal of Innovative Technologies in Economy. 2018. №5 (17).
3. Ekonomika i organizasiya rinochno xozyaystva v Rossii M.: Progress, 1995. - 155 s.
4. Rusinov.F.M. Vozrajdeniya predprinimatelstvo v Rossii. Maykop: 1999 27-28 s.
5. Marshall A. Prinsipi ekonomicheskoy nauki. Per. sangl. – M.: Progress, 1993. - 377 s.
6. Kurbanov Alisher Bobokulovich Rol malogo biznesa v innovacionnoy deyatelnosti // Economics. 2020. №1 (44).
7. Bobokulovich, Kurbanov Alisher, and Jalilova Nigora Mavlonovna. "The Role Of Small Business In The National Economy." *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research* 2.07 (2020): 95-98.

8. Kurbanov Alisher Bobokulovich, Alimova Munisa Yulchiyena. Prospects for the development of fruit and vegetable enterprises. JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 6, ISSUE 12, Dec. -2022
9. Khamrayeva Sayyora Nasimovna, Kurbanov Alisher Bobokulovich, Fayziyeva Shirin Shodmonovna. Thinking Design an Effective Way to Shape and Develop Innovations. International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 7, (2022), pp. 7954-7960.
10. Markaziy osiyo investorlarni nimasi bilan jalb etishi mumkin? // <https://kun.uz/news/2018/10/21>.
11. Qashqadaryo viloyat statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari.

## V. МЕНЕДЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ

УДК:331.52

### INSON KAPITALI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI MENEJMENTI

Ochilov Akram Odilovich – “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor;

Djumayev Yashin Tursunaliyevich – erkin izlanuvchi,

Muratov A’zam Alisher o‘g‘li – talaba (QarDU)

Alimardonova Gulnaz Alimardon qizi – talaba (QarDU)

### УПРАВЛЕНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМ КАПИТАЛОМ И ФАКТОРЫ ЕГО РАЗВИТИЯ

Очилов Акрам Одилович – заведующий кафедрой «Экономика», д.э.н., профессор;

Джумаев Яшин Турсуналиевич - свободный искатель,

Муратов Альзам Алишер угли - студент (КарГУ)

Алимардонова Гульназа Алимардон кизи – студент (КарГУ)

### HUMAN CAPITAL MANAGEMENT AND FACTORS OF ITS DEVELOPMENT

Ochilov Akram Odilovich – Head of the Department of Economics, DSc, professor;

Djumaev Yashin Tursunaliyevich - free seeker,

Muratov Azam Alisher ugli - student (KarSU)

Alimardonova Gulnaz Alimardon qizi – student (KarSU)

**Annotatsiya.** Maqolada inson kapitali tushunchasi, uning vujudga kelish xususiyatlari, mazmun-mohiyati, O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyasini belgilashda inson kapitalini rivojlantirish maqsadlari va uning rivojlanish omillarini boshqarish yo‘nalishlari yoritilgan. Bundan tashqari maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning inson kapitaliga yondashuvlari, ularning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari tahlil qilingan va olingan xulosalar asosida tegishli tavsiyalar berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** inson omili, sog‘liqni saqlash, aholi bandligi, inson kapitali, intellektual salohiyat, innovatsion iqtisodiyot, ta’lim, bilim, milliy daromad, iqtisodiy o‘sish, sarmoyalar.

**Аннотация.** В статье описывается понятие человеческого капитала, особенности его формирования, его сущность, цели развития человеческого капитала в определении стратегии развития Республики Узбекистан и направленности факторов его развития. Кроме этого в статье анализируются подходы зарубежных и отечественных ученых к человеческому капиталу, результаты их исследований и на основе полученных выводов даются соответствующие рекомендации.

**Ключевые слова:** человеческий фактор, здравоохранение, занятость населения, человеческий капитал, интеллектуальный потенциал, инновационная экономика, образование, знания, национальный доход, экономический рост, инвестиции.

**Annotation.** The article describes the concept of human capital, the features of its formation, its essence, the goals of human capital development in determining the development strategy of the Republic of Uzbekistan and the direction of the factors of its development. In addition, the article analyzes the approaches of foreign and domestic scientists to human capital, the results of their research, and based on the findings obtained, appropriate recommendations are given.

**Keywords:** human factor, healthcare, employment, human capital, intellectual potential, innovative economy, education, knowledge, national income, economic growth, investment.

## 1. KIRISH

Globallashuv, bozor iqtisodiyoti, tezkor axborot almashinushi, raqamli va yashil iqtisodiyot dolzarb ahamiyat kasb etayotgan bugungi kunda mamlakatlarning, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashning asosiy omillaridan biri sifatida mamlakatda mavjud xom-ashyo zahiralari va moddiy boyliklardan unumli foydalanish bilan bir qatorda eng muhim bo‘lgan omillardan biri bu inson kapitali hisoblanadi. Inson kapitalining asosini bilim tashkil etadi, bilim esa barcha taraqqiyot omillarining harakatlantiruvchi kuchidir.

Inson kapitalini rivojlantirish har bir jamiyatda bo‘lgani kabi yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning nufuzi, kuchqudrati va iqtisodiyotini yuksaltirish maqsadida aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirish, uning farovon turmush darajasi va hayot sifatini yaxshilash, yoshlarimiz kelajagini ta’minlash kabi omillarni ijobjiy hal qilishda muhim ahamiyatga egadir.

## 2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar hamda ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar tezkor taraqqiyotining asosiy boyligi sifatida inson kapitalini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishning dolzarbligi insoniyat sivilizatsiyasining har bir bosqichida kun tartibida bo‘lgan va bundan keyin ham bo‘ladi.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yetti ustuvor yo‘nalish asosida 100 nomda maqsadlar belgilangan bo‘lib, to‘rtinchisi yo‘nalish – Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish deb nomlangan va bu yo‘nalishda Strategiyaning 37-70-maqsadlari o‘rin egallagan.

O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyasini belgilashda inson kapitalini rivojlantirish quyidagi maqsadlar asosida boshqariladi [1]:

– 37-maqsad: Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlargaga o‘qitish va bu jarayonda nodavlat ta’lim muassasa-

larining ishtirokini 30 foizga yetkazish. Kasbiy ta’lim bilan tizimli ravishda shug‘ullanish masalalarini to‘liq ravishda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ixtiyoriga o‘tkazish. Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravarga oshirish, jami 1 million nafar ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish. Umumta’lim maktablarining kasb o‘rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko‘maklashuvchi tizimni joriy etish;

– 38-maqsad: Maktabgacha ta’limdagи qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish. 2022/2023 yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025 o‘quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish. Maktabgacha ta’lim tizimiga xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish;

– 39-maqsad: Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish. Bog‘cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish. 2022–2026 yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish. Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish;

– 40-maqsad: Maktabgacha ta’lim tizimida budget mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlash. Maktabgacha ta’lim tizimida moliyaviy jarayonlarning shaffof tarzda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;

– 41-maqsad: Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta’limi tizimida qo‘srimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rnini yaratish. Yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko‘paytirish, ta’lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish. O‘quv o‘rinnari sonini 2026 yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish. Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilotlarga sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish orqali ularning ulushini 2026 yilda 8 foizga, shu jumladan 2022 yilda 3 foizga oshirish. 2022–2026 yillarda 217 ta “Barkamol avlod” bolalar

maktabini rivojlantirish bo'yicha dasturni amalga oshirish;

– 42-maqsad: 2026 yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish. Milliy o'quv dasturiga asosan 2026 yilga qadar 699 nomdag'i, shu jumladan 2022 yilda 296 nomdag'i yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish. Milliy o'quv dasturi bo'yicha yangi metodikalarga o'qituvchilarini o'qitish maqsadida Elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026 yilga qadar jami 769 ta videodars yaratish. Umumta'lim maktablarida darslik va o'quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o'tkazish tizimini joriy etish;

– 43-maqsad: Malakali o'qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSH dollari ekvivalentiga yetkazish. Iqtidorli o'qituvchilarning ish haqlarini malaka toifasiga qarab tabaqlashtirilgan holda oshirib borish. O'qituvchilarga malaka toifalarini berish tartibini tubdan qayta ko'rib chiqish hamda malakani baholash metodikasi asosida adolatli va shaffof tizimni joriy etish;

– 44-maqsad: Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish. Maktabda faoliyat olib borishi uchun uchun har bir fan bo'yicha mahalliy yoki xalqaro sertifikatsiya talablarini belgilash. Toifaga ega bo'limgan muktab o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini diagnostikadan o'tkazish. Umumta'lim maktablarini, ayniqsa, chekka hududlardagi ta'lim maskanlarini oliv ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'ldirish ishlarini davom ettirish;

– 46-maqsad: Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish. Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini 2022 yilda oshirish. 2022 yilda yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish. To'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta'lim muassasalarini tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish. 2026 yilda qabul ko'rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish. Davlat oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy

mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to'lash, xodimlar soni, to'lov-kontrakt miqdori va ta'lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo'nga qo'yish. Davlat oliy ta'lim muassasalarining tegishli huquq va vakolatlarini aniq belgilash;

– 47-maqsad: 2026 yilga qadar 10 ta salohiyatlari oliy ta'lim muassasasini QS va THE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash. Oliy ta'lim muassasalarining QS va THE xalqaro reytinglariga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqish. 10 ta salohiyatlari oliy ta'lim muassasasini tanlash. Salohiyati va o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha 5 yilga mo'ljallangan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

– 49-maqsad: 2026 yilgacha nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish. 2022 yilda Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta'lim tashkilotini tashkil etish orqali ularning jami sonini 34 taga yetkazish. 2026 yilga qadar respublika hududlarida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali ularning sonini 50 taga yetkazish;

– 50-maqsad: "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliy gohlarga o'qishga yuborish ko'lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o'qitish. Xorijiy davlatlarning eng nufuzli universitetlarida bakalavriat, magistratura va doktoranturada ta'lim olish uchun ochiq saralash tanlovlarni o'tkazish. Xorijiy oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat, magistratura va doktorantura ta'lim dasturlarida qatnashish maqsadida Jamg'arma tomonidan ochiq tanlov e'lon qilish va o'tkazish;

– 51-maqsad: Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalarini va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish. Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda mavjud analoglaridan 50 foizgacha arzonlashtirilgan va sifatli, xomashyo narxiga nisbatan 2-3 baravar yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab

chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtirish, shu jumladan umumiyligi qiymati 165,9 milliard so‘mlik jami 195 ta loyihami amalga oshirish. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlarida to‘lov-grant asosida o‘qishni tashkil etish;

– 52-maqсад: Global innovatsion indeksda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash va 2030 yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish. Global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo‘yicha O‘zbekiston pozitsiyasini yaxshilash. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo‘nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning zamонавиy mexanizmlarini joriy qilish;

– 70-maqсад: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minalash. Yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o‘rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog‘lom turmush tarzini mustahkamlash. Yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish. Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minalash, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishini ta’minalash, hududlarda inklyuziv ta’lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish. Yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish. ... Iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish. ... Yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlanтирish [1].

“Kapital” – nemischa so‘z. Bosh, asosiy, degan ma’nolarni beradi. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da u uch ma’noda keltirilgan. 1. (iqt.) – O‘zini o‘zi ko‘paytirish uchun foydalaniladigan, o‘z egasiga foyda, daromad keltiradigan boylik (qimmatli qog‘ozlar, pul mablag‘lari, moddiy mol-mulk va sh.k.). 2. Katta mablag‘, ko‘p pul, boylik. 3. (Ko‘chma ma’noda) kimgadir katta boylik, qadriyat hisoblangan, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan,

ahamiyatga molik narsa (Jamiyatimizda inson salomatligi bebaho kapital hisoblanadi). Kapitalist – kapital egasi; o‘z mablag‘larini, ba’zan yollanma mehnatni foyda olish uchun ishlataladigan shaxs [2].

Ko‘pgina iqtisodchi olimlar tomonidan “kapital” so‘ziga ta’rif berib o‘tilgan. Shu jumladan, kapital so‘zining ma’nosi – kapital (fransuzcha, inglizcha “capital” va lotincha “capitalis” so‘zlaridan – “bosh, asosiy”) “daromad keltirishga qodir bo‘lgan yoki odamlar tomonidan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun yaratilgan resurslar” [3].

“Kapital” atamasi odatda kelgusida ishlab chiqarishda foydalanishi mo‘ljallanayotgan mehnat mahsulotlariga nisbatan ishlataladi. Kapitalni yaratish jarayoni sarmoya kiritish deb ataladi. Inson kapitaliga sarmoya kiritish esa o‘z navbatida avvalo, xarajatlar qilish, pirovardida bu xarajatlarning qoplanishini nazarda tutadi.

Dastlabki paytda inson kapitali deganda odamlarning mehnatga bo‘lgan qobiliyati – ta’lim va kasb ko‘nikmalariga sarmoyalar jamlanmasi tushunilgan. Keyinchalik inson kapitali tushunchasi jiddiy ravishda kengaydi. Jahon banki ekspertlari tadqiqotlari asosida o‘rganilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, turar joy, iste’mol xarajatlari, insonlarning ovqatlanishi, sog‘liqni saqlash, kiyim-kechak, ta’lim, ma’naviyatga, madaniyatga va boshqalarga tegishli sarflar, shuningdek davlatning bu maqsadlar uchun xarajatlari inson kapitalining tarkibiy qismlaridir.

Inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanish tarixini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ayrim iqtisodiy adabiyotlar va tarixiy manbalarda inson kapitali konsepsiysi XVII asrda paydo bo‘lganligi keltiriladi. Inson kapitali birinchilardan bo‘lib 1676 yilda Vilyam Petty tomonidan urushda qurollarni yo‘qotishni inson hayotini yo‘qotish bilan taqqoslash asosida qo‘llanilgan [4]. 1776 yilda Adam Smit xalqlarning boyligi asosan ishchilar soni va ular ko‘nikmasining sifati bilan belgilanishini ko‘rsatgan. Adam Smit millatlar boyligida inson kapitalini o‘rganish bo‘yicha ilk qadamlarni qo‘ydi. U inson kapitali iborasidan foydalangan bo‘lmasa-da, insonning foydali qobiliyati boylikning asosiy

manbai va mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim ekanligini e'tirof etgan.

XIX asrning oxirida klassik nazariyaning izdoshlari ularning qarashlarini rivojlantirib, iqtisodiy nazariyaning yangi klassik yo'nalishni shakllantirdilar. Kembrij universitetining professori A.Marshall bu maktab asoschisi hisoblanadi.

Inson kapitalini yaratish va rivojlantirishning muhimlik darajasini ta'lim va yangi g'oya ishlab chiqarish omiliga bog'lagan holda A. Marshall quyidagilarni yozib qoldirgan: "Ta'lim nom-nishonsiz o'lib ketishi mumkin bo'lgan ko'plar uchun o'zlarining salohiyatlarini namoyon qilish imkonini beradi", "Sanoatda bitta ixtirodan foydalanishdan olingen iqtisodiy foyda butun shaharda ta'limga xarajatlarni qoplash uchun yetarlidir, zero Bessemerning asosiy ixtirosi kabi yangi g'oya ishlab chiqarish quvvatlarini yuz ming odam mehnati hisobiga yaratiladigan darajada oshirishni ta'minlaydi" [5]. A. Marshall inson kapitalining qaytimida pulsizlikni e'tiborga olish lozim degan tushunchani kengaytirib, inson kapitalini o'rghanishni jismoniy kapitaldek bir xil tayanch deb e'tirof etdi. Shuningdek u tashqari u inson kapitaliga uzoq muddatli sarmoyalalar samarasi va bu jarayonda insonning rolini tahlil qildi.

Inson kapitali masalasi XIX asrdan boshlab o'rghanila boshlangan. Bu tushuncha fanga Teodor Shuls tomonidan kiritilgan. O'sha paytda bu yo'nalish iqtisod fanining istiqbolli jabhalaridan biriga aylangan. Inson kapitali nazariyasini shakllantirish, uni rivojlantirish, ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilishiga Teodor Shuls katta hissa qo'shgan. U birinchilardan bo'lib inson kapitali tushunchasiga ishlab chiqaruvchi omil sifatida qaragan. T. Shuls o'zining "An'anaviy agrar sohasining transformatsiyasi" asari [6]da qishloq xo'jaligidagi texnologiyalarning roliga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikriga ko'ra, bu texnologiyalarning darjasasi, eng avvalo fermerlar egallagan bilimlarga bog'liqidir. Fermerlar bilimi darajasining pastligi hosildorlik o'sishi va qishloq xo'jaligi samaradorligi ortishi yo'lidagi asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi.

Inson kapitali xizmatlar oqimini hosil qiladigan aktiv sifatida qaraladi va ko'pincha

daromad sifatida o'lchanadi. Inson kapitali insoniyatning o'ziga xos ichki qobiliyatini anglatadi. Bu qibiliyatlar ta'lim, ish, sog'liq kapitallari orqali taraqqiy ettiriladi. T. Shuls inson kapitalida ishchi kuchining unumdarligini o'sishini tushuntirishda ta'lim roliga va umumiylar sarmoyalarga e'tiborini qaratdi. Uning o'rgatish usuli ta'limning iqtisodiy ahamiyati iqtisodchilar ta'limi sohasining boshlanishi bilan iqtisodchilar tomonidan fan sifatida maqsadli ta'limga e'tiborini qaratgan.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib inson kapitali iqtisod ta'limi va mehnatning asosiy yutug'iga aylandi. Gerri Bekker inson kapitalining miqdori xodimning butun umri davomidagi ish haqining kapitallashishi bilan baholanadi. Inson kapitaliga sarmoyalalar ta'limga, sog'liqni saqlashga va mehnatga xarajatlardir. Inson kapitaliga carmovalar mehnat unumdarligini oshirish uchun q'llanilgan asosiy vosita hisoblanadi.

O'tgan asrlarda xorijiy olimlar inson kapitali masalalari bilan shug'ullanishgan va hozirgi davrda ham bu ishlar tezkor tartibda davom etayotganligini e'tirof etdik. Yurtimizda bu borada bir qator tadqiqotchilar tomonidan inson kapitalining rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlashda asosiy omillardan bira sifatida e'tirof etib o'tganlar. Jumladan, Akromova Sh.G. ning [7] maqolasida R.A. Ubaydullayeva, Q.X.Abduraxmonov, S.S. G'ulomov, A.V.Vaxobov, Sh.N. Zaynudinov, M.Q. Pardayev, B.N. Navro'zzoda, D.M.Karimova, N.K.Zokirova, N.X.Raximova, B.K. Goyibnazarov, Sh.J. Ergashxodjayeva, G.P.G'ulomova, L.B.Shibarshova kabi olimlar tomonidan inson kapitalining o'ziga xos jihatlari tadqiq etilganligi ta'kidlangan.

Yuqorida keltirilgan xorijiy va mahalliy olimlarning fikr-mulohazalari va tajriba shuni ko'rsatadiki, inson kapitali quyidagi mazmun va mohiyatga ega:

- inson kapitali: odamlarning soni emas, bir insondagi hunar, kasblar soni;

- inson kapitali: inson faoliyatining samaradorligiga va mehnatning yuqori unumdarligi hamda ishlab chiqarishning o'sishiga imkon beruvchi zahira;

– inson kapitali: inson faoliyati davomida to‘planadigan malaka va tajriba zahirasi;

– inson kapitali: insonning intellekti, sog‘lig‘i, bilimi, sifatli va unumli mehnat faoliyati, turmush darajasi va hayot sifati yaxshilanishining kafolati;

– inson kapitali: odamning foyda keltirish qobiliyatining o‘lchovi. Bunga uning tug‘ma qobiliyatları, talanti, bilimlari va orttirgan kasbiy malakalari kiradi;

– inson kapitali: inson ega bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qibiliyatlarining yig‘indisi;

– inson kapitali: odamlarning soni emas, balki kreativligi va samaradorligi;

– inson kapitali: innovatsion iqtisodiyot va rivojlanishning keyingi bosqichi – bilimlar iqtisodiyotini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi bosh omil;

– inson kapitali: shaxsdagi yuksak ma’naviyat;

inson kapitali: chuqur bilim, bunyodkorlik, tashabbuskorlik, yaratuvchanlik, yuksak kasbiy salohiyat asosida yaratiluvchi omil;

Bularni umumlashtirgan holda aytishimiz mumkinki, inson kapitali – intellektual bilim va innovatsion iqtisodiyotning o‘sishiga, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etilishiga, mehnat resurslaridan samarali va unumli foydalanishga, ishlab chiqarish hajmining ortishiga, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishga, jamiyat va oila farovonligini ta’minlashning asosiy omilidir.

L.I.Shabirovaning ta’kidlashicha, ro‘y berayotgan ijtimoiy jarayonlar ta’lim olish orqali olingen bilimlar o‘zining yangi sifat ko‘rinishida kapital shaklini oladi [8].

Bilimlar jamiyatdagи bor imkoniyatlardan foydalanishni, ko‘nikma-malakalar esa ijtimoiy taraqqiyot va iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. Bu hodisa doimiy ravishda ta’limni muntazam ravishda moliyalashtirib borishni taqozo etadi.

Inson kapitali darajasini bir nechta usulga asoslanib baholash mumkin. An’anaga ko‘ra, iqtisodchilar buni ko‘proq ta’lim olgan odamlarning daromadi bilan hisoblashadi. Tadqiqotlar har bir qo‘srimcha ta’lim yili inson daromadini o‘rtacha 10 foiz oshirishini

isbotladi. Ta’limga kiritiladigan sarmoyalari ham jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kamaytiradi. Aksariyat mamlakatlarda nisbatan o‘ziga to‘q oilalarda tug‘ilgan farzandlar bolalikdanoq keng imkoniyatlardan foydalanishni boshlaydi va u butun umri davomida qator afzalliklarni, qulayliklarni qo‘lga kiritadi. Aksincha, nochor oilalar farzandi shunday imkoniyatlardan bebahra qoladi [9,10].

### **3. TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Ilmiy-tadqiqot ishida adabiyotlar solishtirma tahlili, monografik tadqiqot, xorijiy tajribalar tahlili, mamlakatda olib borilayotga islohotlar tahlili, mantiqiy-xulosaviy tahlil usullaridan foydalanildi.

### **4. ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR**

Inson kapitali uchun maxsus element sifatida ta’lim belgilanadi va uning asosiy qismlari to‘rt komponent birlashmasidan – madaniy va etnik xususiyatlar, umumiylar ta’lim, kasb-hunar ta’limi va asosiy malakadan tashkil topadi. Ta’limga yo‘naltirilgan investitsiya nafaqat mamlakatni rivojlanirishning maxsus strategiyasi, balki inson kapitali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatdir. Buning natijasida inson kapitali takomillashib, moddiy farovonlik va sog‘lom turmush tarziga erishiladi. Inson kapitali har bir insonning individual kapital shaklidir. Qobiliyat, bilim, ko‘nikma va tajriba har bir yoshning shaxsiy mulkidir.

Yoshlarni yuqori malakali kasb sohiblari etib tarbiyalash bugun yangi O‘zbekistonning ustuvor davlat siyosatiga aylandi. Xususan, oliy ta’lim bilan qamrov darajasi 25 foizdan oshdi. Oliy ta’lim muassasalari soni qisqa muddatda 78 tadan 157 taga yetkazildi. Sirtqi va masofaviy ta’lim shakllari, ilmiy darajalarga ega professor-o‘qituvchilar maoshiga 60 foizgacha ustama haq to‘lash tizimi joriy etildi.

Har qanday inson kapitalining mukammalligi uning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lgan ta’lim sifatiga bevosita bog‘liq. Zamonaviy oliy ta’limga alohida urg‘u berilar ekan, endi diplomli mutaxassis emas, balki raqobatbardosh, malakali va irodasi mustahkam, yangi davr ruhiga mos fazilatlarga ega kadrlarga har joyda talab yuqori.

Jamiyatda ta'lim darajasi qanday holatda taraqqiy etgan bo'lsa, milliy iqtisodiyotda shunga mos kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan xodimlar faoliyat ko'rsatishadi va shunga muvofiq iqtisodiy o'sishga erishiladi. Ta'lim sohasi iqtisodiy o'sishga erishishning imkoniyati bo'lib hisoblanadi. Mamlakatda ta'lim tizimining iqtisodiy o'sishga ta'siri ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan. Shu jumladan, A.O. Ochilov ilmiy tadqiqotlari natijasida mamlakatda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari sonining ortishi mamlakat YAIM ko'rsatkichiga to'g'ri proporsional ekanligini isbotlagan [11].

Mamlakatda ta'lim bilan bir qatorda sog'liqni saqlashga mablag' ajratish ham muhim ahamiyatga ega. Bu sarmoyalar kasalliklar va o'limning qisqarishiga, inson umrining mehnatga layoqatli qismining uzayishiga, shu bilan bir qatorda, inson kapitalining faoliyat ko'rsatish muddatining uzayishiga olib keladi.

Inson salomatligining holati – bu, tabiiy kapital bo'lib, bir qismi meros sifatida, boshqa qismi esa insonning o'zi va jamiyatning xarajatlari natijasi sifatida ta'minlanadi. Sog'liqni saqlash bilan bog'liq bo'lgan sarmoyalardan maqsadli va asosli foydalanish insonning hayoti davomida inson kapitalining yemirilish jarayonini sekinlashtiradi.

Inson kapitali aktivlarini yaratishda alohida kompaniyalar, tashkilotlar va firmalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular ko'pincha shu kapitalning eng ta'sirli ishlab chiqaruvchilari sifatida namoyon bo'ladi, chunki ular shaxsni tayyorlashdagi ehtiyojlarga mos sharoitga hamda ta'lim va tayyorgarlikka mablag' ajratishning ilg'or yo'naliishlari haqida axborotga ega. Ammo firmalar sarmoyalar sof daromad keltirguniga qadar sarmoya kiritishni davom ettirishadi.

Inson kapitaliga sarmoyalar oila doirasida ham juda muhim, chunki inson kapitalining hosil bo'lishi va ko'payishi oilaning o'z farzandiga mablag' ajratishiga bevosita bog'liqdir. Bir tomondan farzand otona uchun o'z hayotidan qoniqishi va mammuniyatining asosiy manbai bo'lsa, ikkinchi tomondan esa farzand tarbiyasi aniq va noaniq xarajatlarni manbai hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda har qanday sarmoyalar bozori kabi inson kapitali bozori ham kamchiliklardan xoli emas:

- aholining katta qismida o'ziga sarmoya kiritish uchun mablag' yetishmaydi;

- yoshlar o'rtasida ta'limning qadri, jamiyatdagi o'rni va roli, ahamiyati va dolzarbliги to'g'risidagi ma'lumotlarning yetishmasligi inson kapitaliga yetarli darajada sarmoyalar kiritilmasligida yoki noto'g'ri sarmoya kiritilishiga zamin yaratadi;

- ish kuchining nisbatan ko'p bo'lishi yoki erkin harakatlanishi ish beruvchilarni ishchi kuchini taraqqiy ettirishga mablag' sarflashga intilishlarini kamaytiradi.

Inson kapitaliga sarmoyalar bozorining bu va ayrim boshqa kamchiliklari tufayli bozor mexanizmlari o'z-o'zidan buni eng maqbul tarzda tartibga soladi, degan fikr asosli emas. Shunga muvofiq ham davlatning inson kapitaliga sarmoyalar kiritishda bevosita ishtirok etishi nixoyatda muhim hisoblanadi.

Inson kapitali omili uning ma'lumot darajasiga ham to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Zero, yangi asrda insonning ma'naviy qiyofasini bilim va qobiliyatlar belgilaydiki, buni insonni oliy qadriyat deb biladigan jamiyatdagina ta'minlash mumkin.

Inson kapitalini oshirish – innovatsiyalarni rivojlantirishning muhim omilidir.

Mamlakatda aholining intellektual salohiyati yuqori darajaga ko'tarilishi iqtisodiyot real sektorida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga zamin yaratadi. Natijada jamiyat a'zolari ehtiyoji qondirilishi doimiy ravishda ta'minlanib boriladi.

Daromadi aholi jon boshiga taqsimlaganda, eng yuqori darajaga ega dunyo mamlakatlari orasida tabiiy zahiralari nihoyatda kam davlatlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Shveytsariya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Daniya va boshqa shu kabi mamlakatlarni shular qatoriga kiritish mumkin. Shuningdek, jahonda tabiiy zaxiralarga juda boy bo'lgan bir qator mamlakatlar ham borki, bu mamlakatlar daromadlarini aholi jon boshiga hisoblaganda, ko'rsatkichi birmuncha past ekanligini ko'rishimiz mumkin. Braziliya, Rossiya, Argentina, JAR va boshqa davlatlar shular

jumlasidandir. Bu holat shundan dalolat beradiki, mamlakat taraqqiyoti mehnat kishisining yaratuvchanlik kuchini safarbar etishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Har bir jamiyat a’zosining mehnat hissasi evaziga mamlakatni yuksaltirish mumkinligi Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniya mamlakatlari tajribasida ko‘rinadi.

Jahon banki va Jahon iqtisodiy forumi ekspertlari 124 mamlakatda amalga oshirgan tadqiqotlari natijasidan quyidagi xulosalarini e’tirof etishmoqda:

iqtisodiy o’sish umumiyligi miqdorining 64,0% dan ko‘prog‘i inson kapitali bilan bog‘liqdir;

o‘tish iqtisodiyotiga ega davlatlarda mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati iqtisodiy o’sish umumiyligi miqdorining faqat 16,0 % ni ta’minlaydi;

mamlakatning tabiiy resurslari iqtisodiy o’sish umumiyligi miqdorining faqat 20,0% gacha bo‘lgan qismini ta’minlaydi.

## 5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, inson kapitali individning imkoniyatlari bilan bog‘liq va o‘zini ko‘rsatish imkoniyatlarini inson kapitali bazasini xalqning chuqur madaniyatini tashkil etadi. Inson kapitali tobora jamiyat boyligining aqliy jihatlariga, inson omiliga, uning jamiyat hayotidagi o‘rniga va ahamiyatiga e’tibor berishni talab etmoqda. Insoniyatning bugungi eng buyuk yutuqlari va muvaffaqiyatlari ham inson kapitali omili ta’sirida yuz bermoqda.

Yangi O‘zbekistonning Yangi taraqqiyot davri – 3-renessans poydevorini ham inson kapitalini rivojlantirish asosida qurilishiga tayyorgarlik ko‘rilayotganligi hozirgi jamiyat hayotida inson kapitalining o‘rni va ahamiyatini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-60. 2022 yil 28 yanvar. Manba: lex.uz
2. Quronov M. Inson kapitali maktabda yaratiladi. 2018 yil 23 iyul. Manba: <http://www.marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/1486.htm>
3. Экономическая энциклопедия / Гл. ред. Абалкин Л.И. – М., 1999. – С. 271.
4. Петти В. Экономические и статистические работы / Петти В. Том 1. – М.: Соцэкиз, 1940. – С.156.
5. Marshal A. “The pure theory of foreign trade and the pure theory of domestic values. – L., 1879”, Маршал А. Принципы экономической науки. – М.: Прогресс, 1993. – С. 294.
6. Shuls T.U. “An‘anaviy agrar sohasining transformatsiyasi” (“Transforming Traditional Agriculture”, 1964); Shultz T. Human Capital, family planning and their effects on population growth // American Economic Review, 1994. May. – P. 45.
7. Akromova Sh.G. O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyot shakllanishi sharoitida inson kapitalining rivojlanishi. – Т.: Iqtisod-Moliya., 2003. – В. 16.
8. Шабирова Л.И. Образование как фактор развития. /Население Узбекистана: 15 лет независимого развития. – Т., 2007. – С 88-94.
9. Основные макроэкономические тренды Узбекистана. Информационно-аналитический обзор. Институт прогнозирования и макроэкономических исследований. Министерство экономики и промышленности. – Ташкент: 2019 г.
10. <http://istiqlol.samdu.uz/uzl/xxi/4>
11. Ochilov A.O. The Higher Education Dynamics and Economic Growth: The Case of Uzbekistan // Journal of Management Value & Ethics. – India, 2017. – Vol. 7. – No. 2 (Apr.-June). – P. 46-53.

## VI. BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT

UDK: 336.225.673

### QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING NOL DARAJALI STAVKADAGI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Djalilov Rahmonkul Hamidovich - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti katta o'qituvchisi

### ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ РАСЧЕТА НУЛЕВОЙ СТАВКИ НАЛОГА НА ДОБАВЛЕННУЮ СТОИМОСТЬ

Джалилов Раҳмонкул Ҳамидович - Старший преподаватель  
Каршинского инженерно-экономического института

### ISSUES OF IMPROVING THE CALCULATION OF THE ZERO RATE OF VALUE ADDED TAX

Djalilov Rakhmonkul Khamidovich - Senior Lecturer of the  
Karshi Engineering and Economic Institute

**Annotasiya.** Ushbu maqolada soliq tizimida raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq sohasida amalga oshirilayotgan siyosatning qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish mexanizmlariga ta'siri o'r ganilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqamli iqtisodiyot, soliq tizimi, soliq nazorati, soliq ma'muriyat chiligi, qo'shilgan qiymat solig'i, elektron hisobvaraq-faktura, raqamli soliqqa tortish.

**Аннотация.** В данной статье исследуется влияние политики, реализуемой в налоговой сфере в условиях цифровой экономики в налоговой системе, на механизмы учета налога на добавленную стоимость.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, налоговая система, налоговый контроль, налоговое администрирование, налог на добавленную стоимость, электронное выставление счетов, цифровое налогообложение.

**Abstract.** This article examines the impact of the policy implemented in the tax sphere in the digital economy in the tax system on the mechanisms for accounting for value added tax.

**Key words:** digital economy, tax system, tax control, tax administration, value added tax, electronic invoicing, digital taxation.

#### 1. KIRISH

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ko'plab sohalar singari buxgalteriya hisobi sohasida ham islohotlar olib borilmoqda. Ushbu sohani rivojlantirish maqsadida bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-con farmoni [1] va 2020 yil 24 fevraldag'i "Moliyaviy hisobotning

xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlap to'g'risida"gi PQ-4611-son qarorida [2] mamlakatimizda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobning xalqaro standartlari bosqichma-bosqich o'tkazish hamda moliyaviy va soliq hisoblarini uyg'unlashtirish vazifasi belgilab berilgan edi. Ushbu vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan MHXSlari o'zbek tiliga tarjima qilindi va 2021 yildan boshlab yirik xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini

xalqaro standartlar asosida yuritmoqda va moliyaviy hisobotlarni tuzishmoqda.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga o‘tgan yuridik shaxslar 2020 yil 20 oktyabrdan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 3221-1 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan “Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorga [3] qo‘srimchalar kiritish asosida soliq hisobotlari, shu jumladan, qo‘silgan qiymat solig‘i bo‘yicha hisobot shakllari MHXS lariga yaqinlashtirildi.

## 2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qo‘silgan qiymat solig‘i hisobini yuritishda MHXS asosida tashkil etishda bir qancha xalqaro standartlaridan foydalaniladi.

Xalqaro amaliyotda qo‘silgan qiymat solig‘i buxgalteriya hisobining obyekti sifatida hisobga olishda bir nechta MHXSlardan foydalaniladi, jumladan, MHXS (IFRS) 5 - “Sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar”, MHXS (IFRS) 13 - “Haqqoniy qiymatni baholash”, BHXS (IAS) 2 - “Tovarmoddiy zaxiralar”, BHXS (IAS) 7 - “Pul mablag‘lar harakati to‘g‘risidagi hisobot”, BHXS (IAS) 8 - “Hisob siyosati, hisob baholashlardagi o‘zgarishlar va xatolar”, BHXS (IAS) 11 - “Qurilish shartnomalari”, BHXS (IAS) - 12 “Foya soliqlari”, BHXS (IAS) 16 - “Mulk (yer), bino, mashina va asbob-uskunalar”, BHXS (IAS) 17 - “Ijara”, BHXS (IAS) 19 - “Xodimlarning daromadlari”, BHXS (IAS) 28 - “Qaram tadbirkorlik subyektlaridagi va qo‘shma korxonalardagi investisiyalar”, BHXS (IAS) 36 - “Aktivlarning qadrsizlanishi”, BHXS (IAS) 38 - “Nomoddiy aktivlar”, BHXS (IAS) 39 - “Moliyaviy instrumentlar” standartlardan. Shuningdek, qo‘silgan qiymat solig‘i buxgalteriya hisobini tashkil etishda 15-son MHXS «Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha tushum» nomli standart qo‘llaniladi.

Respublikamiz hukumati tomonidan so‘nggi yillarda qabul qilingan hujjatlardan

ko‘rinib turibdiki, qo‘silgan qiymat solig‘i hisobini xalqaro tan olingan standartlar asosida yuritish bugungi kunning dolzarb masalalardan hisoblanadi. Qo‘silgan qiymat solig‘i hisobini takomillashtirish borasida ko‘pchilik iqtisodchilar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

K.M.Misirov “Bilvosita soliqlarning moliyaviy hisobi va auditini takomillashtirish” mavzusidagi dissertasiyasida qo‘silgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ining moliyaviy hisobini takomillashtirish muammolarini o‘rgangan va yechimi sifatida bir qator takliflar berган [4]. Ushbu ilmiy ishda qo‘silgan qiymat solig‘ining moliyaviy hisobini amaldagi foydalananilayotgan schyot faktura shaklini takomillashtirish asosida QQS bazasini aniqlashtirish masalalari yoritilgan.

K.R.Xotamov o‘zining ilmiy-tadqiqot ishlarida qo‘silgan qiymat solig‘i bilan bog‘liq bir qator masalalarni tadqiq qilgan. Jumladan, mahsulotlar eksportini tasdiqlash, soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish va uning natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish, qo‘silgan qiymat solig‘i bo‘yicha nol darajali stavkani qo‘llash, avtomatlashtirilgan tizimda hujjatlar asosida soliq auditini o‘tkazish metodikasini va bilvosita soliqlarni hisobga olish, hujjatlarda aks ettirish va jarayonlarning schyotlardagi bog‘lanishlarini amaliy va uslubiy asoslangan holda takomillashtirish va boshqalar.

K.R.Xotamovning ta’kidlashicha: hisobda buxgalteriya yozuvlarining mohiyatan to‘g‘ri berilishi hisob-kitob ishlaridagi chalkashliklarni bartaraf etadi, moliyaviy va soliq hisobotlarni tuzishda xatoliklarga yo‘l qo‘yilmasligini ta’minlash maqsadida ortiqcha to‘langan bilvosita soliqlar summalarini qaytarilishini 6410 - “Budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar (turlari bo‘yicha)” schyotidan emas, taklif qilingan 4420 - “Budgetga ortiqcha to‘lovlar” schyotidan qaytarish taklifi berilgan (1-jadval).

## 1-jadval

**Nol darajali stavkani qo'llash bo'yicha operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi [5]**

t/r	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	21-son BHMC asosida		Berilayotgan taklif asosida	
		Dt	Kt	Dt	Kt
1.	Xom-ashyo va materiallar sotib olinganda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga (eksport korxonalarida)	4410*	6010	4420	6010
2.	Nol darajali stavkani qo'llash bo'yicha budgetdan mablag'ning qaytarib olinishiga	5110	6410	5110	4420
3.	Nol darajali stavkani qo'llash natijasida hosil bo'lgan summani boshqa soliqlar bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish uchun yo'naltirganda	6410	4410	6410	4420
4.	Tovarlar eksporti tasdiqlanmaganda to'liq hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga	-	-	9430	6410
5.	Tovarlar eksporti tasdiqlanmaganda ilgari xom-ashyo va materiallar sotib olinganda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasining hisobga olinishiga	-	-	6410	4420
6.	Tovarlar eksporti tasdiqlanmaganda budgetdan bo'lgan qarzdorlik hisob-kitob schyotidan o'tkazib berilganda	-	-	6410	5110

Sotilgan tovarlar bo'yicha hisoblashishlar amalga oshirilganidan keyin ma'lum bir sabablarga ko'ra qaytarilgan tovarlar va ular bo'yicha to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini buxgalteriya hisobida aks ettirish jarayonida sotilgan mahsulotning puli to'langanligi yoki to'lanmaganligiga e'tibor qaratish lozim hamda hisob-kitob qilinganligiga qarab buxgalteriya hisobi aks ettirish maqsadga muvofiqdir.

A.B.Abdullayev o'zining ilmiy-tadqiqot ishlarida qo'shilgan qiymat solig'i hisobini takomillashtirishda asosan elektron hisobvaraqt-fakturalarga urg'u bergen [6].

Bugungi kunda elektron shakldagi hisobvaraqt-fakturalardan amaliyatda qo'llash natijasida:

tadbirkorlik subyektlari uchun elektron hisobvaraqt-fakturani rasmiylashtirish tartibi osonlashadi hamda vaqt sarfi kamayadi;

qo'shilgan qiymat solig'ining to'g'ri hisoblanishi va budgetga o'z vaqtida undirilishini tezkor nazorat qilish imkoniyatini yaratiladi;

qo'shilgan qiymat solig'ini budgetdan qaytarib olish tartiblari yengillashtiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan elektron schyot-fakturalardan foydalanish natijasida hisob-fakturalarni soliq

hisobotlarida aks ettirmaslik holatlari, import qilingan tovarlar uchun bojxonada to'langan QQS summalarini ortiqcha miqdorda hisobga olish evaziga QQS summasini kamaytirish holatlari, hisob-fakturalarni qalbakilashtirish, QQS to'lovchi bo'limgan korxonalar hisobiga QQS summasini hisobga olish, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ochish holatlarining oldi olinadi va bu esa soliq siyosatini takomillashuvi hamda iqtisodiyotda xufiyona aylanma darajacini qisqarishiga olib keladi.

F.A.Akramovning ilmiy-tadqiqot ishlarida qo'shilgan qiymat solig'i auditini takomillashtirish masalalarini o'rghanishda, qo'shilgan qiymat solig'i hisobining ba'zi masalalarini yoritib bergen. Taftishchilar tomonidan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobotlarda ko'psatilgan soliq bazasiga tuzatish kiritilishini tekshirishda tuzatishlarning hujjatlarda asoslanganligi o'rghaniladi. Shuningdek, bu opepatsiyalarini buxgalteriya hisobining boshlang'ich hujjatlari va schyotlariga to'g'ri olib borilishi aks ettirilganligi tekshiriladi [7].

Bizning fikrimizcha, yuqoridaqil ilmiy ishlarda raqamli iqtisodiyot sharoitida qo'shilgan qiymat solig'i hisobining o'ziga xos xususiyatlari atroflichha hisobga olinmagan. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i hisobini

MHXS-lariga transformasiya qilish jarayonidagi muammolar yoritilmagan.

Respublikamizda buxgalteriya hisobini MHXS o'tkazish va transformatsiya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldag'i PQ-4611-soni "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustdag'i 507-soni "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari qabul qilingan[8].

### 3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimiz metodologiyasi bo'lib, soliq siyosati va qo'shilgan qiymat solig'i hamda soliq imtiyozlari bo'yicha iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi. Soliq imtiyozlari

bo'yicha nazariy asoslar umumlashtirildi hamda uning hisobini MHXS asosida takomillashtirish tadqiq qilindi. Tadqiqot jarayonida amaliy materiallarni taqqoslash va guruhash kabi usullardan foydalanilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

### 4. ASOSIY TAHILLAR VA NATIJALAR

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olishdagi asosiy boshlang'ich hujjat hisobvaraq-faktura bo'lib hisoblanadi va u O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 47-moddasida o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining qo'shilgan qiymat solig'i bilan bog'liq ba'zi normalar buxgalteriya hisobida qanday tartibda aks ettirilishini ko'rib chiqamiz. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olishda ishtirok etadigan schyotlar quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

**2-jadval**

#### Qo'shilgan qiymat solig'ini buxgalteriya hisobida aks ettirishda ishtirok etadigan schyot tizimi [9]

Schyotning raqami	Schyotlar nomi
4010	Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar
4310	TMQlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar
4410	Budgetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha bo'nak to'lovleri (turlari bo'yicha)
5110	Hisob-kitob schyoti
5210	Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari
5220	Chet eldag'i valyuta schyotlari
5510	Akkreditivlar
6010	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar
6240	Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar
6310	Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar
6410	<b>Budgetga to'lovlar bo'yicha qarz: QQS bo'yicha qarz</b>
7010	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar
7310	Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar
9010	Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar
9020	Tovarlarni sotishdan daromadlar
9030	Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar
9040	Sotilgan tovarlarning qaytishi
9110	Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi
9120	Sotilgan tovarlarning tannarxi

Biz xo'jalik yurituvchi subyektning hisob tizimida qo'shilgan qiymat solig'i bilan bog'liq bo'lgan operasiyalarning buxgalteriya hisobi schyotlarida qayd qilib borish jarayonlarini yoritib berishdan voz kechgan holda, BHMS-21 keltirilmagan operasiya-

larning ba'zilarini ochib berishga harakat qilamiz.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 239-moddasida tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilish bo'yicha aylanmaga tovari bepul berilishini kiritish

tartibi belgilangan. Ushbu jarayonlarni aks ettirish bilan bog'liq qo'shilgan qiymat solig'i

buxgalteriya hisobi schyotlarida quyidagicha aks ettiriladi.

### 3-jadval

#### Bepul berilgan mahsulot va tovarlarga tegishli QQS hisoblashni schyotlarda aks ettirish

№	Xo'jalik operasiyalari mazmuni	Buxgalteriya yozuvlari		
		Summa (ming so'm)	Schyotlar korrespondensiyasi	
			Dt	Kt
1.	Xarid qilingan tayyor mahsulotlarning qiymati hisobdan chiqarishida	2 500 000	9110	2810
2.	Xarid qilingan tovarlarning qiymati hisobdan chiqarishida	1 500 000	9120	2910
3.	Xarid qilingan tayyor mahsulotlarga tegishli QQS summasiga	300 000	9110	6410
4.	Xarid qilingan tovarlarga tegishli QQS summasiga	180 000	9120	6410
5	QQS budjetga to'lab berilishida	480 000	5110	6410

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zining hisob siyosati bilan tasdiqlangan ishchi schyotlar rejasiga qo'shilgan qiymat solig'i 6420 - "Budgetga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qarz" schyotda hisobga olinishi belgilab qo'yishlari mumkin. Masalan, tayyor mahsulotning realizasiyasini quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan aks ettiriladi:

DT schyot 4010 - "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar";

Kt schyot 9010 - "Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar".

Ushbu operasiya bilan bog'liq qo'shilgan qiymat solig'i summasiga quyidagi buxgalteriya yozushi amalga oshiriladi:

DT schyot 4010 - "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar";

Kt schyot 6420 - "Budgetga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qarz"

Qo'shilgan qiymat solig'ida nol darajali stavkani qo'llash hisobini to'g'ri tashkil etish va ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlash maqsadida 6420 "Budgetga qo'shilgan qiymat solig'i to'lovleri bo'yicha qarz" schyoti bo'yicha quyidagi ishchi schetlarni ochish va ularni schyotlar rejasiga kiritishni tavsiya qilamiz:

6420 - schyot - "12% stavkada sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarga QQS";

6421 - schyot - "0% stavkada sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarga QQS".

Schyotlarning harakatlanishini quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari orqali ko'rishimiz mumkin.

### 4-jadval

#### Xo'jalik yurituvchi subyektda sotilgan mahsulot va tovarlarga tegishli QQS hisoblashni schyotlarda aks ettirilishi, ming so'mda

№	Xo'jalik operasiyalari mazmuni	Soni	Narxi	Summasi	QQS stavkasi	QQS summasi	Jami QQS bilan birga
1	Mahsulot realizasiya qilindi	15	5000	75000	12	9000	84000
2	Ish bajarildi	1	10000	10000	0	0	10000
	<b>Jami</b>	<b>16</b>		<b>85000</b>		<b>9000</b>	<b>94000</b>

Tayyor mahsulotning sotilishi quyidagi buxgalteriya yozushi bilan aks ettiriladi:

DT schyot 4010 -“Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar” 85 000 ming so‘m;

Kt schyot 9020 -“Tovarlarni sotishdan daromadlar” 85 000 ming so‘m.

Bu operasiya bilan bog‘liq QQS summasiga quyidagi buxgalteriya yozuvi tuziladi:

DT schyot 4010 - “Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar” 9 000 ming so‘m;

Kt schyot 6420-“12% stavkada sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarga QQS” 9 000 ming so‘m;

Kt schyot 6421-“0% stavkada sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarga QQS” 0 so‘m.

Bu o‘zgarishlar qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq hisobotlarini tuzishni

osonlashtiradi va soliq nazoratini kuchaytiradi.

## **5. XULOSA VA TAKLIFLAR**

Yuqoridagilarga asosan xulosa qiladigan bo‘lsak, soliq imtiyozlarining buxgalteriya hisobini MHXSlari talablari asosida yuritish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda qo‘shilgan qiymat solig‘ini 6420-“12% stavkada sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarga QQS”, 6421-“0% stavkada sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarga QQS” schyotlarda hisobini yuritish natijasida, qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobi xo‘jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya hisobida aniq va shaffof tarzda olib borilishini ta’minlaydi hamda qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq hisobotlarini tuzishni osonlashtiradi va soliq nazoratini kuchaytirish imkonini yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyaci to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2020 yil 30 sentabrdagi «Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorga qo‘srimchalar kiritish haqida 2020-38-son qarori. [O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 20 oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3221-1].
4. Misirov K.M. “Bilvosita soliqlarning moliyaviy hisobi va auditini takomillashtirish” mavzusidagi dissertasiysi avtoreferati.Toshkent, 2010.
5. Xotamov K.R. “Bilvosita soliqlar hisobi, tahlili va auditini takomillashtirish” i.f.d. dissertatsiyasi avtoreferati, T.: 2016 y.16 b.
6. Abdullayev A.B. Soliq to‘lovleri hisobi va tahlilini takomillashtirish. Avtoreferat. 2020.
7. Akramov F.A. Soliq xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish. Avtoreferat. 2022.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustdagи 507-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaror.
9. BHMS №21.
10. my.soliq.uz
11. Djalilov, R. (2023). Sovershenstvovaniye rascheta lgot po nalogu na dobavlennyu stoimost. *Economics and Education*, 24(2), 272–278. [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss2/a42](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a42).

## VII. MOLIYA, KREDIT VA INVESTITSIYA

**UDK: 336.71**

### **HUDUDLARINI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH DASTURLARINI MOLIYALASHTIRISH YO'NALISHLARI**

**Farrux Abrayev** – O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi magistranti

### **НАПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРОГРАММ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА**

**Фаррух Абраев** – магистрант Финансово-банковской  
Академии Республики Узбекистан

### **SOCIAL-ECONOMIC DEVELOPMENT PROGRAMS OF THEIR FUNDING DIRECTIONS TERRITORIES**

**Farrukh Abraev** - graduate student of the Academy of  
Banking and Finance of the Republic of Uzbekistan

**Annotasiya.** Ushbu maqolada hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirish dasturlariga yo'naltiriladigan mablag'lar samaradorligini oshirish maqsadida ushu xarajatlarga o'zgartirish kiritish vakolatini mahalliy kengashlar ixtiyoriga o'tkazish asosida nazoratni ko'chaytirish, mahalliy budgetlarning qo'shimcha daromad manbalaridan foydalanishda ustuvorlikni hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirish dasturlarini moliyalashtirishga qaratish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** hudud, ijtimoiy-iqtisodiy dastur, moliya, moliyaviy mablag', budget, mahaliy budget, qo'shimcha doramad, moliyaviy loyiha, moliyaviy hisobot.

**Аннотация:** В целях повышения эффективности использования средств, направляемых на программы социально-экономического развития регионов, рассматриваются вопросы усиления контроля на основе передачи полномочий по внесению изменений в эти расходы на усмотрение местных советов, сосредоточении приоритета на финансировании программ социально-экономического развития регионов при использовании дополнительных источников доходов местных бюджетов.

**Ключевые слова:** Территория, социально-экономическая программа, финансы, финансовые ресурсы, бюджет, местный бюджет, дополнительные доходы, финансовый проект, финансовый отчет.

**Abstract:** In order to increase the effectiveness of the funds directed to the socio-economic development programs of the regions, the issues of increasing the control based on the transfer of the authority to make changes to these expenses to the discretion of the local councils, focusing the priority on the financing of the socio-economic development programs of the regions in the use of additional sources of income of the local budgets are covered in this article.

**Key words:** Territory, socio-economic program, finance, financial resources, budget, local budget, additional revenue, financial project, financial report.

#### **1. KIRISH**

Dunyoda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirish dasturlarini moliyalashtirish natijadorligi va samaradorligini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirish dasturlarini moliyalashtirishni nazoratni tashkil etish va respublika va

mahalliy budgetlar mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Osiyo taraqqiyot banki ma'lumotlariga ko'ra, "Markaziy Osiyo davlatlari hududlar infratuzilmasini yaxshilash maqsadlariga har yili 33 mlrd.dollar yoki YAIMning 6,8 foizini sarflashi, mintaqaning 2030 yilgacha infratuzilmaga bo'lgan talablarni qondirishga xizmat qiladi" [1].

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtirishga sarflangan mablag'lar shaffofligini ta'minlash, hududlarda kichik biznes subyektlari uchun infratuzilmani yaratib berish orqali hududda sanoat ishlab chiqarishni oshirish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

“... hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni moliyalashtirish uchun mahalliy budgetlarning mablag'lari yetarli emas”, - deb ta'kidlangan [2]. Mazkur da'vatni hal etish hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va uzlusiz moliyalashtirish, sarflangan mablag'lar natijadorligi va samaradorligiga erishish dolzARB muammolardan biridir.

O'zbekiston Respublikasining “2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi (2019 y.) Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi PF-5075-sonli “Mahalliy budgetlarni shakllantirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining budget vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022 yil 10 dekabrdagi PQ-43-son “O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019 yil 7 iyundagi PQ-3042-son “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budget vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budget daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish to‘g‘risida”gi qarorlarida belgilangan vazifalarni muayyan darajada amalga oshirishga ushbu mavzuga xizmat qiladi.

## **2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI**

Mahalliy budgetlar iqtisodiy mohiyatini yoritishni mahalliy davlat boshqaruvi organlari, ular zimmasiga yuklatiladigan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar, mazkur vazifalarning mahalliy budget xarajatlari bilan o'zaro bog'liqligi, mahalliy davlat hokimiyati

faoliyatining asosiy manbai hisoblangan mahalliy budgetlar tushunchasi, ular xarajatlari belgilanishi yuzasidan ilmiy qarashlar mayjud.

Mahalliy iqtisodchi olim A.O'lmasov fikricha, “Iqtisodiyot bu kishilarning moddiy va nomoddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatadir” [3].

Kishilar o'z moddiy va nomoddiy ehtiyojlarini qondirishlari uchun davlat tegishli shart sharoit yaratishi lozim. Bir so‘z bilan aytganda, davlat fuqarolarni muayyan ijtimoiy ne'matlar bilan ta'minlashi talab etadi. Mazkur ta'minotni amalga oshirish maqsadida davlat yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotni taqsimlash orqali o'z ixtiyorida markazlashtirilgan pul mablag'lari – budgetni shakllantiradi va uni ishlatadi. Davlat budgeti davlatning tuzilishiga ko‘ra bo‘g‘inlarga ajratiladi.

Fransuz faylasufi Prudon fikriga ko‘ra, davlat xarajatlari zaruriyatidan kelib chiqib cheklanishi, buning uchun mezon sifatida u yoki bu davlat xizmatiga bo‘lgan talab va mamlakatdagi fuqarolarning zimmasiga tushadigan soliq yuki inobatga olinishi kerak [4]. Uning fikricha, davlat xizmatlaridan olinadigan foyda har qanday holatda ham majburiy tartibda emas balki bevosita va bilvosita tartibda quyidagi moddalar ko‘rinishida davlat kreditlari: maqsadli, maqsadsiz, real; axborot berish yo‘llari; tog‘-konlari; dok‘lar, bandargohlar va boshqa; suvlar va o‘rmonlar (ushbu xarajatlarga zaxni qochirish, sug‘orish bilan bog‘liq xarajatlar va b. kiritiladi); pochta va telegraf va quroslasha va o‘q-dori ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar keltirilishi maqsadga muvofiqdir deb hisoblaydilar.

Yana bir fransuz iqtisodchi olimi Sey davlat xarajatlarini real va soxta xarajatlarga ajratgan. Uning fikricha, moliyaning holati ikkinchisiga nisbatan teskari munosabatda bo‘ladi. Biroq shubhasiz ko‘rsatilgan mezon davlat xarajatlari xususiyatlari va darajasini aniqlash uchun yetarli emas [5]. Lekin, keltirilib o‘tilgan ko‘rsatkichlar davlat ehtiyojlaridan kelib chiqib, uning asosiy shart-sharoitlarini hisobga olgan holda

<sup>1</sup> Kemalar tuzatiladigan korxona

aniqlanadigan davlat xarajatlarining miqdori va ahamiyatini aniqlash uchun yetarli emas, albatta.

Budget mablag‘lari borasida fikr yuritar ekanmiz, iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida budget mablag‘laridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Buyuk alloma Abdulla Avloniy “Iqtisod deb pul va mol qadrini bilmoqqa aytilar” deya ta’kidlagan [6].

Budget xarajatlarining tarkibi va uning tuzilmasi haqida fikr yurita turib o‘zbek iqtisodchi olimlari T.S.Malikov va N.X.Xaydarovlar shunday deydi “Budget xarajatlarining tarkibi va uning tuzilmasi davlatning tabiatiga, u tomonidan bajarilayotgan funksiyalarga, milliy xo‘jalikning ehtiyojlariga bog‘liq hamda budget mexanizmi orqali ishlab chiqarish va iste’molning ba’zi bir omillariga davlatning ta’sirchanligini ta’minalash kabilar bilan belgilanadi” [7] deb hisoblashadilar.

### **3. TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqot jarayonida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga yo‘naltiriladigan mablag‘lar samaradorligini oshirish maqsadida ushbu xarajatlarga o‘zgartirish kiritish vakolatini mahalliy kengashlar ixtiyoriga o‘tkazish asosida nazoratni ko‘chaytirish masalalari qiyosiy fikrlash, induksiya va deduksiya hamda abstraksiya usullaridan keng foydalanilgan.

### **4. ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR**

Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining asosiy moliyaviy bazasini mahalliy budgetlar tashkil qiladi. Mahalliy budgetlar milliy daromadni ko‘p pog‘onali qayta taqsimlash mahsulini aholiga yetkazishning asosiy dastaklaridan biri hisoblanadi. Mahalliy budgetlardan ma’lum darajada mahalliy ishlab chiqarish tarmoqlari, kommunal xo‘jalik, hududni obodonlashtirish, keng aholi qatlamlarining normal hayotiy faoliyatini ta’minalovchi xizmatlarni amalga oshiruvchi boshqa bir qator soha va tarmoqlar xarajatlari moliyalashtiriladi.

Mahalliy budgetlar davlat budgetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasi bo‘lib, O‘zbekistonda ikki pog‘onali budget

tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Mahalliy budgetlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo‘ladi. Ular haqida quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

- mahalliy davlat boshqaruvi organlari faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etuvchi pul fondlarini shakllantirish;

- pul fondlarini hududiy iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar o‘rtasida qayta taqsimlash va ishlatish;

- mahalliy davlat boshqaruvi bo‘ysinuvchi korxona, tashkilot va muassasalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ustidan nazorat olib borish.

Mahalliy budgetlardan xo‘jalik jarayonlarini tartibga solish, iqtisodiyotga ta’sir o‘tkazish, ta’lim va madaniyatni rivojlantirish, ijtimoiy masalalarni hal etish, aholi bandligini ta’minalash va boshqa shu kabi muammolarni hal etishda foydalaniladi.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida iqtisodchi olimlar tomonidan ilgari surilgan g‘oya va fikrlar asosida mahalliy budgetlar xarajatlarini belgilashning nazariy asoslari bilan tanishamiz.

Davlat xarajatlarini belgilashning ikkinchi sharti sifatida shuni qayd etish mumkinki, xarajatlar davlat va jamiyat uchun foydali va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan barcha zaruriy xizmatlar omma uchun birdek barobar bo‘lishini taqozo etadi. Har bir davlat adolatli va oqilona ichki siyosatni yuritishda faqat aholining boy qatlamigagina qulay bo‘ladigan ta’lim va sud tizimini shakllantirmasdan balki barcha uchun qulay bo‘ladigan tartibni belgilashi maqsadga muvofiq. Buning uchun, umumahamiyatga ega, muassasa ta’moti bo‘yicha alohida xarajat moddalari miqdorini aniqlash chog‘ida maksimal darajada iqtisod qilinishi o‘rinli hisoblanmaydi.

Vaholanki, hisob-kitob shuni nazarda tutadiki, ushbu turdagи muassasalarini ta’minalash mazkur xizmatdan foydalanuvchilar badallari hisobiga qoplanadi. Barcha fuqarolar tomonidan beminnat foydalaniladigan davlat xizmatlarining turli-tumanligi va ko‘p sonliliği davlatning o‘z xo‘jaligi sohasidagi vazifalarini to‘liq

bajarish imkonini beradi. Davlat xo‘jaligi sohasi doirasida ko‘rsatiladigan xizmatlar miqdoridan kelib chiqib emas, balki uning ahamiyatiga qarab xarajat miqdori aniqlanadi, bu shuni bildiradiki, davlat xarajatlari yoyilmasini tuzish asosi odatda xarajatlar hisobiga qarab daromadlar hisobi tuziladi.

Va nihoyat uchinchi sharti, xarajatlar moddalarini aniqlash ko‘rsatiladigan xizmatlar miqdori va sifatiga to‘g‘ri proporsional tarzda taqqoslanadi, hamda bu xizmatlarni taqqoslama baholash davlat, jamiyat va shaxs manfaatlari, ular o‘rtasidagi to‘g‘ri o‘zaro munosabatlar nuqtai nazaridan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Davlat xarajatlari umumdavlat yoki mahalliy ehtiyojlarni qondirishiga bog‘liq holda markaziy va mahalliy xarajatlarga ajratiladi. Mahalliy xarajatlar davlat va jamiyat, ya’ni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari (shaharlar, yerlar, obshinlar) dan kelib chiqib tuziladigan maxsus xarajatlar ro‘yxati so‘nggi kategoriyadagi xarajatlar uchun quyidagi qulayliklarni keltirib chiqaradi:

1) fuqarolar zimmasidagi og‘irlilik va undan olinadigan foya o‘rtasida to‘g‘ri munosabatni o‘rnatishning qulayligi;

2) og‘irlikning o‘sishiga fuqarolarning tayyorligi, unga mos ravishda sezilarli natijaning mavjudligi;

3) xarajatlarni ehtiyojlarning puxta baholanishi asosida aniqlanishi;

4) ehtiyojlar adolatli tarzda qondirilishi.

Bu kabi mahalliy avtonom organlar xarajatlari odatda quyidagi ucta kategoriya bo‘yicha jamlanadi:

1) markaziy davlat hokimiyati tomonidan o‘z maqsad va miqdorlari bo‘yicha aniqlanadigan majburiy xarajatlar. Shuningdek, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faqat ushbu xarajatlarni qoplash uchun qo‘srimcha mablag‘ izlab topishlari talab etiladi;

2) markaziy davlat hokimiyati tomonidan miqdor jihatidan emas, xarajatlar xususiyatidan kelib chiqib aniqlanadigan – majburiy xarajatlar. Mazkur xarajatlar

miqdori o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tomonidan aniqlanadi;

3) markaziy davlat hokimiyati aralashuviziz aniqlanadigan ixtiyoriy xarajatlar.

Mahalliy davlat hokimiyati bu kabi xarajatlarni tasdiqlash huquqini o‘z ixtiyorida qoldiradi va mahalliy soliqlarning yuqori miqdori xarajatlarni qoplay olish imkoniyatidan kelib chiqib aniqlanadi. Mahalliy davlat boshqaruv organlari xarajatlari majburiy va ixtiyoriy xarajatlarga ajratiladi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari birinchi darajali xarajatlarni qoplash uchun dastavval maksimal darajada o‘z daromadlarini shakllantirishi obektiv zarurat hisoblanadi. Jamiyat xarajatlari kategoriyasi davlat ahamiyatidagi ehtiyojlar uchun xarajatlarga mos kelishi talab etiladi.

Yuqoridagidan kelib chiqib, davlat xarajatlarini nazariy va amaliy jihatdan mos keladigan quyidagi 4 ta toifaga ajratish mumkin:

1) Yuqori boshqaruvni saqlash;

2) Keng ma’noda boshqaruvning shaxsiy tarkibini saqlash;

3) Moddiy xarajatlar;

4) Kreditlar bo‘yicha xarajatlar.

Mahalliy iqtisodchi olimlarning mahalliy budgetlar xarajatlari tarkibi bo‘yicha fikrlarini keltiramiz.

Ilmiy tadqiqotlarimiz jarayonida olib borilgan izlanishlarga tayangan holda, bizningcha, mahalliy davlat boshqaruvi organlari faoliyatining markaziy elementi sifatida mahalliy darajada hal qilinadigan masalalar, xususan mahalliy budget xarajatlari vakolatlarini belgilash namoyon bo‘ladi.

Har bir mahalliy hududda aholi turmush darajasining o‘sishi, iqtisodiyot tarmoqlarining amal qilishi uchun boshqaruv vakolatlarini eng maqbul tarzda chegaralash, ommaviy-huquqiy tuzilmalar o‘rtasida vakolatlar taqsimoti birinchi darajali muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqqan holda ommaviy-huquqiy tuzilmalar qonun bilan o‘rnataladigan masalalar yig‘indisi, jumladan tegishli davlat hokimiyati organi tomonidan qarorlar qabul qilish huquqiga ega bo‘lishini ifodalasa, vakolatlar taqsimoti ma’lum bir masalani hal etish yuzasidan huquqiy-

meyoriy hujjatlarni chop etish huquqini beradi.

Masalan, kommunal xizmat vakolatlarini chegaralash davlat va mahalliy hokimiyat boshqaruv organlari o'rtasida daromad manbalarining taqsimlanish proporsiyasi asosida aniqlanishini shart qilib ko'yadi.

Tahlillarning ko'rsatishicha, umumijtimoiy masalalarni hal qilish bo'yicha ijro hokimiyati javobgarligini aniqlashning qat'iy belgilangan qoidalari hanuzgacha nazariy jihatdan asoslanmagan va amaliyotda mavjud emas, shunga qaramasdan, xarajat vakolatlarini chegaralashning qator tamoyillari mavjudligini rad etmaslik lozim.

Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyatining hududda joylashgan aholining holatini bilishi hamda mahalliy aholi turmush farovonligini o'stirishning zaruriyatidan kelib chiqqan holda mahalliy moliyaning barqaror soliq bazasini shakllantirish va shunga mos ravishda ko'rsatiladigan xizmatlar majmuini taqdim etish yuzasidan mustaqil qaror qabul qilish imkoniga ega bo'lishini taqozo etadi.

Mahalliy davlat boshqaruv organlari huquq va vakolatlariga qaramasdan mustaqil faoliyat yuritishlari zarus. Bu bo'linmas javobgarlik prinsipini hisobga olishni ko'zda tutadi. Javobgarlikning bo'linishi huquqlarning kamayishini taqozo etadi, pirovardida turli darajadagi hokimiyatlar doirasida noto'g'ri rag'batning yaratilishi natijasida xato qarorlar yoki ularning bajarilmasligi holatlari bo'yicha bir-birini aybdor qilib ko'rsatishning avj olishiga sabab bo'ladi.

## 5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida qayd etish kerakki, barcha ijtimoiy xarakterdagи masalalar imkon darajasida bo'linmas javobgarlik tamoyiliga ko'ra chegaralanishi va uning oqibatida vakolatlar, xususan xarajat vakolatlari hamda ularni amalga oshirishda zarur bo'ladigan daromad manbalarining chegaralashni nazarda tutadigan hududiy muvofiqlik tamoyili amalga oshiriladi.

Vakolatlarni chegaralashda xizmatlar iste'molchilar yoki ijtimoiy ne'matlardan foydalanuvchilarining qamrab olinishi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Ommaboplilik tor doirada mahalliy moliyaning mustaqil tarzda mavjud bo'lishini taqozo etsa-da, qonunchilik bilan mahalliy hududlarda ijtimoiy faravonlikning minimal standartlari biriktiriladi.

Shu bilan birga, mahalliy moliyaga aniq vazifalarni biriktirish borasida so'z borganda birinchi navbatda ijtimoiy ne'matlarning ommabopligi mavjudligini e'tiborga olish maqsadga muvofiq. Darhaqiqat, mahalliy ne'matlardan nafaqat mahalliy hudud doirasida yashovchi aholi qatlami shu bilan birga ne'matlarning turi va aholini taklif qila olish hajmidan kelib chiqqan holda tashqi foydalanuvchilar miqdori ham o'zgarib turishi mumkin.

Mahalliy organlar huquqiga kiruvchi ne'matlardan tashqi foydalanuvchilar mavjud bo'lganda, ularni taqdim etishning bir qator usullarini keltirish mumkin:

- xizmatni taqdim etish bo'yicha mablag'larni to'liq qoplash doirasida foydalanuvchilardan xizmat uchun to'lovlarni undirish;
- xarajatlarni qisman qoplovchi mahalliy to'lovlar va yig'implarni undirish;
- qo'shni mahalliy organlar bilan ixtiyorli hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- yuqori turuvchi budgetlar bilan birgalikda moliyalashtirishni tashkil etish, jumladan "maqsadli transfertlar" ko'rinishida;
- mahalliy hokimiyatlarga nisbatan yuqori darajada funksiyalar (vakolatlar)ni berish.

Mahalliy davlat boshqaruv organlari javobgarligining chegaralarini, alohida xizmatlar bo'yicha mahalliy meyoriy hujjatlarning asosiy qonunlar bilan muvofiqligini, o'zgarmaslikni va biriktirishning uzoq muddatli xarakterini ko'zda tutadi.

**Foydalanimanadabiyotlar ro‘yxati:**

1. <https://adbi.us12.listmanage.com/track/click?u=7300634262c7cc5dc58dc5e3&id=5e64c53c34&e=bbb935aa1>
2. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent, 2017. <https://president.uz/uz/lists/view/187>
3. O‘lmasov A. Iqtisodiyot (qonun-qoidalar va tartib tamoyillar): Ommaviy qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2017. B.9/224.
4. (fr. Pierre-Joseph Proudhon) (15.01.1809-19.01.1865). Fransuz siyosatchisi, publisisti, iqtisodchisi, faylasuf -myutuuelisti va sosiologи bo‘lgan.
5. Jan-Batist Sey (5.01.1767-15.11.1832) – fransiz iqtisodchi olimi, siyosiy iqtisod klassik maktabi vakili.
6. Abdulla Avloniy Turkiy Guliston yoxud ahloq”. – T.: 1992. – B.33
7. Malikov T.S., Haydarov N.H. Budjet daromadlari va xarajatlari (o‘quv qo‘llanma) / Toshkent Moliya instituti. – Toshkent. 2007. – B.160

**UDK: 336.71.078.3**

## **ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ ПЕРЕВОДОВ И ПЛАТЕЖНЫХ СИСТЕМ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

**Нормаматов И.Б.** - доцент кафедры “Экономика” университета информационных технологий и менеджмента, соискатель Самаркандского института экономики и сервиса

## **FOREIGN EXPERIENCE IN FORMING FINANCIAL TRANSFERS AND PAYMENT SYSTEMS IN THE NEW UZBEKISTAN**

**Normamatov I.B.** - Associate Professor of the Department of Economics at the University of Information Technologies and Management, applicant at the Samarkand Institute of Economics and Service

## **YANGI O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY TRANSFERTLAR VA TO'LOV TIZIMLARINI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI**

**Normamatov I.B.** – Axborot texnologiyalari va menejment universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tadqiqotchisi

**Аннотация.** Обеспечение ликвидности и финансовой устойчивости компаний является одним из необходимых условий обеспечения их конкурентоспособности. Однако низкий уровень денежной обеспеченности экономики страны, дороговизна продукции под влиянием инфляции и девальвации препятствуют повышению ликвидности и финансовой устойчивости компаний. В статье обозначены актуальные проблемы, связанные с обеспечением ликвидности и финансовой устойчивости компаний в Республике Узбекистан и разработаны научные предложения по их решению.

**Ключевые слова:** предприятие, ликвидность, финансовая устойчивость, инфляция, девальвация, стоимость, кредит, документарный аккредитив, платежное поручение, процентная ставка.

**Annotatsiya.** Kompaniyalarning likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash ularning raqobatbardoshligini ta'minlashning zarur shartlaridan biridir. Biroq, mamlakat iqtisodiyotining pul-kredit xavfsizligining past darajasi, inflyatsiya va devalvatsiya ta'sirida mahsulot tannarxining yuqoriligi kompaniyalarning likvidligi va moliyaviy barqarorligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Maqolada O'zbekiston Respublikasida kompaniyalarning likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq dolzARB muammolar belgilab berilgan va ularni hal etish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** korxona, likvidlik, moliyaviy barqarorlik, inflyatsiya, devalvatsiya, tannarx, kredit, hujjatli akkreditiv, to'lov topshirig'i, foiz stavkasi.

**Annotation.** In the article, scientific proposals aimed at forming an innovation-oriented economy in the country in a short period of time and creating conditions for the wide introduction of innovations have been developed. Ensuring the liquidity and financial stability of companies is one of the necessary conditions for ensuring their competitiveness. However, the low level of cash supply of the country's economy, the high cost of products under the influence of inflation and devaluation hinder the increase of liquidity and financial stability of companies. The article identifies current issues related to ensuring the liquidity and financial stability of companies in the Republic of Uzbekistan and develops scientific proposals to address them.

**Key words:** economy, innovation, labor, capital, natural resources and scientific and technical level, investments.

### **1. ВВЕДЕНИЕ**

На сегодняшний день Центральный банк Республики Узбекистан в качестве

эффективной меры предотвращения роста инфляции преследует следующие цели:

- Ограничение влияния монетарных факторов на национальную инфляционную систему и инфляционные риски и удержание инфляции в пределах целевых показателей;

- Обеспечение положительных реальных процентных ставок, создание сбалансированных условий кредитования реального сектора экономики;

- Создание необходимых условий для перехода к свободному рыночному режиму валютного курсообразования;

- Создание благоприятных экономических условий для развития предпринимательства за счет обеспечения стабильности национальной валютной системы и низких инфляционных ожиданий, а также поощрения средне- и долгосрочных инвестиций и др.

## **2. ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ**

В экономической литературе взгляды на платежную систему и ее совершенствование существенно отличаются друг от друга. А.С.Нешитой, Е.Ф. В работах Жукова, В.П.Полякова и ряда других экономистов безналичные расчеты определяются как перечисление платежей через банковские счета и на основании отказа от взаимных требований. Например, по определению Е. Жукова, «безналичные расчеты - это расчеты, осуществляемые без использования наличных денег, путем перечисления денежных средств на счета в кредитных организациях и отказа от взаимных требований». Из этого определения видно, что Е. Жуков различает два аспекта безналичных расчетов: перевод денежных средств через счета, открытые в кредитных организациях, и отказ от взаимных требований. На наш взгляд, такое определение характерно для практики стран с переходной экономикой (Россия, Узбекистан, Казахстан, Украина и др.), где до сих пор существует процедура отказа от

взаимных требований. В практике развитых стран отсутствуют расчеты, основанные на отказе от взаимных требований и обязательств. В странах с переходной экономикой из-за низкого уровня финансовых ресурсов экономики существует большой объем дебиторско-кредиторской задолженности между хозяйствующими субъектами.

В таких условиях должник-кредитор вынужден использовать метод отказа от взаимных требований и обязательств в целях уменьшения суммы задолженности, уменьшения задолженности хозяйствующих субъектов перед Государственным бюджетом. В учебнике «Банковское дело», изданном под редакцией профессора О. И. Лаврушина, в безналичные расчеты включены следующие три вида расчетов:

- расчеты безналичным расчетом на счета плательщиков и получателей денежных средств, открытые в кредитных организациях;

- расчеты путем отказа от взаимных требований;

- расчеты, осуществляемые путем передачи платежных инструментов в обращение (векселя, варранты и т.п.).

В отличие от приведенного выше определения безналичных расчетов по определению О.И.Лаврушина платежи, осуществляемые с помощью платежных инструментов, также относятся к безналичным платежам. На наш взгляд, определение, данное О. И. Лаврушиным, позволяет наиболее полно раскрыть содержание безналичных расчетов. Это связано с тем, что, во-первых, в данном определении выражены расчеты, основанные на отказе от взаимных требований, характерных для экономической практики стран с переходной экономикой; во-вторых, признаются безналичные расчеты, произ-

веденные путем перечисления на банковские счета; во-третьих, подчеркивается наличие безналичных расчетов через платежные инструменты. При расчетах за товары и услуги широко используются два вида платежных инструментов: простые и оборотные коммерческие векселя.

Характерно, что коммерческие векселя могут выполнять функцию денег как средства платежа. Поэтому безналичный расчет может заменить определенную часть средств, вовлеченных в оборот. Есть и вторая сторона дела. Содержание данного аспекта заключается в том, что коммерческие векселя могут быть обращены несколько раз посредством индоссамента, что позволяет резко уменьшить размер дебиторско-кредиторской задолженности между хозяйствующими субъектами. Поэтому расчеты, осуществляемые посредством обращения простых и переводных коммерческих векселей, также включаются в состав безналичных расчетов.

Вместо «банковские счета плательщиков и получателей денежных средств» заменить «текущие банковские счета плательщиков и получателей денежных средств». Это связано с тем, что существует три основных вида банковских счетов поставщиков и плательщиков: текущий депозитный счет, срочный депозитный счет, сберегательный депозитный счет. Но платежные документы пишутся только на текущий депозитный счет. Поэтому, на наш взгляд, в определении должен быть четко прописан текущий депозитный счет.

Среди экономистов существуют разные взгляды на совершенствование практики использования безналичных форм расчетов. Например, согласно теории «открытых оферты», созданной известным

экономистом О. Херши, сумма, обещанная к выплате бенефициару, указанному в аккредитиве, является офертой и остается открытой до ее акцепта.

### **3. МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ**

Исследовательскую основу данной статьи составляют научные труды российских и зарубежных ученых, посвященные вопросам формирования финансовых переводов и платежных систем. В исследовании применялись методы системного подхода, а также определение основных аспектов финансовых переводов и платежных систем. В статье используется методы анализа на данную тему.

### **4. АНАЛИЗЫ И ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ**

На наш взгляд, теория «открытых предложений» не имеет практического значения для современного состояния системы безналичных расчетов в Республике Узбекистан. Потому что в нашей республике в основном используются обеспеченные документарные аккредитивы. Нет необходимости обещать сумму платежа получателю. Это связано с тем, что в обеспеченных аккредитивах сумма платежа депонируется на отдельном счете.

В январе-сентябре 2020 года в общей сумме платежей, осуществленных через ТИФ Национальный Банк по формам безналичного расчета, платежи, осуществленные платежными поручениями, занимали очень большую долю, и в этот период платежи посредством писем не проводились. аккредитивов, оформленных в национальной валюте, свидетельствует о том, что они не улучшили практику использования книжных форм.

В целях обеспечения эффективности использования безналичных форм расчетов в Республике Узбекистан. на наш взгляд,

должны быть реализованы следующие меры:

1. В целях увеличения объема необеспеченных и неподтвержденных документарных аккредитивов, открываемых коммерческими банками со статусом аккредитивного банка в отношении платежных обязательств клиентов за поставленные товары и услуги, во-первых, формирование группы клиентам, относящимся к первой и второй категории кредитоспособности, по уровню движения денежных средств по обязательствам и их платежам необходимо открывать аккредитивы в этих формах;

во-вторых, необходимо разрешить данной группе клиентов использовать возобновляемые и предоплаченные виды документарных аккредитивов;

в-третьих, приоритет должен отдаваться кредитованию документарных аккредитивов через кредитную линию аккредитивного банка.

2. В целях повышения роли документарных аккредитивов и гарантий коммерческих банков в повышении экспортного потенциала регионов, в первую очередь, необходимо организовать специальные обучающие курсы по использованию документарных аккредитивов и гарантий коммерческие банки для работников филиалов коммерческих банков и хозяйствующих субъектов, работающих в регионах; во-вторых, необходимо гарантировать качество товаров, экспортируемых банками нашей республики в зарубежные банки; в-третьих, банки не должны требовать от хозяйствующих субъектов внесения гарантойной суммы.

Коммерческими банками нашей республики разработаны следующие научные предложения и практические рекомендации по совершенствованию

безналичных форм расчетов при оказании расчетных услуг сельскохозяйственным предприятиям:

1. При расчете через платежные поручения необходимо внести как можно меньшую предоплату от количества товара.

2. Необходимо увеличить объем открытия беззалоговых аккредитивов банками сельскохозяйственным предприятиям.

По мнению Х.Рахимовой, ограниченность количества безналичных инструментов в хозяйственном обороте нашей республики, особенно неразвитость практики использования кредитных инструментов, является причиной замедления платежных процессов в экономике страны, приводящие к неисполнению договорных обязательств хозяйствующих субъектов.

## **5. ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ**

Подводя итоги, можно сказать, что в экономической литературе встречаются различные взгляды, мнения и мнения по поводу классификации безналичных расчетных форм и усовершенствования их использования.

- переход к долларизации в малых странах, то есть вывод национальной валюты из обращения и использование доллара США и других ведущих валют в качестве средства обращения, позволяет обуздить инфляцию, улучшить денежное обращение, резко сократить оборот наличных денег вне банков;

- неофициальная, то есть негласная долларизация используется в целях ухода от налогов, незаконной торговли товарами и приводит к ухудшению денежного обращения;

- долларизация не позволяет Центральному банку страны проводить самостоятельную денежно-кредитную политику;

- долларизация требует перехода к валютному управлению;

- в результате долларизации Федеральная резервная система США получит возможность получать большую сумму дохода, то есть сеноража.

Монеты номиналом 1 и 5 не должны быть выпущены в обращение.

Необходимо сократить объем дебиторско-кредиторской задолженности между хозяйствующими субъектами путем введения в хозяйственную практику Республики Узбекистан вексельного

обращения и ввести в банковскую практику льготные кредиты.

Введение тратт позволяет резко сократить размер дебиторско-кредиторской задолженности между хозяйствующими субъектами. Однако в процесс торговли не должны быть вовлечены предприятия-монополисты. Причина этого в том, что монополии могут привести к выходу из строя трактов. Потому что договор должен быть написан после продажи товара. Но монополии, поскольку они не находятся в конкурентной среде, могут потребовать участки до того, как товар будет продан.

#### **Используемая литература:**

1. Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-60 от 28 января 2022 года. О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы // Национальная база данных законодательства, 29.01.2022, № 06/22/60/0082, 18 раз 2022, № 22/06/89/0227).
2. Банковское дело. Под редакцией проф. О.И. Лаврушина. - Москва: КНОРУС, 2016. - С. 353.
3. Указ Президента Республики Узбекистан от 12 сентября 2017 года № ПП-3270 «О развитии и устойчивости банковской системы Республики Узбекистан» // QHMMB: 17/07/3270/0004 No. 25.09.2017.
4. Указ Президента Республики Узбекистан от 27 октября 2020 года № ПФ-6096 «О мерах по ускорению реформирования государственных предприятий и приватизации государственного имущества» // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. Жуков Э.Ф. Общая теория - это заслуга. - М.: Издательское объединение "Юнити", 2005. - С. 85.
6. Херши О. Аккредитивы. - Гарвардский юридический обзор. - Том. 32. – С. 1 (1918).
7. Шодмонов Э.Ш. Основные направления повышения активности банков в углублении аграрной реформы в Узбекистане. Д.э.н. наука Автореферат диссертации написан на степень. – Ташкент: БМА, 2015. – Б. 15-17.
8. Рахимова Х.У. Организация и развитие системы жести в Республике Узбекистан. Дисс. ни соиск. три. св. с.е.п. - Ташкент, 2016. -С.
9. Бобакулов Т.И. Проблемы обеспечения стабилизации национального выхода курса в Республике Узбекистан и пути их решения. автореф. – Ташкент, 2008. – Б. 22.
10. Платежная система // [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) (Центральный банк Республики Узбекистан).

**UDK: 33**

## **“YAGONA ERKIN ALMASHTIRILADIGAN VALYUTA” YARATILISH ZARURATI VA KONSEPSIYASI**

**Yuldashev Obbos Amonovich** - “Turon” nodavlat ta’lim universiteti o‘qituvchisi

### **НЕОБХОДИМОСТИ СОЗДАНИЯ “ЕДИНАЯ СВОБОДНО КОНВЕРТИРУЕМАЯ ВАЛЮТА” И КОНЦЕПЦИИ**

**Юлдашев Оббос Амонович** - преподаватель  
негосударственного университета “Турон”

### **CONCEPTION AND THE NEED TO CREATE A “SINGLE FREELY EXCHANGEABLE CURRENCY”**

**Yuldashev Obbos Amonovich**  
the teacher of Nongovernmental University “Turon”

**Annotasiya.** Ushbu maqolada jahondagi erkin almashtiriladigan valyuta ayirboshlash tizimini isloh qilish zarurati yoritilgan. Amaldagi erkin almashtiriladigan valyutalar ma’lum bir davlat(lar)ning iqtisodiyotiga va pul muomalasi tizimiga asoslangan va boshqa davlatlar uchun bu tizimni oshkora ko‘ra olish imkoniyati mavjud emas. Mazkur holat haqli ravishda noroziliklarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, amaldagi valyuta ayirboshlash tizimidagi kamchiliklar ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada davlatlarning milliy valyutasini (pul birligi) erkin almashtiriladigan valyutaga to‘g‘ridan – to‘g‘ri ayirboshlash imkonini beradigan yangicha tizim va uning afzalliklari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** yangicha valyuta ayirboshlash tizimi, yangicha xalqaro moliya institatlari, xalqaro Reglament, “Yagona erkin almashtiriladigan valyuta”, Markaz, A – Bank, Vakolathi tashkilot, Markaziy Banklar, iqtisodiyotning ochiqlik indeksi, Markazga a’zo bo‘lgan va a’zo bo‘lmagan davlat, naqd va naqdsiz pul mablag‘lari qoldig‘i, xavfni baholash dasturi, xalqaro kelishuv shartnomasi, xalqaro normativ hujjat.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается необходимость реформирования мировой системы обмена свободно конвертируемых валют. Используемые свободно конвертируемые валюты основаны на экономике и денежной системе конкретной страны (стран), и у других стран нет возможности увидеть эту систему публично. Эта ситуация справедливо вызывает протесты. Также отмечены недостатки действующей системы обмена валюты. В статье представлена новая система, позволяющая осуществлять прямой обмен национальной валюты (денежной единицы) стран на свободно конвертируемую валюту и ее преимущества.

**Ключевые слова:** новая система обмена валют, новые международные финансовые институты, международные правила, «Единая свободно конвертируемая валюта», Центр, А – Банк, Уполномоченная организация, Центральные банки, индекс открытости экономики, государства-члены и нечлены Центра, остаток наличные и безналичные денежные средства, программа оценки рисков, международный договор, международный нормативный документ.

**Annotation.** Highlights the need to reform the world's freely convertible currency exchange system analysis In this article. Freely convertible currencies in use are based on the economy and monetary system of a particular country(s), and there is no way for other countries to see this system publicly. This situation rightly causes protests. Deficiencies in the current currency exchange system are also pointed out. The article presents a new system that allows direct exchange of the national currency (monetary unit) of countries into a freely convertible currency and its advantages.

**Key words:** the new system of currency exchange, the new international financial institutions, international regulation, "Single freely convertible currency", Center, A-Bank, Authorized organization,

Central Banks, the openness index of economy, member and non-member state of the Center, cash and non-cash balance of the funds, the risk assessment program, an international agreement, an international regulatory document.

## 1. KIRISH

Erkin almashtiriladigan valyuta ayirboshlash tizimi bilan bog'liq quyidagi ikkita muammoning hal etilishi – dunyo iqtisodiyotini yuqori darajada rivojlanishiga olib keladi:

1) Dunyodagi savdo – iqtisodiy aloqlalar faqatgina erkin almashtiriladigan valyutalar (EAV) vositasida amalga oshishga asoslangan bo'lib, ko'pchilik davlatlar EAV zaxirasi tanqisligi sababli erkin savdo – iqtisodiy aloqalarni yurita olmaydi, garchi davlatning ichida o'zining milliy valyutasi faol harakatda bo'lsa ham (bu holat ko'proq rivojlanmagan yoki rivojlanayotgan davlatlarga xos). Ma'lumki, har bir davlat EAVga ega bo'lish uchun tovar (ish va xizmatlar) larni chetga EAVga realizasiya qilishi lozim (davlatga chetdan pul o'tkazmalari orqali keladigan valyutalarni hisobga olmaganda). Davlatning milliy valyutasini to'g'ridan – to'g'ri EAVga ayirboshlashning imkoniyati yo'q. Bundan kelib chiqadiki, har bir davlatning milliy valyutasini erkin almashtiriladigan valyutaga to'g'ridan – to'g'ri ayirboshlash imkonini beruvchi yangicha valyuta ayirboshlash tizimi yaratilishi lozim. Shundagina har bir davlatga erkin savdo – iqtisodiy aloqalarni yuritish uchun EAV tanqisligi masalasi hal etiladi.

2) Ma'lum bir davlat(lar)ning iqtisodiyotiga faqatgina ishonib (chunki, boshqacha kafolatlangan ko'rsatkichlar mavjud emas) uning milliy valyutasidan EAV sifatida dunyo miqyosida keng foydalanilishi holati – Hozirgacha dunyoda aniq iqtisodiyot va pul muomalasi tizimiga asoslangan, hammaga oshkora ko'rindigan EAV ayirboshlash tizimi yaratilmaganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, bir payt kelib milliy valyutasi EAVga aylangan davlatning o'zi yoki uning moliya – iqtisod tizimi qandaydir kutilmagan

sabablar bilan halokatga uchraganda, ushbu EAVdan hisob – kitob tizimida foydalanayotgan dunyo davlatlari qanday yo'1 tutishi lozimligi borasida hech qanday tushuncha yo'q yoki aniqrog'i bu yo'nalishda boshi berk ko'cha mavjud. Bunday holatda milliy valyutasi EAVga tenglashtirilgan davlatning moliya – iqtisodiy inqirozini boshqa bir dunyo davlatlariga tarqalishini to'xtatishning imkoniyati yo'q, albatta. Bunga 2008 yilda AQShda yuzaga kelgan moliyaviy inqirozning butun dunyoga tarqalganligini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Shuningdek, oxirgi axborotlarga ko'ra, AQShning davlat qarzi oshib borayotganligi sababli tobora defolt xavf solayotganligi yoki AQSH milliy valyutasi (pul birligi) hisoblanuvchi dollarning naqd ko'rinishda muomalaga chiqarilishi miqdorini boshqa davlatlar bila olmasligi kabi xavotirli holatlar dunyo davlatlari iqtisodiyotiga xavf solishi mumkinligi – haqli ravishda e'tirozlarga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, oxirgi siyosiy voqealarga ko'ra, jahon moliyaviy tizimlari geosiyosiy raqobatda qurol sifatida tobora ko'proq foydalanilayotganligi davlatlarni xavotirga solmoqda va bu holat, jahon institutlarining zamonaviy tahdidlarga javob bera olishi uchun islohotlar o'tkazilishini talab qiladi.

Umuman ayrim davlat(lar)ning milliy valyutasidan EAV sifatida dunyo miqyosida keng foydalanilishi – yuqoridagi tahdid va e'tirozlar sababli, tobora o'zini oqlamaydigan tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Ya'ni, bunday tahdid va e'tirozlar xavfidan xoli bo'lgan – mustaqil EAVga erishish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu esa albatta qandaydir yangicha, oshkora va mustaqil pul

muomalasi tizimiga asoslangan EAV ayrboshlash tizimiga o'tishga zarurat tug'diradi. Shu ma'noda, biror bir davlat(lar)ning moliya-iqtisod va pul muomalasi tizimiga bog'liq bo'lмаган yangicha valyuta ayrboshlash tizimi yaratilishi maqsadga muvofiq.

## **2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI**

Ayrim olimlar yagona dunyo valyutasini – hukumat valyutasi miqyosida talqin qilib, uning afzalliklarini ko'rsatib o'tgan bo'lsada, uni yaratib bo'lmaydi, degan fikrga kelishgan. Jumladan, Ulibina L.K. (professor kafedri finansov KubGAU Rossiya) alohida davlatlarning mavjudligi va hozircha bitta umumiylu dunyo hukumatining mavjud emasligi sababli, yagona dunyo valyutasini yaratib bo'lmaydi, deb xulosa qilgan.

Ammo, talqin qilinayotgan ushbu maqolada, mutlaqo yangi funksiyalar bilan ishlaydigan moliya institutlari orqali yagona dunyo valyutasini yaratish mumkinligi g'oyasi – konsepsiya ko'rinishida ifodalab beriladi.

Aslida, ushbu muammolarning hal etilishi xuddi matematikada hali o'z yechimini topmagan misollarning yechimini topishni olimlar oldiga masala qilib qo'yilganidek, iqtisodchi olimlarning oldiga qo'yilgan masala bo'lishi lozim.

## **3. TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mavzu yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borishda kuzatish, solishtirish, suhbat, anketa so'rovlarini kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

## **4. ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR**

Yuqorida qayd etilgan muammoning hal etilishi borasida quyidagi fikrlarimizni bildirmoqchimiz.

Yangicha tartibga asoslangan xalqaro moliya institutlarini tashkil qilinishi zaminida "Yagona erkin almashtiriladigan valyuta"

(YAEAV) ayrboshlash tizimining yaratilishi orqali ushbu muammolarni hal etish mumkin. Bunga erishish uchun quyidagi yangicha xalqaro moliya institutlari tashkil etilishi lozim:

Birinchidan, Xalqaro Reglament ishlab chiqilib, unga ko'ra barcha a'zo davlatlarning milliy valyutalarini YAEAVga ayrboshlash kursi hamda Markaziy banklaridagi naqd va naqdsiz pul mablag'lari massasi ko'rsatkichlarini o'zida doimiy mujassamlash-tirib turadigan Markaz tashkil qilish kerak. Markazni tashkil qilishdan maqsad:

1) Markazga a'zo davlatlarning milliy valyutalarini YAEAVga ayrboshlash kursini nazorat qilish (YAEAV kursi keyinroqda tushuntiriladi),

2) Markazga a'zo davlatlarning Markaziy banklaridagi naqd va naqdsiz pul mablag'lari massasini nazorat qilish,

3) Milliy valyutalarini YAEAVga ayrboshlash va uning muomalasini ta'minlashdan iborat.

Bunday maqsadlarning belgilanishiga sabab, Markazga a'zo davlatlarning milliy valyutalarini to'g'ridan – to'g'ri YAEAVga ayrboshlash tizimiga o'tishidir.

Milliy valyutalarini to'g'ridan – to'g'ri YAEAVga ayrboshlash tizimida qanday davlatlar ishlay oladi?

Milliy valyutalarini Markaz orqali to'g'ridan – to'g'ri YAEAVga ayrboshlash uchun Markaz va unga a'zo davlatlar o'rtasida xalqaro kelishuv shartnomasi imzolanib, unga ko'ra quyidagi majburiyatlarni olgan davlatni bu tizimga kiritilishi belgilanadi:

1) Milliy valyutani YAEAVga ayrboshlash kursini belgilashga davlat ma'muriy aralashuvisiz, faqatgina valyutaga bo'lgan bozor talab va taklifining o'zgarishi asosida erkin suzadigan (tebranadigan) kurslar rejimida ishslash majburiyatini olgan davlat. Ya'ni, qisqacha aytganda, milliy valyutani YAEAVga ayrboshlash kursini bozor talab va

taklifining o‘zgarishiga qarab belgilanishini ta’minlash maqsadida davlat ma’muriy aralashuvi bo‘lmasligi shart.

Shu bilan birga, davlat o‘zining Vakolatli tashkiloti orqali milliy valyutasini YAEAVga ayirboshlash kurslari bo‘yicha haqqoniy ma’lumotlar bilan Markazni doimiy ta’minlash majburiyatini oladi.

2) Davlatning naqd va naqdsiz pul mablag‘lari massasi bo‘yicha haqqoniy ma’lumotlar bilan Markazni doimiy ta’minlash majburiyatini olgan davlat.

Bunday majburiyatlar yuzasidan Markaz bilan xalqaro kelishuv shartnomasini imzolamagan davlatlar ushbu tizimga kiritilmaydi. Ammo, bunday davlatlar YAEAV muomalasida ishtirok etib, hozirda amalda bo‘lgan valyuta ayirboshlash tizimi shaklida ish yuritishga majbur. Bu mavzuga keyinroq to‘xtalib o‘tamiz.

Shu ma’noda, Markazning funksiyasiga quyidagilar kiradi:

1) Markazga a’zo davlatlarning milliy valyutalarini YAEAVga ayirboshlash kursini (davlatdagi erkin suzadigan valyuta kursi) doimiy nazorat qilish,

2) Markazga a’zo davlatlarning naqd va naqdsiz pul mablag‘lari massasini miqdoriy ko‘rsatkichlarini doimiy nazorat qilish,

3) Milliy valyutalarini YAEAVga ayirboshlash va uning muomalasini ta’minlash. Ya’ni, Markazga a’zo har bir davlatdagi erkin suzadigan valyuta kursi bo‘yicha:

a) Milliy valyutalarini YAEAVga ayirboshlash,

b) Markazga a’zo davlatlarning zaxirasidagi YAEAVlarni shu davlatlarning milliy valyutasiga ayirboshlash (ya’ni, teskari operasiyani bajarish).

Ushbu funksiyalarning amalga oshishi quyidagilar bilan bog‘liq;

Yuqorida aytilgan, xalqaro kelishuv shartnomasiga ko‘ra, Markazga a’zo

davlatlarning aniq bir idorasi (Markaziy banki) – Vakolatli tashkilot maqomiga ega tashkilot sifatida belgilanadi va u tomondan 1 va 2 – chi bandlarda ko‘rsatib o‘tilgan majburiyatlar yuzasidan ma’lumotlarni ochiqlik indeksi ma’lumotlari sifatida internet tarmog‘i orqali Markazga doimiy uzatilishi ta’minlanadi. Bunda Vakolatli tashkilot va Markaz avtomatlashgan kompyuter dasturi tizimiga doimiy bog‘langan holda ish yuritadi. Ya’ni, Vakolatli tashkilotning ochiqlik indeksi ma’lumotlarini avtomatik tarzda Markazning ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘lishi ta’minlanadi va bu ish – Vakolatli tashkilot tomonidan ochiqlik indeksi ma’lumotlarini Markazning elektron ma’lumotlar oynasiga joylanishi tarzida amalga oshiriladi (ya’ni, ma’lumotlar shu tarzda Markazga uzatiladi).

Milliy valyutalarini to‘g‘ridan – to‘g‘ri YAEAVga ayirboshlash kursi qanday aniqlanadi?

Dastlab, milliy valyutalarini to‘g‘ridan – to‘g‘ri YAEAVga ayirboshlash kurslarini belgilash uchun bazaviy valyuta sifatida – hozirda eng barqaror va butun dunyoda keng foydalanilayotgan AQSH dollaridagi valyuta kurslaridan foydalaniladi.

Buning uchun Markazga a’zo har bir davlat yuqorida aytilgandek, xalqaro kelishuv shartnomasiga ko‘ra, milliy valyutalarini AQSH dollariga erkin suzadigan kurs bo‘yicha ayirboshlanishini ta’minlashi lozim. Shundan so‘ng, Markazga a’zo davlatning Vakolatli tashkiloti tomonidan Markazning elektron ma’lumotlar oynasiga har kungi ayirboshlash kursi yozib boriladi. Bunda YAEAVning ayirboshlash kursi AQSH dollarining davlatdagi amaldagi kursi bilan bir xilda ifodalab ko‘rsatiladi. Ya’ni;

1 AQSH dollari = 1 YAEAV tengligi qabul qilinadi.

Masalan, O‘zbekiston so‘mining AQSH dollariga (yoki YAEAV) nisbatan ayirboshlash kunidagi kursi quyidagicha:

1 AQSH dollari (yoki YAEAV) = 12 000 so‘m.

Bu tenglikka asoslanib, Markazning elektron ma’lumotlar oynasiga ayrboshlash kursini yozishda AQSH dollari ko‘rsatkichidan voz kechiladi va uning o‘rniga YAEAV yozuvni ko‘rsatiladi. Ya’ni, shu joyda AQSH dollaridan

voz kechilib, uning o‘rniga YAEAVni joriy qilish boshlanadi.

Misol tariqasida qaralsa, Markazning elektron ma’lumotlar oynasiga yozilgan har bir davlat milliy valyutasini YAEAVga nisbatan ayrboshlash kursining namunaviy ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

### 1-jadval.

#### 17.10 2023 yildagi YAEAV kursi haqida ma’lumot

Nº	Davlat nomi	Pul birligi	YAEAV kursi
1	O‘zbekiston	so‘m	12 000 so‘m
2	Rossiya	rubl	100 rubl
3	..... boshqa davlatlar	.....	.....

Shuningdek, Markazga a’zo davlatlarning naqd va naqdsiz pul mablag‘lari massasi ham Markazning boshqa elektron ma’lumotlar oynasida ochiqlik indeksi ma’lumotlari sifatida ko‘rsatib boriladi.

Ochiqlik indeksi ma’lumotlarining haqqoniyligini Markaz tomonidan quyidagicha nazorat qilinadi:

1) Markaz davlatlarda o‘zining vakolatxonalarini ochgan holda davatlardagi ochiqlik indeksi ma’lumotlarini doimiy nazorat qilib borishi mumkin. Bunda erkin suzadigan (tebranadigan) valyuta kursi rejimi amal qilayotganligini nazorat qilish asosiy o‘rin tutadi,

2) Kompyuter tizimi asosida xavfni baholash dasturi yaratiladi va u tegishli mutaxassis – ekspertlar tomonidan nazorat qilinadi. Deylik, agarda xavfni baholash dasturiga ko‘ra ayrim Vakolatli tashkilotning ochiqlik indeksi ko‘rsatkichlarida kamchiliklar yoki xavf yuqori deb baholangan ma’lumotlar aniqlanganda, ushbu kamchiliklarga aniqlik kiritib, ular bartaraf etilguniga qadar Markaz tomonidan shu davlat Markaziy bankini YAEAV ayrboshlash tizimidan vaqtincha uzishgacha choralar ko‘rilishi mumkin.

Ikkinchidan, YAEAV muomalasini ta’minalash va uning harakati yuzasidan doimiy nazorat o‘rnatish uchun A – Bank ish yuritishi

lozim bo‘ladi. Shu ma’noda, A – Bankning funksiyasiga quyidagilar kiradi:

1) Muomalaga chiqarilgan naqdsiz YAEAVning Markaz va Markazga a’zo davlatlarning Markaziy Banklari o‘rtasidagi harakatini ta’minlash,

2) Naqdsiz YAEAVning davlatlararo subyektlar o‘rtasidagi harakatini ta’minlash va har bir davlatdagi naqdsiz YAEAV qoldig‘i miqdori hisobini yuritish orqali Markazdan muomalaga chiqarilgan naqdsiz YAEAVning balansini nazorat qilish,

3) Naqd ko‘rinishdagi YAEAVni muomalaga kiritish va muomaladan chiqarishdan iborat.

Ushbu 1 va 2 – chi bandlardagi funksiyalarni bajarilishi uchun naqdsiz YAEAVning harakati A – Bankning hisob raqamlari orqali amalga oshirilishi lozim (davlatning ichidagi subyektlar o‘rtasidagi naqdsiz YAEAVlar harakati bundan mustasno).

Milliy valyutalarni to‘g‘ridan – to‘g‘ri YAEAVga ayrboshlash qanday amalga oshiriladi?

Demak, Markazda har bir a’zo davlat milliy valyutasining YAEAVga nisbatan ayrboshlash kursini doimiy belgilab borilishi yo‘lga quyilgandan so‘ng valyuta ayrboshlash

operasiyalarini amalga oshirishni boshlash mumkin bo‘ladi. Jumladan, naqdsiz va naqd ko‘rinishdagi YAEAVlar quyidagicha muomalaga kiritiladi:

a) naqdsiz ko‘rinishdagi YAEAV muomalasi uchun; Markazga a’zo davlatning Markaziy Banki ma’lum miqdordagi o‘zining naqdsiz milliy valyutasi miqdorini Markazda ochilgan hisob raqam (h/r) ga ko‘chiradi va Markazdan shu kungi ekvivalent kurs (davlatdagi erkin suzadigan kurs) bo‘yicha hisoblangan YAEAVning miqdori A – Bankning h/r orqali davlatning Markaziy Banki h/r ga ko‘chirib beriladi. Bu operasiya YAEAV harakat sxemasining 1. a,b,v – bandida (keyinchalik sxemaning ..... bandida deyiladi) ko‘rsatilgan.

Shundan so‘ng, davlatlar o‘rtasidagi savdo – sotiq va boshqa moliya – iqtisodiy aloqalar bilan bog‘liq valyuta operasiyalarini natijasida YAEAV muomalada bo‘ladi (sxemaning 2. a,b – bandida ko‘rsatilgan). Bunda, valyuta operasiyalarini bajaruvchi subyektlar bo‘yicha Markazga a’zo davlatning Banklari Markazga a’zo bo‘lgan va a’zo bo‘lmagan davlatlarning Banklari bilan A – Bank orqali to‘g‘ridan – to‘g‘ri valyuta operasiyalarini bajaradi.


Bundan tashqari, qaysiki Markazga a’zo davlatning Markaziy Banki o‘z zaxirasidagi naqdsiz YAEAVni o‘zining milliy valyutasiga ayirboshlashni xohlaganda – yuqorida keltirilgan YAEAVning muomalaga kiritilishi tartibiga teskari ko‘rinishdagi operasiya amalga oshiriladi. Ya’ni, Markazga a’zo davlatning Markaziy Banki ma’lum miqdordagi naqdsiz YAEAVni A – Bankning h/r orqali Markazda ochilgan h/r ga ko‘chiradi va Markazdan shu kungi ekvivalent ayirboshlash kursi (davlatdagi erkin suzadigan valyuta kursi) bo‘yicha hisoblangan naqdsiz

milliy valyuta miqdori ushbu davlat Markaziy Banki h/r ga (Markazdan to‘g‘ridan – to‘g‘ri) ko‘chirib beriladi (sxemaning 3. a,b,v – bandida ko‘rsatilgan). Bunday ayirboshlash operasiyalarini Markazda alohida h/r larda yuritiladi.

b) naqd ko‘rinishdagi YAEAV muomalasi uchun; xuddi hozirigidagidek muhrlovechi stanok faoliyat ko‘rsatadi va faqatgina A – Bank tomonidan muhrlangan naqd YAEAV miqdorlari muomalaga kiritiladi. Buning uchun: Markazga a’zo bo‘lgan va/yoki a’zo bo‘lmagan davlatning Markaziy Banki ma’lum miqdordagi naqdsiz YAEAVni A – Bankning h/r ga ko‘chiradi. Shundan sung, A – Bank tomonidan uning h/r ga kelib tushgan naqdsiz YAEAV miqdoriga teng bo‘lgan naqd ko‘rinishdagi YAEAV miqdori tegishli davlatning Markaziy Bankiga beriladi (sxemaning 4. a,b,v,g – bandlarida ko‘rsatilgan).

Markazga a’zo davlatlarning Markaziy Banki va Markaz o‘rtasida valyuta ayirboshlash operasiyalarini YAEAVning davlatdagi erkin suzadigan sotib olish kursi bo‘yicha amalga oshiriladi. Bunday YAEAV ayirboshlash operasiyalaridan hech qaysi tomon foyda yoki zarar ko‘rmaydi. Shu sababli, Markazni saqlash xarajatlari – xalqaro kelishuv shartnomasiga ko‘ra unga a’zo davlatlarni ulushlari hisobidan moliyalashtiriladi.

Bunday ayirboshlash uslubiga ko‘ra ish yuritish tartibi – YAEAVning har kun boshidagi yangi ayirboshlash kursi bo‘yicha olib boriladi. YAEAVning ayirboshlash kursi (qiymati) ushbu tartib asosida belgilansada, u hech qanday aktivlar bilan ta’minlanmaydi. YAEAVning muomalasi harakati quyidagi sxemada ko‘rsatiladi:



1-rasm. YAEAVning muomalasi harakati

0. 0 – Vakolatli tashkilot va Markaz avtomatlashgan kompyuter tizimiga doimiy bog'langan holda ish yuritadi. Ya'ni, Vakolatli tashkilotning ochiqlik indeksi ma'lumotlarini (Markazga a'zo davlatlarning milliy valyutalarini YAEAVga ayrboshlash kursi hamda davlatlarning Markaziy banklaridagi naqd va naqdsiz pul mablag'lari massasi) Markazning ko'rsatkichlarida namoyon bo'lishi ta'minlanadi. Bu yuqorida aytildigandek, Vakolatli tashkilot tomonidan ochiqlik indeksi ma'lumotlarini Markazning elektron ma'lumotlar oynasiga joylanishi tarzida amalga oshadi (bu, Markazning 1 va 2 – chi funksiyalari).

1. a,b,v – Markazga a'zo davlatning Markaziy Banki ma'lum miqdordagi o'zining naqdsiz milliy valyutasi miqdorini Markazda ochilgan h/r ga ko'chiradi va Markazdan shu kungi ekvivalent kurs bo'yicha hisoblangan YAEAVning miqdori A – Bankning h/r orqali davlatning Markaziy Banki h/r ga ko'chirib beriladi (bu, Markazning 3 – chi funksiyasi va A – Bankning 1 – chi funksiyasi).

2. a,b – Naqdsiz YAEAVning davlatlararo subyektlar o'rtasidagi harakati ta'minlanadi. Ya'ni, davlatlar o'rtasidagi savdo – sotiq va boshqa moliya – iqtisodiy aloqlar orqali YAEAV muomalada (A – Bank orqali) bo'ladi (bu, A – Bankning 2 – chi funksiyasi).

3. a,b,v – Markazga a’zo davlatning Markaziy Banki ma’lum miqdordagi naqdsiz YAEAVni A – Bankning h/r orqali Markazda ochilgan h/r ga ko‘chiradi va Markazdan shu kungi ekvivalent ayirboshlash kursi bo‘yicha hisoblangan naqdsiz milliy valyuta miqdori ushbu davlat Markaziy Banki h/r ga (Markaz orqali to‘g‘ridan – to‘g‘ri) ko‘chirib beriladi (bu, Markazning 3 – chi funksiyasi va A – Bankning 1 – chi funksiyasi).

4. a,b,v,g – Markazga a’zo bo‘lgan va/yoki a’zo bo‘Imagan davlatning Markaziy Banki ma’lum miqdordagi naqdsiz YAEAVni A – Bankning h/r ga ko‘chiradi. Shundan so‘ng, A – Bank tomonidan uning h/r ga kelib tushgan naqdsiz YAEAV miqdoriga teng bo‘lgan naqd ko‘rinishdagi YAEAV miqdori tegishli davlatning Markaziy Bankiga beriladi. Shuningdek, davlatning Markaziy Bankidagi ortiqcha naqd YAEAV miqdorlari A – Bankga topshirilib, naqdsiz YAEAV miqdoriga almashtirilishi mumkin (bu, A – Bankning 3 – chi funksiyasi).

Milliy valyutalarni to‘g‘ridan – to‘g‘ri YAEAVga ayirboshlash operasiyalarida yuqorida keltirilgandek, 3 ta subyekt uzviy bog‘liq holda qatnashadi. Ular:

1) Markazga a’zo davlatlarning Vakolatli tashkilotlari (Markaziy banklari).

2) Markaz

3) A – Bank

Bunda, Markazga a’zo davlatlarning Vakolatli tashkilotlari (Markaziy banklari) va Markaz – milliy valyutalarni to‘g‘ridan – to‘g‘ri YAEAVga ayirboshlashni amalga oshiruvchi subyekt, A – Bank esa YAEAV harakatini ta’minlab, uning massasini nazorat qiluvchi subyekt hisoblanadi.

YAEAVni muomalaga kiritish bilan bog‘liq yuqorida aytib o‘tilgan birinchi operasiya (sxemaning 1. a,b,v bandida ko‘rsatilgan) yoki unga teskari bajarilgan operasiyalar (sxemaning 3. a,b,v bandida

ko‘rsatilgan) natijasida Markazning h/r ga kelib tushgan Markazga a’zo davlatlarning milliy valyutasi va YAEAV miqdorlari hech qanday qadr –qiymatga ega bo‘lmaydi. U shunchaki, YAEAVning muomalada bo‘lishi uchun bajariladigan operasiyalar natijasida Markazning h/r da hosil bo‘lgan pul miqdorlari bo‘lib, uni qat’iy nazorat uchun hisobi yuritiladi, xolos. Aslida, har bir davlat (Markazga a’zo bo‘lgan va a’zo bo‘Imagan) milliy valyutasining qadr – qiymati, ma’lum iqtisodiy qonunlarga ko‘ra, shu davlatning tegishli aktivlari va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi. Shu sababli, ma’lum miqdordagi YAEAVga ega bo‘lgan har qanday davlat aslida, ushbu YAEAV ayirboshlash kursiga mos ravishda – o‘zining milliy valyutasi miqdoriga ega hisoblanadi. Buni yana ham ochiqroq aytganda, Markaz o‘zining funksiyasiga ko‘ra har bir a’zo davlatdagi erkin suzadigan kurs bo‘yicha; milliy valyutalarni YAEAVga ayirboshlash va unga teskari operasiyani bajarish ya’ni, Markazga a’zo davlatning zaxirasidagi YAEAVlarni shu davlatning milliy valyutasiga ayirboshlash majburiyatini oladi, xolos. YAEAV davlatlar o‘rtasidagi savdo – iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda asosiy pul to‘lovi vositali bo‘lganligi va uning muomalasini ta’minalash uchun ham shunday tizim ishlaydi. Bunday valyuta ayirboshlash tizimidan hech qaysi tomon foyda yoki zarar ko‘rmaydi va davlatning ichida erkin almashtiriladigan valyuta tanqisligi masalasiga chek qo‘yiladi. Natijada, valyuta kurslarida ham keskin tebranishlar bartaraf qilinadi.

Ma’lumot uchun, davlat valyuta tanqisligi sharoitida valyuta ayirboshlash operasiyalarida turli cheklolar o‘rnatishga majbur bo‘ladi. Bu holat iqtisodiyotga juda katta salbiy ta’sir etadi.

Milliy valyutalarni to‘g‘ridan – to‘g‘ri YAEAVga ayirboshlash tizimiga kirmaydigan

davlatlar qanday qilib YAEAV tizimiga qo'shiladi?

Yuqorida aytilgandek, Markaz bilan majburiyatlar yuzasidan xalqaro kelishuv shartnomasini imzolamagan davlatlar milliy valyutalarini to'g'ridan – to'g'ri YAEAVga ayrboshlash tizimiga kiritilmasada, ular YAEAV muomalasida ishtirok etadi. Ya'ni, ular hozir amalda bo'lgan valyuta ayrboshlash tizimi shaklida ish yuritadilar (sxemaning 2. a,b – bandida ko'rsatilgan). Shu sababli, ular YAEAV muomalasidan hosil bo'lgan valyuta qoldiqlarini faqatgina boshqa davlatlarga yoki ma'lum bir subyektlarga foyda olish va boshqa maqsadlar uchun yo'naltirishlari mumkin bo'ladi. Ammo, talqin qilinayotgan YAEAV ayrboshlash tizimidagi qulayliklar (jumladan, milliy valyutalarini to'g'ridan – to'g'ri YAEAVga ayrboshlanishi) ushbu davlatlarni ham shu tizimga tezroq kirishga undaydi. Shu sababli, bu holatni tizimdagি kamchilik sifatida baholanmaydi.

YAEAV ayrboshlash tizimida hal qilinishi lozim bo'lgan asosiy ishlar.

Shuni qayd etish kerakki, YAEAVning ayrboshlanishida milliy valyutalarning to'g'ridan – to'g'ri ishtirok etishini inobatga olgan holda, Markazda mujassamlashgan Vakolatli tashkilotning ochiqlik indeksi ma'lumotlarini haqqoniyligini Markaz tomonidan nazorat qilishning aniq mexanizmi yaratilishi lozim (yuqorida, Markaz davlatlarda o'zining vakolatxonalarini ochgan holda va xavfni baholash dasturi orqali tegishli mutaxassis – ekspertlar tomonidan nazorat qilishi ko'rsatildi). Naqd va naqdsiz pul mablag'lari doimo o'zaro o'rinn al mashishi mumkinligini hisobga olgan holda, ular asosiy nazorat qilinadigan obyekt hisoblanadi. Bundan maqsad, tizimda naqdsiz milliy valyutalar massasi bo'yicha YAEAVga ayrboshlash operasiyalarining to'g'ri bajarilishini nazorat qilishdir. Ya'ni, jami naqdsiz milliy valyuta massasi > YAEAVga

ayrboshlashga ajratilgan naqdsiz milliy valyuta massasi tengsizligi doimo saqlanishi lozim.

Bunday mexanizm yaratilishi uchun Markaz va unga a'zo davlatlar o'rtasidagi xalqaro kelishuv shartnomasi bo'yicha;

1) Davlatlarning Vakolatli tashkiloti faoliyatini yagona standart bo'yicha yo'liga qo'yish,

2) Tizimdagи tartibni buzgan YAEAV muomalasi ishtirokchilariga javobgarlik masalalarini (jumladan, tartib buzilish holatiga yo'l qo'ygan subyektga nisbatan moliyaviy jarima qo'llash va boshqa huquqiy javobgarliklar) belgilovchi tegishli normativlar belgilanishi lozim.

Milliy valyutalarini to'g'ridan – to'g'ri YAEAVga ayrboshlash tizimining ishonchliligi.

Ushbu tizimning ishonchliliga quyidagi 4 ta omilni keltirib o'taman:

**Birinchidan.** Davlatlarda erkin suzadigan (tebranadigan) valyuta kursi rejimining amal qilishi – talqin qilinayotgan milliy valyutalarini to'g'ridan – to'g'ri YAEAVga ayrboshlash tizimi uchun asosiy ishonchli omil bo'ladi. Chunki, ayrboshlash kurslarini belgilanishida hech qanday tashqi omil (jumladan, davlat ma'muriy aralashuvi) ning ta'siri bo'lmaydi, ya'ni YAEAVning ayrboshlash kursi haqiqiy bozor talabidan kelib chiqib belgilanishiga erishiladi. Bu, milliy valyutalarini to'g'ridan – to'g'ri YAEAVga ayrboshlashning ekvivalentliligi uchun kafillik omilini bajaradi. Bu ekvivalentlik omiliga tayangan holda Markaz bilan valyuta ayrboshlash operasiyalarida dalatning milliy valyutasi o'rnini YAEAV yoki YAEAVning o'rnini davlatning milliy valyutasi egallashi, ya'ni oddiyroq aytganda ekvivalent o'rinn al mashish kombinasiyasi bajariladi.


Markaz davlatlarda o'zining vakolatxonalarini ochgan holda davlatlarda

erkin suzadigan (tebranadigan) valyuta kursi rejimi amal qilayotganligini doimiy nazorat qilib borishi mumkin.

Davlatlarning naqd va naqdsiz pul mablag'larini qoldig'i bo'yicha Markazda namoyon bo'ladigan ko'rsatkichlar ikkinchi darajali ahamiyatga ega. Bunda, YAEAVning ayriboshlanishida milliy valyutalarining to'g'ridan – to'g'ri ishtirok etishini inobatga olgan holda, davlatlarning naqd va naqdsiz pul mablag'larini massasining miqdoriy o'zgarishi nazorat qilib turiladi, xolos. Shu sababli, ushbu miqdoriy o'zgarishlarda ayrim xatoliklar kuzatilgan taqdirda ham bu narsa, – davlatni YAEAV ayriboshlash tizimiga asosiy ta'sir qiluvchi omil bo'lmaydi. Ammo, yuqorida aytildande, ushbu kamchiliklar xavfni baholash dasturi kuzatuvlari orqali bartaraf etib boriladi.

Dunyoning raqamli iqtisodiyot davrida yashayotganligi – ushbu YAEAV ayriboshplash tizimini muvaffaqiyatli yo'lga qo'yishga asos yaratadi.

**Ikkinchidan.** Yuqoridagi YAEAV harakat sxemasida ko'rsatib o'tilgan; Markazga a'zo davlatlarning Vakolatli tashkilotlari (Markaziy banklari) bilan Markaz va A – Bank (3ta subyekt) o'rta sidagi milliy valyutalarni YAEAVga va YAEAVni milliy valyutalarga to'g'ridan – to'g'ri ayriboshplash mexanizmini avtomatlashgan kompyuter dasturi tizimi orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq. Buni O'zbekiston misolidagi ko'rib o'tamiz va bunda yuqoridagi YAEAV harakat sxemasining O'zbekiston misolidagi ko'rinishi quyidagicha bo'ladi (YAEAV harakat sxemasidagi bandlar o'zgartirilmagan):



**2-rasm. YAEAV harakat sxemasining O'zbekiston misolidagi ko'rinishi**

Sxemadagi tizim bo'yicha valyuta ayriboshplash va pul o'tkazmalari operasiyalarini amalga oshirish uchun tizim qatnashchilari subyektlarida quyidagi h/r lar ochiladi. Jumladan:

– O'zbekiston Markaziy banki va Markazda ikkitadan quyidagi h/r lar ochiladi;

1) Milliy valyutani YAEAVga ayriboshplash uchun h/r,

2) YAEAVni milliy valyutaga ayriboshplash uchun h/r,

– A – Bankda O'zbekiston Markaziy banki va Markaz bilan bog'liq YAEAV pul o'tkazmalari operasiyalari uchun bitta h/r ochiladi.



Masalan:

O'zbekiston Markaziy bankida milliy valyutani YAEAVga ayriboshplash uchun 7771 – sonli va YAEAVni milliy valyutaga


ayirboshlash uchun 8881 –sonli h/r ochilgan. Mos ravishda Markazda 7772 va 8882 – sonli h/r lar ochilgan. A – Bankda esa bitta 7788 – sonli h/r ochilgan. Ushbu h/r lar orqali valyuta ayirboshlash operasiyalarining

Agarda;

1) O‘zbekiston Markaziy banki 1 mlrd. so‘mni YAEAVga ayirboshlaganda:



2) O‘zbekiston Markaziy banki 1 mlrd. YAEAVni so‘mga ayirboshlaganda:



Ushbu valyuta ayirboshlash va pul o‘tkazmalarini amalga oshirish operasiyalarida:

– O‘zbekiston Markaziy bankidagi yuqorida ikkita h/r lardagi chiqim operasiyalarini bajarishda inson omili qatnashadi,

– Markaz va A – Bankdagi h/r lardagi kirim – chiqim operasiyalarini bajarilishida esa inson omili qatnashmaydi (chunki, bunga extiyoj yo‘q) ya’ni, avtomatlashgan kompyuter dasturi tizimi orqali ayirboshlash va pul o‘tkazish operasiyalarini bajariladi.

Inson omili qatnashadigan operasiyalar xavfsizligini ta’minlash uchun albatta, himoyalangan elektron kalitlardan foydalaniadi.

Avtomatlashgan kompyuter dasturi tizimi – bir tomonlama operasiyalarni amalga oshishiga yo‘l qo‘ymaydi hamda operasiyalarini avtomat tarzda tezlikda amalga oshishini ta’minlaydi. Ushbu ayirboshlash va pul o‘tkazish operasiyalarining bajarilishi yuqorida aytilgandek, xavfni baholash dasturi kuzatuvlari orqali nazorat qilinadi.

amalga oshishi quyidagicha bo‘ladi: Ma’lumot uchun: O‘zbekiston so‘mining YAEAVga nisbatan ayirboshlash kunidagi kursi 12 000 so‘m (1 YAEAV = 12 000 so‘m).

**Uchinchidan.** YAEAV harakat sxemasi bo‘yicha davlatlar o‘rtasidagi valyuta pul o‘tkazmalarini operasiyalarini (sxemaning 2. a,b – bandlari) hozirda amalda bo‘lgan SWIFT – xalqaro bank o‘tkazmalarini shaklida amalga oshirilishi mumkin. Bunda yuqorida aytilgandek, pul o‘tkazmalarini faqatgina A – Bank orqali amalga oshirish lozim bo‘ladi. Albatta bunday pul o‘tkazmalarini – milliy valyutalarni YAEAVga ayirboshlash uchun avtomatlashgan kompyuter dasturi tizimida qullanilgan h/r lardan tashqari, boshqa h/r lar orqali bajariladi.

**To‘rtinchidan.** Yuqorida aytilgandek, A – Bank o‘zining;

2 – chi funksiyasiga ko‘ra, Markazdan muomalaga chiqarilgan naqdsiz YAEAVning davlatlararo subyektlar o‘rtasidagi harakatini ta’minlash bilan birga, har bir davlatdagi (Markaziy Bankidagi) naqdsiz YAEAV qoldig‘i miqdori hisobini yuritish orqali Markazdan muomalaga chiqarilgan naqdsiz YAEAVning jami massasi balansini nazorat qiladi,

3 – chi funksiyasiga ko‘ra, naqd ko‘rinishdagi YAEAVni muomalaga kiritish

va muomaladan chiqarish orqali naqd YAEAVning jami massasini nazorat qiladi.

Demak, A – Bank o‘zining ushbu funksiyalari orqali quyidagi balans tenglikni nazorat qiladi:

Markazdan muomalaga chiqarilgan jami YAEAV massasi = muomaladagi naqdsiz YAEAV massasi + muomaladagi naqd YAEAV massasi.

Natijada, YAEAVning to‘g‘ri va ishonchli muomalada bo‘lishi ta‘minlanadi.

Ma’lumot uchun: Raqamli valyutalar (kriptovalyuta) tizimidagi kabi texnologiyalardan foydalangan holda ham YAEAVni muomalaga kiritish mumkindir. Ammo bu, qo‘llaniladigan texnologiyalarning qanchalik tashqi xavflardan himoyalanganligi imkoniyatlari yaratilishi bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, bu tema olimlarga mulohaza uchun qoldiriladi.

Va nihoyat, YAEAV muomalasi bo‘yicha xalqaro kelishuv shartnomasini imzolanalishi uning ishonchliligini ta‘minlaydi.

**Yakuniy natija.** Agar YAEAV muomalasi bilan bog‘liq ushbu tizimni ishslash mexanizmi to‘g‘ri deb topilganda;

– davlatlar o‘rtasidagi to‘lov vositasi sifatida YAEAV muomalada bo‘lishi uchun barcha davlatlar hamda YAEAV operasiyalarini ta‘minlab beruvchi moliya institutlari (Markaz, A – Bank, davlatlarning Vakolatli tashkiloti (Markaziy Banki)) o‘rtasida tegishli xalqaro normativ hujjatlar ishlab chiqilib, imzolanishi lozim,

– har bir moliya institutining ish tartibini belgilaydigan o‘z nizomi va boshqa tegishli tashkiliy ishlar belgilanadi.

Hozirda amaldagi EAVlar taqdiri nima bo‘ladi?

Amaldagi EAVlar ma’lum bir davlat(lar)ning pul birligi hisoblanadi. Shu sababli, YAEAV tizimiga o‘tish jarayonida ushbu EAVlar zaxirasiga ega bo‘lgan davlat

uni o‘z davlatiga qaytaradi, albatta. O‘z navbatida EAVlarni qabul qilib olgan davlat, uning ekvivalentida YAEAV miqdori bilan qaytarish majburiyatini olishi mumkin.

Masalan: O‘zbekiston davlati 5 mlrd. AQSH dollari miqdorida zaxiraga ega. Yuqorida aytilgandek, Markazga a’zo davlat tomonidan milliy valyutalarni AQSH dollariga erkin suzadigan kurs bo‘yicha ayrboshlanishi ta‘minlangandan so‘ng dastlab, Markazning ishini yo‘lga qo‘yish maqsadida,

1 AQSH dollari = 1 YAEAV deb qabul qilingan.

Demak, O‘zbekiston 5 mlrd. AQSH dollarini AQSH davlatiga qaytaradi va o‘z navbatida AQSH davlati uning o‘rniga 5 mlrd. YAEAVni O‘zbekistonga qaytaradi.

Hozirdagidek, ayrim davlatlar o‘z milliy valyutalaridan o‘zaro hisob kitoblar uchun foydalanishi mumkinmi?.

Har qanday davlatlar savdo – iqtisodiy munosabatlarda o‘zaro kelishuv asosida, o‘z milliy valyutalaridan o‘zaro hisob kitoblar uchun foydalanishi mumkin. Bu holat, talqin qilinayotgan YAEAV ayrboshlash tizimiga ta’sir qilmaydi.

## 5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Talqin qilinayotgan milliy valyutalarni to‘g‘ridan – to‘g‘ri YAEAVga ayrbosh tizimining amal qilishi – amaldagi valyuta ayrboshlash tizimi (ya’ni, qaysidir davlat pul birligining EAV bo‘lishi va faqatgina eksport orqali EAV tushumiga ega bo‘lish) erasini yakunlaydi. Natijada, quyidagi yutuqlarga erishiladi:

